**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida

***UO‘K***
***373.5.016:811.512.133’36***

**SANOYEVA MUHTABAR NABIYEVNA**

# GRAMMATIK TOPSHIRIQLARNI BAJARISHDA MATN USTIDA ISHLASH METODIKASI (8-SINF MISOLIDA)

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (O‘zbek tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar: N.Q.Murodova**

**filologiya fanlari doktori, professor**

**Navoiy-2023**

## MUNDARIJA

**KIRISH** ......................................................................................................................3

**I BOB. ONA TILI TA'LIMIDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O'QUVCHILAR YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI.........................................................................................................12**

1.1-§. Matn nutq jarayonining yaxlit kommunikativ birligi va yozma nutqni rivojlantirish vositasi sifatida………..............................................................12

1.2-§. Ona tili ta'limida matn ustida ishlash va matn yaratishning didaktik tamoyillari………………………………………………………..…………..27

Birinchi bob bo'yicha xulosalar……….......................................................... 46

**II BOB. O'QUVCHILARNI GRAMMATIK TOPSHIRIQLAR BAJARISH ORQALI MATN YARATISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH…………..49**

2.1-§.Grammatik bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash jarayonida mustaqil matn tuzishga tayyorlov topshiriqlari……….……................................49

2.2-§.Matn ustida ishlashga qaratilgan grammatik topshiriqlar (kengaytirish, ixchamlash, tahrir qilish, qiyoslash, xulosalash) ……..........................................67

2.3-§.Matnni yaratishga yo'naltirilgan tizimli grammatik topshiriqlar..................84

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar…….................................................................96

**III BOB. O'QUVCHILARDA MATN YARATISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINING SAMARADORLIGI…...…………………………………………………98**

3.1-§. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni..........................................98

3.2-§. Tajriba-sinov natijalarining statistik tahlili ..............................................114

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar………........................................................... 129

**UMUMIY XULOSALAR** ........................................................................131

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**.........................................................135

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda fan va texnologiyaning jadal sur'atda rivojlanishi, axborot kommunikatsiyalarining tezlik oqimida kirib kelishi ta'lim jarayonlarini pedagogik jihatdan texnologiyalash, o'qitishning integratsiyalashtirilgan shart-sharoitlarini takomillashtirishga bo'lgan talabni oshirmoqda. Bunda turli fanlar yoki mavzularni kompetensiyaviy tarzda tadqiq etish bilan birga, o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, kompetensiyaviylikning o'zaro uyg'unlashuviga alohida e'tibor qaratilib, turli xalqlarning milliy ta'limga oid yondashuvlaridan samarali foydalanish orqali zamonaviy metodlarni amaliyotga tatbiq etish tendensiyalari o'z ifodasini topmoqda.

Dunyoda ijtimoiy taraqqiyotning jadallashuvi, axborot tizimining globallashuvi, internet tizimi, tezkor axborot olish va uzatish zaruriyatining yuzaga kelishi keng miqyosda interfaol ta'lim muhitini yaratish, o'quvchilarda nutqiy kompetentlik, ravon nutq malakasini tarkib toptirish, ijodiy tafakkur faoliyatini maqsadli yo'naltirish va boshqarish texnologiyalarini yaratish, mazkur yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borilishi dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy jihatdan mustaqil davlat sifatida shakllanishi va jamiyat hayotining barcha sohalarida tubdan islohotlar o'tkazilishi ta'lim-tarbiya tizimining butunlay yangilanishiga sabab bo'ldi. Bu sohada yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi ta'lim tizimini tubdan modernizatsiyalashga olib keldi hamda innovatsion ta'lim muhitini yaratish, uni xalqaro andozalarga to'liq mosligini ta'minlash, yoshlarimizni bugungi tez o'zgaruvchan ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirishning muhim omilidir. Zero, "Xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish kompetentligini kengaytirishni ta'minlovchi zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini

bosqichma-bosqich tatbiq etish” kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan[1]. Mazkur vazifaning samarali hal etilishi, o‘z navbatida, ona tili ta’limida matn ustida ishlashga ham mas’uliyat bilan yondashish zarurligini taqozo etmoqda.

2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** So‘nggi yillarda matn tilshunoslikning asosiy tamoyillaridan biriga aylandi. Bunga sabab zamonaviy tilshunoslikda til va uning birliklarini yaratuvchi shaxs tomonidan vujudga keltirilgan matnlarga e’tibor kuchaydi. Jumladan, matn funksional va stilistik tomondan (V.V.Vinogradov, A.N.Kojin, N.S.Valgina va b.), matn tarkibiy va semantik jihatdan (G.A.Zolotova, I.M.Kovtunova, Y.M.Lotman,

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 29.04.2019-y., 6/19/5712/3034-son, 2019.

Y.A.Referovskaya, Z.Y.Turayeva va b.), matn asosiy toifalari va xususiyatlari tomondan (I.R.Galperin, Y.A.Sorokin va b.), lingvistik vositalar va matn ma'nosini ifodalash usullarining faoliyati jihatidan (M.I.Gorelikova, D.M.Magometova, N.M.Shanskiy va b.) o'rganilgan.

O'zbek tilini o'qitish masalalari metodist olimlarimiz Y.Abdullayev, M.Omilxonova, Z.Ma'rufov, A.G'ulomovlar tomonidan boshlab berilgan bo'lsa, keyingi bosqichda H.Ne'matov, M.Usmonova, M.Abduraimova, M.Qodirov, B.To'xliyev, M.Shamsiyeva, R.Yo'ldoshev, R.Safarova, R.Tolipova, Sh.Yusupova, R.Niyozmetova, X.Muxitdinova, A.Rafiyev, A.Mirazizov, K.Mavlonova va boshqalarning tadqiqot ishlari, darsliklari va metodik qo'llanmalari bilan muvaffaqiyatli davom ettirildi. Xususan, matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish masalalari A.Nisanbayeva, M.Rixsiyeva, D.Toshxo'jayeva, T.Ziyodovalarning metodik ishlarida, matn ustida ishlashni adabiyot fani bilan integratsiya qilgan holda rivojlantirish masalalari K.Mavlonovaning tadqiqot ishida, ona tili ta'limida o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish masalalari G'.Hamroyevning tadqiqot ishida ko'rib chiqilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №1-son "O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari" (2018–2022-yy) mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilarini grammatik topshiriqlar vositasida bog'lanishli matn yaratish faoliyatiga tayyorlash hamda matn ustida ishlashga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ona tili ta'limida matn ustida ishlash orqali o'quvchilar yozma nutqini rivojlantirish, matn yaratish va matn ustida ishlashning mavjud holatini pedagogik va metodik jihatdan tahlil qilish;

o‘quvchilarni grammatik topshiriqlarni bajarish orqali matn yaratish faoliyatiga tayyorlash bosqichlarini aniqlashtirish hamda grammatik bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash jarayonida mustaqil matn tuzishga tayyorlov topshiriqlarini ishlab chiqish;

muayyan mavzuda matn yaratishga doir matn tuzishga tayyorgarlik jarayonini qamrab oladigan matn oldi, matn mazmunini to‘ldirish, matnni kengaytirish, ixchamlashga qaratilgan matn ustida ishlash, matn tahriri va xatolar ustida ishlashga yo‘naltiriladigan matn osti topshiriqlarining didaktik ta’minotini takomillashtirish;

ona tili ta’limida matn ustida ishlash orqali o‘quvchilar yozma nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni grammatik topshiriqlar vositasida matn ustida ishlash va matn yaratishga yo’naltirish jarayoni tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti**ni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni grammatik topshiriqlar vositasida matn ustida ishlash va matn yaratishga yo’naltirishning metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida mavzuga oid nazariy, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, suhbat, test), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ona tili ta’limida grammatik topshiriqlar o‘quvchilarning bog‘lanishli matn yaratish bilan bog‘liq ta’limiy-didaktik faoliyatini tashkil etishi, egallangan nazariy ko‘nikma-malakalar yaxlit kommunikativ birlikni yaratishga xizmat qilishiga ko‘ra dars mashg‘ulotlarida bajariladigan mashq va topshiriqlar tizimi shakllantirilmaganligi aniqlangan;

matn tuzishga tayyorgarlik jarayonini qamrab oladigan matn tahririga asoslangan topshiriqlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning nutqiy

kompetensiyasini shakllantirish bevosita grammatik topshiriqlarning qanday qo‘yilishiga bog‘liq ekanligi isbotlangan;

ona tili ta’limida matn ustida ishlashni o‘rgatish tizimi va mezonlari bilimlarning oshib borishi sababli 5-sinfdan boshlab avval tayyor matnlar bilan tanishtirish va kichik matnlar tuzdirish orqali o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini asta-sekin shakllantirib borishning samaradorlik natijalariga ko‘ra 8-sinfdan boshlab o‘quvchilar matn tarkibiy qismlarini farqlashi, matn qismlarini ajrata olishi va matn janri, tili va uslubini farqlashi lozimligi dalillangan;

ona tili darslarida o‘quvchilarni matn ustida ishlash va matn yaratishga o‘rgatishda grammatik topshiriqlarni nutqqa tayyorlovchi kommunikativ topshiriqlar bilan o‘zgartirish, terma gaplardan bog‘lanishli nutqqa qarab o‘stirib borish bog‘lanishli matn yaratishga zamin bo‘lishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

umumiy o‘rta ta’lim tizimining 5–8-sinflari uchun umumiy o‘rta ta’lim tizimida BKMlarni rivojlantirishga tizimli yondashish metodikasi amaliyotga joriy etilib, ona tili darslarida matn ustida ishlash yo‘llari, nutqiy kompetentlikni shakllantirish vositalari keng tahlil qilingan, tavsiyalar berilgan;

grammatik topshiriqlar yordamida matnni tadqiq etish jarayonida ona tili ta’limida yangicha yondashuv negizida matn orqali o‘quvchilar nutqini o‘stirishning yozma nutq madaniyatini shakllantirish bilan bog‘liq metodika takomillashtirilgan;

tadqiqot natijalaridan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi DTS va o‘quv dasturlari, shuningdek, darsliklar yaratishda foydalanilgan;

tadqiqot natijalaridan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan ishlab chiqiladigan test topshiriqlari mazmuni va metodikasini takomillashtirishda foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo‘llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligi darajasi matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa,

taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ona tili ta’limida o‘quvchilarning yozma nutq malakasini rivojlantirishga oid tadqiqotlar yaratishda ilmiy-nazariy manba sifatida foydalanilishi, matnni tahlil qilish va yaratish malakasini baholashda foydalaniladigan topshiriqlarni ishlab chiqishda ilmiy-metodik manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilarining ona tilidan yakuniy davlat attestatsiyasi uchun baholash formati va mazmunini ishlab chiqishda, oliy ta’lim muassasalariga qabul imtihonlarida ona tilidan baholash mezonlarini yaratishda, “Ona tili o‘qitish metodikasi” fanidan dasturlar tuzish hamda mavzularni bayon etishda manba vazifasini o‘tashi, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-8-sinf o‘quvchilarida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga tizimli yondashishda muhim qo‘llanma bo‘lishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Grammatik topshiriqlarni bajarishda matn ustida ishlash metodikasi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ona tili ta’limida grammatik topshiriqlar o‘quvchilarning bog‘lanishli matn yaratish bilan bog‘liq ta’limiy-didaktik faoliyatini tashkil etishi, egallangan nazariy ko‘nikma-malakalar yaxlit kommunikativ birlikni yaratishga xizmat qilishini nazarda tutgan holda dars mashg‘ulotlarida bajariladigan mashq va topshiriqlar tizimi shakllantirilmaganligi haqidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limida bajarilgan FA-F1-GOO3-raqamli “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 15-apreldagi 17.01/91-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning nazariy qismining ilmiy xulosalar, dallilar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

matn tuzishga tayyorgarlik jarayonini qamrab oladigan matn tahlili va tahririga asoslangan topshiriqlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirish bevosita grammatik topshiriqlarning qanday qo‘yilishiga bog‘liq ekanligi to‘g‘risidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limida bajarilgan F3-2016-09081165532-raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2022-yil 15-apreldagi 96/1-son ma’lumotnomasi). Natijada loyihaning til ta’limi, ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi haqidagi fikrlar bilan boyitilishiga erishilgan;

ona tili darslarida o‘quvchilarni matn ustida ishlash va matn yaratishga o‘rgatishda grammatik topshiriqlarni nutqqa tayyorlovchi kommunikativ topshiriqlar bilan o‘zgartirish, terma gaplardan bog‘lanishli nutqqa qarab o‘stirib borish bog‘lanishli matn yaratishga zamin bo‘lishi isbotlangan metodik tavsiyalar haqidagi xulosalardan Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 7-,11-,12-,16-, Karmana tumanidagi 5-, Navbahor tumanidagi 9-, Uchquduq tumanidagi 10-, Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi 4-, 47-, 63-, Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 79- maktablarning 5-8 sinflarida amaliyotga tatbiq etilgan (Respublika ta’lim markazi ma’lumotnomasi 2022 -yil 4-avgustdagi 01/11-01/6-1208-son ma’lumotnomasi). Natijada dars jarayonida “Reyder”, “Esse”, “Fikrlar savati”, “SMS-xabarnoma” kabi interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini yanada takomillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Tadqiqot natijalari sifatida 14 ta ilmiy ish e’lon qilingan, shu jumladan, Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

# I BOB. ONA TILI TA’LIMIDA MATN USTIDA ISHLASH ORQALI O‘QUVCHILAR YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

## 1.1.§. Matn nutq jarayonining yaxlit kommunikativ birligi va yozma nutqni rivojlantirish vositasi sifatida

Ma’lumki, til insonlarning asosiy muloqot vositasi bo‘lib, jamiyatda ilm-fan, tafakkur rivojiga, odamlar tomonidan yaratilgan barcha intellektual boyliklar, madaniy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazilib berilishiga xizmat qiladi. Shu bois til ta’limida muomala-muloqotga o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishning ahamiyati nihoyatda katta. Darhaqiqat, yetuk, barkamol kadr bo‘lib yetishish, o‘zi yashayotgan ijtimoiy jamiyatda erkin faoliyat yuritish uchun jamiyatning turlicha ijtimoiy munosabatlar tizimiga tayyor turishi, ularni boshqarish qonun-qoidalarini mukammal egallashi, shu bois muntazam o‘z bilimi, hayotiy va nutqiy ko‘nikma-malakalarini muntazam oshirib borishi zarur.

Lingvistik adabiyotlarni tahlil qilish bugungi kunda matn nazariyasi masalalari har tomonlama ishlab chiqilganligini ko‘rsatadi. Jumladan, jahon tilshunosligida matnning funksional va stilistik tomonlari (V.V.Vinogradov, A.N.Kojin, N.S.Valgina va b.), matnning tarkibiy va semantik jihatlari (G.A.Zolotova, I.M.Kovtunova, Y.M.Lotman, Y.A.Referovskaya, Z.Y.Turayeva va b.), matn turlari va xususiyatlari (I.R.Galperin, Y.A.Sorokin va b.), lingvistik vositalar va matn ma’nosini ifodalash usullarining faoliyatli jihatlari (M.I.Gorelikova, D.M.Magometova, N.M.Shanskiy va b.) ishlarida o‘rganilgan[1].

---

[1] Виноградов В.В.О языке художественной литературы. –Москва: Гослитиздат, 1959. –258 с.; Кожин А.Н. Стилистика русского языка: Жанрово-коммуникативный аспект стилистики текста. Под ред. А.Н.Кожина. –Москва, 1987. –238 с.; Валгина Н.С. Теория текста. –Москва: Логос. 2003. –191 с.; Золотова Г.А. Коммуникативная грамматика русского языка. –Москва: Изд. МГУ, 1998 (в соавторстве с Н.К. Онипенко и М.Ю. Сидоровой); Изд. 2-е, испр. и доп. –Москва: Азбуковник, 2004. -528 с.; Ковтунова И.И. Современный русский язык. Порядок слов и актуальное членение предложения. –Москва, 1976. –238 с.; Лотман Ю.М. Избранные статьи. Т. 1. –Таллинн, 1992. –129-132 с; Реферовская Е.А. Лингвистические исследования структуры текста. –Ленинград: Наука, 1983. –215 с.; Тураева З.Я. Лингвистика текста: текст, структура и семантика. –Москва: Просвещение, 1986. – 126 с.; Гальперин, И.Р. О понятии “текст” [Текст] / И.Р. Гальперин // Лингвистика текста: материалы науч. конф. / Моск. гос. пед. ин-т иностр. яз. им. Мориса Тореза. – Москва, 1974. – Ч. 1. – 67-72 с.; Сорокин Ю. А. Переводоведение: статус переводчика и психогерменевтические процедуры. – Москва: Гнозис, 2003. –160 с.; Гореликова М.И. Интерпретация художественного текста: Лингвистический анализ: Из русской прозы. –Москва, 2002. – 95 с.; Магомедова Д.М. Филологический анализ лирического стихотворения. –Москва, 2004. – 35 с.; Шанский Н.М. Словообразование современного русского языка/ Русский язык в школе, 1969, №3. – 63-67 с.

O‘zbek tilshunosligida tilni tizimli o‘rganish masalalari tilshunos olimlarimiz A.G‘ulomov, M.Asqarova, M.Mirtojiev, Sh.Rahmatullaev, N.Mahmudov, A.Nurmonovlar[1] va o‘zbek tilini o‘qitish masalalari esa metodist olimlarimiz Y.Abdullaev, M.Omilxonova, Z.Ma’rufov, A.G‘ulomovlar[2] tomonidan boshlab berilgan bo‘lsa, keyingi bosqichda R.Sayfullaeva, M.Qurbonova, R.Rasulov, B.Mengliyev, ta’lim masalalari esa H.Ne’matov, M.Usmonova, M.Abduraimova, M.Qodirov, B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, R.Yo‘ldoshev, R.Safarova, R.Tolipova, Sh.Yusupova, R.Niyozmetova, X.Muxitdinova, A.Rafiyev, A.Mirazizov, K.Mavlonova va boshqalarning[3] tadqiqot ishlari, darsliklari va metodik qo‘llanmalari bilan muvaffaqiyatli davom ettirildi. Xususan, matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish masalalari A.Nisanbayeva, M.Rixsiyeva, D.Toshxo‘jaeva, T.Ziyodovalarning metodik ishlarida[4], matn ustida ishlashni adabiyot fani bilan integratsiya qilgan holda rivojlantirish masalalari K.Mavlonovaning tadqiqot ishida[5] ko‘rib chiqilgan.

---

[1] Ne’matov H., Mahmudov N., Nurmonov A., Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili dasturi. – Toshkent: 2019. – 36-b.

[2] Abdullaev Y., Omilxonova M., Ma’rufov Z., G‘ulomov A. Ona tili. 6-7-sinf. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.; Asqarova M., Abdullaev Y., Omilxonova M. O‘zbek tili. 7-8 sinf. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981.

[3] Abduraimova M., Qodirov M. va b. Ona tili (o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma, 6-sinf). Toshkent: Sharq, 2012.; Usmonova M. Mashqlar to‘plami (o‘qishlar rus tilida olib boriladigan maktablarning 4–9-sinflari uchun). – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.; Mahmudov N., To‘xliyev B. O‘zbek tilini o‘rganamiz. –Toshkent: O‘qituvchi, 1991. Safarova R. Ona tili ta’limining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. – T.: Fan, 1995. – 108 b.; Rasulov R., Usmonova M., Mirazizov A. O‘zbek tili. – Toshkent, 2003.; Юлдашев Р.А. Изучение падежных конструкций на уроках узбекского языка в III-VIII классах школ с русским языком обучения: дис. ... канд. пед. наук. –Ташкент, 1979; Rafiyev A. va b. O‘zbek tilining amaliy grammatikasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992.; Tolipova R. va b. Umumta’lim maktablari uchun o‘zbek tilidan takomillashtirilgan va modernizatsiya qilingan o‘quv dasturi. – Toshkent: RTM, 2004; Tolipova R. 6-7-sinflarda o‘zbek tili darslari (metodik qo‘llanma). – Toshkent: Sharq, 2007.; Yusupova Sh.I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari (akademik litseylar misolida): ped. fan. dok. ... dis. –Toshkent: 2005.-279 b.; Niyozmetova R. Uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek adabiyotini o‘rganishning nazariy va metodik asoslari (rus guruhlari misolida): ped. fan. dok. … dis. –Toshkent, 2007.-216 b.; Muxitdinova X.S. Ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: ped. fan. dok. … dis. –Toshkent, 2011.-270 b.; Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o‘qitish metodikasini takomillashtirish: ped. fanl. bo‘yicha fal. dok. (PhD).... diss. –T.: 2019.-54-b.; To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T., 2010.-174 b.

[4] Nisanbayeva A.Q. O‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik asoslari (Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablar misolida): ped. fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 1995. – 160 b.; Rixsiyeva M.M. Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarni matn tuzishga o‘rgatish: ped. fan. nom. ... dis. –Toshkent, 1998. – 146 b.; Toshxo‘jayeva D. Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga o‘rgatishning metodik asoslari: ped. fan. nom. ... dis. –Toshkent, 2000. –156 b.; Hazratqulov M.R. Adabiy ta’limda inshoning o‘rni va uni tashkil etishning ilmiy metodik asoslari: ped.fan.b. fal. dok. … dis. – Toshkent, 2018. – 154 b.; Ziyodova T.Matn yaratish texnologiyasi. - T.: Fan, 2007. –155 b.

[5] Mavlonova K. Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o‘qitish metodikasini takomillashtirish: ped. fanl. bo‘yicha fal. dok. (PhD).... diss. avtoreferati. –T.: 2019.-54 b.

Respublikamizda ta’lim sohasida o‘tkazilayotgan tub islohotlar o‘z sohasi bo‘yicha yetuk bilimdon, yuksak ma’naviyatli, yuqori malakali, ayni vaqtda savodxon kadrlarni yetishtirishga qaratilgan. O‘sib kelayotgan yosh avlodning tafakkurini rivojlantirish, ularni o‘z fikrini maqsadli va aniq ifoda etishga o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutq, til va nutq madaniyati malakalarini yuqori darajaga olib chiqish bugungi kunda til ta’limi oldiga qo‘yilgan eng muhim vazifalardan biridir.

Inson ijtimoiy-ma’naviy faoliyatining asosiy shakli va mazmuni muomala-muloqot orqali ifodalansa, insoniyat erishgan yutuqlar, madaniy-ma’naviy meroslarni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning eng asosiy vositasi ijodiy tafakkur mahsuli bo‘lmish matn orqali namoyon bo‘ladi. Matn yozma nutq malakasini egallashni taqozo etadi. Mustaqil matn yaratish va matn ustida ishlash o‘quvchidan matn turlarini bilish, matnning tarkibiy qismlari bilan tanishish va ushbu qismlarni o‘zaro bog‘lovchi grammatik vositalarni to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikma-malakalarini egallashni talab etadi. Buning uchun ona tili darslarida matn mazmunini to‘ldirish, kengaytirish, uni qayta ishlash, matnning shakli, uslubini o‘zgartirish, matnda mavjud mantiqiy va uslubiy nuqsonlarni aniqlash va bartaraf qilish yo‘nalishlarida ish olib borish, ya’ni o‘quvchilarni nafaqat matn yaratishga, balki matnni tahlil qilish va tahrir qilishga o‘rgatishga ham yo‘naltirish kerak bo‘ladi.

O‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, o‘z fikrini to‘g‘ri, ravon, talab va ehtiyojga mos ravishda ifodalashga o‘rgatishda, uni amalga oshirishning eng muhim omillaridan biri – matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqishdir.

So‘nggi yillarda zamonaviy tilshunoslikda matn tushunchasi, matnning nutqdagi o‘rni, uning tuzilmaviy qismlarini o‘rganish masalalariga e’tibor kuchaydi. Matn tushunchasi tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilingan bo‘lib, ikki tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ushbu atamaga quyidagicha izoh berilgan:

1.Yozilgan, koʻchirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi; matn. Maqolaning teksti.

2. Muzika asariga, masalan, biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos boʻlgan sheʼr, soʻz. 3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi[1].

Besh tomli "Oʻzbek tilining izohli lugʻati"da esa matn: "MATN [arabcha – yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst] 1.Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2.Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz qismi"[2] deb izohlanadi.

I.R.Galperin "Matn lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" asarida tilshunos olimlar tomonidan matn atamasiga berilgan qator taʼriflarni sanab oʻtadi:

1."Muayyan sharoitda shaxs tomonidan soʻzlangan nutq yoki oʻzaro bogʻlangan nutqiy parchalar yigʻindisi matn deyiladi" (Y.Kosoriu).

2. "Matn semantikaning asosiy birligi sanalib, mavjud imkoniyatlarni yuzaga chiqarish shaklidir" (X.X.Xollidey).

3. "Matn oʻziga xos yaxlit tuzilma hisoblanib, uning tarkibida mavjud belgilarning oʻzaro birikuvi maʼlum aloqalar sistemasidir. Shuning uchun ham unga turli tomondan yondashish mumkin" (P.Giro)[3].

Oʻzbek tilshunosligida ulugʻ allomamiz Abulqosim az-Zamaxshariyning "...matn shaxsning til imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini aniqlash mezoni"[4] degan tavsifi eng qadimgi va mukammal tavsif boʻlib, aynan matnshunoslik borasida H.Neʼmatov, N.Mahmudov, A.Mamajonov, M.Abdupattoyev, M.Tuxsonov, B.Mengliyev, M.Hakimov, N.Turniyozov, M.Yoʻldoshev, A.Erkinov, M.Qurbonova, S.Boymirzayeva, D. Xudoyberganovalarning[5] matn lingvistikasi yuzasidan amalga oshirgan tadqiqotlari alohida ahamiyatlidir. Xususan, A.Mamajonov, M.Abdupattoyevlar oʻz tadqiqotlarida "matn – nutqning oʻziga xos murakkab sintaktik strukturaga ega boʻlgan eng yirik ifodasi"

---

[1] Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 1981. – 452 b.
[2] Oʻzbek tilining izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2014.- 557 b.
[3] Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследование. – Москва, 1981. – 13–15 с.
[4] Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 1991. – 190 b.
[5] Neʼmatov H., Maxmudov N., Nurmonov A., Sayfullayeva R. Hozirgi oʻzbek adabiy tili dasturi. – Toshkent: 2019.- 2019.-36-b.

ekanligiga alohida urg‘u bergan bo‘lsa[1], D.Xudoyberganovaning doktorlik tadqiqotida matn antroposentrik nuqtai nazardan tadqiq etgan[2].

Ko‘rinadiki, matn bu lingvistik birliklarni birlashtiradigan tuzilma bo‘lib, ya’ni tilning barcha birliklari mazmuniy va struktural izchil tizimda joylashgan yaxlit birlikdir. Matnda barcha lisoniy birliklar nutq turlari va ularning uslubiga mos funksiyalarga ega bo‘ladi. Shu bois til ta’limining matn yaratish jarayonida nutq turlari va ularning ifoda shakllarini o‘rganish amaliy ahamiyatga ega. O‘quvchi-talabalar nutqning vazifaviy shakllarini to‘g‘ri qo‘llay olishlari uchun, avvalo, ularni nutqiy muloqotning funksional shakllari va mazmuniy turlari bilan tanishtirish talab etiladi.

Muloqot jarayoni juda murakkab bo‘lib, so‘zlovchi miyasida yuzaga kelgan fikrni to‘liq idrok qilib olgach, so‘ng tashqi nutqda ifoda qilishga kirishadi, ayni vaqtda uning ongida navbatdagi fikr tug‘ila boshlaydi. Mazkur uzluksiz davomli jarayonda yuzaga keladigan har bir fikr avval ifoda qilingan fikr bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ushbu bog‘liqlik fikrlarning bir-birini to‘ldirishi, izohlashi, tasdiqlashi orqali namoyon bo‘ladi. Ko‘rinadiki, nutq tarkibidagi har bir fikr yetkazilishi kerak bo‘lgan axborotning ma’lum bir qismini qamrab olgan bo‘ladi. Bu jarayonda lisoniy vositalarning ahamiyati katta bo‘lib, so‘zlovchi fikrlarini bevosita ifoda qilish uchun zarur bo‘lgan til vositalarini tanlab olish til ko‘nikmalari va nutq malakasiga tayanilgan holda amalga oshiriladi.

Nutqiy malaka nutq faoliyatining yuqori darajasi bo‘lib, u nutqiy harakatlarni ongli ravishda boshqara olish qobiliyati hisoblanadi. Tilga oid qoidalarni muayyan vaziyatda amaliy qo‘llash ko‘nikmalari asta-sekinlik bilan fikrni ifodalashda o‘rganilgan bilimlardan o‘rinli foydalana olish malakalariga qarab o‘sib boradi. Demak, bog‘lanishli nutqiy malakaga ega bo‘lish bir vaqtning o‘zida ham mantiqiy, ham lisoniy dasturni amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda so‘zlovchi o‘z fikrini hech qanday uzilishlarsiz, jumlalar o‘rtasida to‘xtamlarsiz bog‘lanishli tarzda aytilishi uchun ichki dasturlash, ya’ni oldingi gapni aytish jarayonida

[1] Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi. – Farg‘ona, 2002. – 21–27-b.
[2] Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi (monografiya). – Toshkent, Fan. – 2013. – 135 b.

keyingi gap mazmunini o‘ylab olish va unga mos ifoda vositalarini rejalashtirib olish dasturini amalga oshiradi. Mazkur fiziologik, mantiqiy va lisoniy jarayonlar uyg‘unligidan iborat nutqiy faoliyat, eng avvalo, yuzaga kelgan fikr ifodasiga mos so‘zlarni va ularning grammatik shakllarini tanlash va jamlashdan boshlanadi. Ushbu mexanizm tarkibidagi fiziologik jarayonni o‘rgangan N.I.Jinkinning qayd qilishicha, birinchi bosqichda so‘zlar tanlovi ketadi, ikkinchi bosqichda esa so‘zlarni o‘zaro bog‘lash jarayoni kuzatiladi[1]. Nutq mexanizmlarini shu tarzda transformatsiyalash, ya’ni nutqiy matnning shakllanish va takomillashish jarayoni faqat nutqiy faoliyat sharoitidagina, nutqiy muloqotda yuz beradigan axborot almashinuvi orqaligina amalga oshishi mumkin.

Monologik nutqiy malakaga ega bo‘lish bir vaqtning o‘zida ham mantiqiy, ham lisoniy dasturni amalga oshirish, ya’ni so‘zlovchi o‘z fikrini bog‘lanishli tarzda ravon bayon etishi, matn hech qanday uzilishlarsiz, jumlalar o‘rtasida to‘xtamlarsiz yaxlit holda aytilishi uchun ichki dasturlash, ya’ni oldingi gapni aytish jarayonida keyingi gap mazmunini o‘ylab olish va unga mos ifoda vositalarini rejalashtirib olishdan iboratdir. Bu nutqning ichki va tashqi ko‘rinishlari mavjudligini ko‘rsatadi[2].

Ichki nutq insonning fikrlash jarayonida o‘y-fikrlarini biror-bir mavzu doirasida jamlab tuzadigan passiv nutqi bo‘lib, o‘z-o‘ziga qaratilgan va ikkinchi odamning ishtiroki kerak bo‘lmaydigan nutq hisoblanadi. Shuning uchun uni tashqaridan nazorat qilib bo‘lmaydi. Fikrni bir joyga to‘plash, nimalar haqida fikr yuritish kerakligini belgilash, bayon qilinadigan asosiy fikrning mohiyatni anglash – ichki nutqning muhim omillaridir. Xususan, insho, bayon yozishdan oldingi jarayon ichki nutq namunasidir. Ona tili mashg‘ulotlarida bajariladigan mustaqil ishlarning hammasi ichki nutq holatida boshlanib, so‘ngra tashqi nutq shaklida namoyon bo‘ladi, shu bois ona tili ta’limida aynan ichki nutqni rivojlantirishga alohida e’tibor berish kerak bo‘ladi.

[1] Жинкин Н.И. Механизмы речи. 3-е изд. – М., 1991. – 370 с.
[2]Salisheva Z.I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarida): ped. fanlari b-cha fals. dokt. (PhD) .... dis-yasi. –Toshkent, 2019. – 24-b.

Tashqi nutq esa boshqalarga qaratilgan va nazorat qilish mumkin boʻlgan faol nutq boʻlib, u ogʻzaki va yozma shakllarga ega[1]. Yozma nutq harf va soʻzlarning maʼlum bir qonuniyat asosida oʻzaro birikuvi, yaʼni soʻz birikmalari va gaplarni grammatik jihatdan aniq va tushunarli, izchil va uzviy bogʻliqlikda bayon qilish hosilasi sifatida namoyon boʻladi va har xil tinish belgilari hamda sintagmatik ajratishlar: abzaslarga boʻlish, paragraflarga ajratish, sarlavha qoʻyish kabi boʻlaklarga ajratish orqali voqelanadi. Ogʻzaki nutq esa matniy tuzilmalarni nutq tovushlari, ohang, pauzalar vositasida namoyon qiladi va, asosan, savol-javob shaklida voqelanadi. Shu bois ogʻzaki nutq kamida ikki va undan ortiq shaxs ishtirokida amalga oshiriladi. Nutqning monologik, dialogik va polilogik shakllari mavjud boʻlib, yozma nutqda asosan monologik nutq koʻrinishi, ogʻzaki nutqda bir necha shaxs nutqidan iborat boʻlgan dialog va polilog shakllari ustuvorlik qiladi.

I.R.Galperin va uning izdoshlari matnni faqat yozma shaklda ifodalangan nutq, nutq parchasi ekanligini taʼkidlashsa[2], oʻzbek tilshunosi N.Mahmudov[3] “matnning ilmiy mohiyati, asosiy sintaktik vazifasi axborot uzatish, fikr mahsulini yaxlit aks ettirishdan iboratligi hisobga olinsa, “matn” tushunchasini ham ogʻzaki, ham yozma holatda erkin ishlatish mumkin”, –deb keltirib oʻtadi.

Metodist olima M.Abduraimovaning taʼkidicha, yozma nutq ustida ishlash ogʻzaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon boʻlib, u oʻquvchidan grammatik va mazmun jihatdan toʻgʻri jumla qurishni, har bir soʻzni oʻz oʻrnida toʻgʻri qoʻllashni, fikrni izchil, ixcham, ifodali, uslub jihatidan sodda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar asosida xulosa chiqarishni talab etadi. Uning fikricha, bu nutq turining murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bogʻliq. Soʻzni toʻgʻri yozish, tinish belgilarini oʻrinli qoʻllash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish oʻquvchidan katta bilim va malaka talab

---

[1] Abduraimova M., Qodirov M., Ziyodullaeva G., Mamanboeva G. Ona tili. Oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma. – Toshkent: Sharq. – 2012. - 51-b.

[2] Гальперин И.Р. Грамматические категории текста. Изд-во АПН СССР, Сер., Литература и язык. – Москва, 1987. № 6. – 4–21 с.

[3] Mahmudov N. Taʼlim boʻgʻinlarida ona tili oʻqitish mazmunini yangilash muammolari// Taʼlim boʻgʻinlarida ona tili oʻqitish mazmunini yangilash asoslari. – Qarshi: 1993. – 5–7-b.

etadi. Shu bois yozma nutqda tilning grammatik qoidalarini, orfografik me'yorlarini bilish zaruriy talab hisoblanadi[1].

Yozma nutq tekshiriladi, tuzatiladi, takomillashtiriladi. Bu jihatdan u og'zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O'quvchi yozma nutqda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklari ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarda bu xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka intiladi. Yozma nutqda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar ustida ishlash matn mazmuni ustida ishlash bilan birga qo'shilib, bir yaxlitlik hosil qiladi.

Matn nutq jarayonining yaxlit kommunikativ birligi bo'lib, u ikki va undan ortiq jumlalar va gaplarning o'zaro mazmunan birikishidir. Matn o'zaro mantiqan bog'liq gaplardan tashkil topadi va hajmiga ko'ra katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Bitta abzasdan tashkil topgan matn *kichik matn* deyiladi. Murakkab sintaktik butunlik hisoblanadigan katta matnlar bir necha xatboshi-abzaslarga, qism, paragraflar, bo'lim va boblarga bo'linishi mumkin. Matndagi har bir yangi fikr yangi satrdan boshlanadi, shuning uchun *satrboshi* deb ataladi. Matndagi asosiy fikr ko'pincha uning xulosa qismida beriladi. Katta matnlarni *kirish, asosiy qism va xulosa* qismlariga bo'lish mumkin. Matnni tashkil qiluvchi har bir qism o'zining asosiy g'oyalariga ko'ra ma'lum bir yetakchi fikrga ega bo'ladi. Nutqda katta matnlarni ixchamlashtirish va kichik matnlarni kengaytirish ham mumkin. Matnni ixchamlashtirish uchun undagi qo'shimcha ma'lumotlar olib tashlansa, kengaytirish uchun, aksincha, matn mazmuniga oid fikr-mulohazalar qo'shiladi.

Muayyan matnni idrok etish va mustaqil yaratish avvaldan puxta rejalashtirilgan maqsadli mashg'ulotlar hosilasidir. Ona tili darsliklarida beriladigan matnlar, odatda, ta'limiy-ma'rifiy va ta'limiy-tarbiyaviy matnlardan iborat bo'lib, birinchisi, tilning grammatik qurilishi, lisoniy tushunchalar va ta'riflar yuzasidan nazariy bilim, ko'nikma va malakalar hosil qildirishda, ikkinchisi, adabiy-badiiy matnlar vositasida o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil hayotga tayyorlash, vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashning muhim amaliy vositasi hisoblanadi. Har ikki turdagi

[1] Abduraimova M. va b. Ko'rsatilgan manba. - 52-b.

matnlar ham o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, matn ustida ishlash va matnni yaratish jarayonida ona tili darslarida egallangan bilimlar, ko‘nikma va malakalardan ijodkorlik bilan samarali foydalanashlari ko‘zda tutiladi.

Tadqiqotchilarning fikricha, matn monologik, ya’ni yakka shaxs nutqining yuqori darajadagi kommunikativ birligi bo‘lib, u so‘zlovchining o‘z fikr-mulohazasini bog‘lanishli ifodalash faoliyati orqali yuzaga keladi. Monologik nutq turi dialogik nutqqa nisbatan psixologik va lisoniy jihatdan ancha murakkab jarayon bo‘lib, so‘zlovchidan o‘z fikrlarini aniq, o‘zaro izchil va uzviy bog‘liqlikda ifodalash ko‘nikmalarini talab etadi. Shu bois monologik nutq tuzish qobiliyatini shakllantirish va ko‘nikma-malakalarini egallash ancha mehnatni talab qiladi. Monolog nutqning birlamchi muhim xususiyati - uning **uzviyligi** bo‘lib, og‘zaki nutqda so‘zlovchi axborotni mavzuga yo‘naltiruvchi qo‘shimcha savollar yordamisiz izchil tarzda bayon etishi zarur bo‘ladi. Buning uchun fikr yoyiq, bir qadar kengroq ifodalanishi, jumlalar **grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilishi** va ongli ravishda tanlab ishlatilishi talab etiladi. Shuni ham qayd etish kerakki, yoyiq va uzluksiz shaklda bayon etilayotgan monologik axborot ayni paytda **tugallangan** xarakterga ega bo‘lishi ham kerak. Buning uchun dastlab axborot mavzusi shakllantirilishi, so‘ngra u izchil ravishda kengaytirib borilishi, axborot so‘ngida aytilganlardan xulosa chiqarilishi talab qilinadi. So‘zlovchi o‘z fikrining bayoni davomida uning **mantiqiy izchilligi**ga e’tibor qaratishi, izchillikka erishish uchun esa aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini avvaldan rejalashtirib olishi kerak bo‘ladi. Monologik nutqda axborotning tugallangan xarakterga ega bo‘lishi berilayotgan axborotning bir-biriga uzviy bog‘liq yoyiq gaplar bilan ifodalanishiga va muayyan kontekst hosil qilishiga olib keladi. Nihoyat, har bir monologda bayon etilayotgan axborot muayyan **maqsadga yo‘naltirilganligi** bilan ham farqlanadiki, bu uning ta’sir kuchini, tinglovchilar tomonidan to‘liq qabul qilinishini kafolatlovchi belgilaridan biridir.

Bog‘lanishli nutq shaklidagi muloqot jarayoni juda murakkab bo‘lib, so‘zlovchi muloqot yuritish uchun miyasida yuzaga kelgan fikrni tugal bir shaklda idrok qilib olgach, uni tashqi nutqda ifoda qilishga kirishadi. Aynan shu vaqtning o‘zida uning ongida navbatdagi fikr tug‘ila boshlaydi. Shunday tartibda yuzaga keladigan har bir fikr avval ifoda qilingan fikr bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladi. Bunday bog‘lanish fikrlarning bir-birini to‘ldirishi, izohlashi, tasdiqlashi orqali namoyon bo‘ladi. Bog‘lanishli nutq tarkibidagi har bir fikr yetkazilishi kerak bo‘lgan axborotning ma’lum bir qismini qamrab olgan bo‘ladi. Bu jarayon muayyan fikrlarni bevosita ifoda qilish uchun zarur bo‘lgan til vositalarini tanlab olish, til ko‘nikmasi va nutq malakasiga tayanilgan holda amalga oshiriladi. Tilga oid qoidalarni amaliy qo‘llash ko‘nikmalari o‘z fikrlarini muayyan vaziyatda erkin ifodalash uchun o‘rganilgan bilimlardan foydalana olish malakalariga qarab o‘sib boradi. Nutqiy malaka nutqiy harakatlarni ongli ravishda boshqara olish qobiliyati bo‘lib, u nutq faoliyatining yuqori darajasi hisoblanadi[1].

Demak, nutqiy faoliyatni egallash nutqiy ifodalarni yuzaga keltirishning turli mexanizmlari, xususan, zarur nutqiy birliklarni vaziyatga mos holda tanlash va ijodiy ishlash ko‘nikmalarini egallashni taqozo etadi. Bu, eng avvalo, so‘zlar va ularning grammatik shakllarini tanlash va jamlashdan boshlanadi. N.I.Jinkin ushbu fiziologik jarayonni ikki qismga: nutqiy faoliyatni yuzaga keltiruvchi analizatorlar va eshitish analizatorlariga bo‘lib o‘rgangan. Uning qayd qilishicha, birinchi bosqichda so‘zlar tanlovi ketadi, ikkinchi bosqichda esa so‘zlarni o‘zaro bog‘lash jarayoni kuzatiladi[2].

Matn kabi yirik lisoniy birlikda ifodalanayotgan fikrning mantiqiyligi, har bir mulohazaning bir-birini to‘ldirgan holda berilishi va bir butun g‘oyani ifodalashga xizmat qilishi nutq maqsadining bosh sharti hisoblanadi. Bu, odatda, matn uchun tanlangan mavzudan kelib chiqadi. Albatta, bunda matnda bayon qilinayotgan axborot-ma’lumotlarning grammatik jihatdan qanday bayon etilishiga ham bog‘liq bo‘ladi.

---

[1]Salisheva Z.I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarida): ped. fanlari b-cha fals. dokt. (PhD) .... dis-yasi. –Toshkent, 2019. – 16-b.

[2] Жинкин Н.И. Механизмы речи. 3-е изд. – М., 1991. – 132 с.

Ma'lumki, matn ma'lum bir shaxs tomonidan ayrim voqea-hodisa, ko'rinish, narsa-buyumni izchil tasvirlash yoki tavsiflash maqsadida tuzilgan gaplardan, shuningdek, biron-bir voqea-hodisa, narsa-buyum yoki shaxs haqida oddiy axborot bayonidan yoki ularga nisbatan o'z munosabatini ham bildiradigan ijodiy-tasviriylikdan iborat bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra matnlar mazmunan **bayoniy matn** va **tasviriy matnlarga** bo'linadi. Bayoniy matnda voqea yoki buyum haqidagi axborot izchil bayon qilinadi. Tasviriy matnda esa muallif voqea, buyum yoki qiyofani ijodiy yondashib, o'z munosabatini bildirgan holda badiiy vositalar yordamida tasvirlaydi. Shuningdek, mulohaza yuritishni talab qiluvchi alohida matn turi ham mavjud bo'lib, bunday matnlar **muhokama matnlar** deb ataladi. Bunday matnlarda asosiy fikr turli dalillar bilan isbot qilinishi va oxirida xulosa qismi berilishi kerak bo'ladi.

Ko'rinadiki, matn turlari mazmuniga ko'ra farqlansa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat fikrning yakka shaxs tomonidan bog'lanishli izchil bayon etilishidir. Shu bois matn barcha tadqiqotlarda monologik nutq turi sifatida tavsiflanadi. Biroq nafaqat monologik nutq turlari, balki ularning funksional xususiyatlari, monologik nutqqa oid ko'nikma, malakalar to'g'risidagi qarashlar ham bir xil emas. Jumladan, I.L.Bim bog'lanishli monologik nutqning quyidagi to'rt turini ajratadi:

1. Axborot berish – biror xabar yoki ma'lumotni gaplarni mantiqiy izchillikda bog'lagan tarzda va turli dalillar vositasida bayon etish.

2. Hikoya qilish – muayyan nutqiy qurilmalardan foydalangan holda o'zi, do'sti, maktabi, shahri, qishlog'i haqida so'zlab berish.

3. Tasvirlash – sifatlovchi iboralardan foydalanib, tabiat, joy-makon, qiyofani tasvirlash.

4. Tavsiflash – fikrini asoslagan holda biror shaxsga tavsif berish[1].

L.V.Volkova esa monologik nutqni xarakteri va kommunikativ-nutqiy maqsadiga ko'ra olti xil: bayon etish – biror narsa-buyum yoki shaxsning belgi-

[1] Бим И.Л., Леонтьев А.А и др. Общая методика обучения иностранным языкам. – М., Изд. Русский язык, 1991.– 215 с.

xususiyatlarini bayon qilish; tavsiflash – kimningdir yoki nimaningdir ayrim jihatlarini sifatlab berish; axborot berish – biror voqea-hodisani dalillar yordamida xolis bayon etish; hikoyalash – biror voqea-hodisani syujet asosida hikoya qilish; taqriz – kimningdir asari, tadqiqoti, kashfiyoti haqida oʻz fikr-mulohazasini bildirish; hisobot – bajarilgan ish haqida daliliy maʼlumot berish turlariga boʻlib oʻrganishni tavsiya qiladi va ularni ifoda maqsadiga koʻra ikki turga guruhlaydi:

1.Axborot tipidagi monologlar. Ularga qaysidir xabarni tinglovchiga yetkazishga qaratilgan monologik nutq turlarini kiritadi.

2.Ishontirish xarakteridagi monologlar. Ushbu turga tinglovchini aytilayotgan fikrning toʻgʻriligiga ishontirishga undovchi monologik nutq turlarini kiritadi[1].

Metodik tadqiqotlarda ham monologik nutq turlari keng oʻrganilgan va ularning turlari ancha chuqur tavsiflangan. Jumladan, Yu.S.Zagrayskaya monologik nutq turlarini toʻrt guruhga ajratib, ularning har biriga quyidagicha taʼrif beradi:

1. Monolog-bayon (bayoniy monolog) – oʻziga xos tuzilmaga ega boʻlgan oʻzaro mazmuniy bogʻliqlikdagi gaplar vositasida muayyan obyekt belgilarini sanab koʻrsatish orqali bayon etish.

2. Monolog-hikoya – bogʻlanishli gap tuzilmalari yordamida voqea-hodisa va harakatlarning muayyan vaqt ichidagi izchilligini bayon etish.

3. Monolog-ishontirish – tinglovchida muayyan harakat-holatga nisbatan ayrim mulohazalar, fikrlar uygʻotishga qaratilgan bogʻlanishli gap tuzilmalari.

4. Monolog-muhokama - ayrim bir voqea-hodisani dalillashga qaratilgan sabab-natija maʼnolarini ifodalovchi bogʻlanishli gaplar[2].

Oʻquv maqsadlaridan kelib chiqib, monologik nutqni mazmuni va nutqning tayyorlik darajasiga koʻra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

I. Nutq mazmuniga koʻra:

1. Bayon – shaxs, narsa-buyum, voqea-hodisani tasvirlash.

---

[1] Волкова Л.В. Обучение грамматически правильной речи литературно-разговорного стиля на 2 этапе языкового вуза (франц. язык): дисс. канд. пед. наук. − М.,1985. – 27 с .

[2] Заграйская Ю.С. Методика интегрированного обучения английскому языку и зарубежной литературе на занятиях по домашнему чтению: дисс.… канд. пед.наук. – Иркутск. 2009. –134 с.

2. Xabar (axborot) – biron-bir ijtimoiy-siyosiy mavzudagi fikrni bog‘lanishli ifodalash.

3. Hikoya – voqea-hodisalarni ma’lum izchillikda tushuntirish, sabab-natija munosabatlarini ham aks ettirish[1].

T.Ziyodova monografiyasida 5-9-sinflar ona tili darsliklarida o‘rganiladigan matnlarni quyidagi turlarga bo‘lishni tavsiya etadi:

1. Rivoyat matnlar (ular Sharq faylasuflarining ilmiy merosi, dunyoqarashi aks etgan ma’naviy-ma’rifiy matnlarni qamrab oladi).

2. Tasviriy matnlar (ularga tevarak-atrofni, narsa-buyumlar, shaxsning tashqi ko‘rinishi va psixologik-ruhiy holatini nazmiy va nasriy ko‘rinishda tavsiflovchi matnlarni kiritadi).

3. Muhokama matn (turli mavzularda yaratilgan ilmiy va badiiy matnlarga munosabat bildirish aks ettirilgan matnlar).

4. Ilmiy-grammatik matnlar (ona tili fanidan egallangan bilimlarning nazariy talqini va egallangan BKMlarni mustahkamlashga qaratilgan matnlar).

6. Ma’rifiy matn (mashhur shaxslar hayoti, ilmiy-ijodiy faoliyati, madaniy merosi haqidagi ma’lumotlar yoritilgan matnlar).

7. Ixtisosiy matn (muayyan kasb-hunar, ilm-fan, texnikaga oid atamalar ishtirokida shu soha yo‘nalishida yaratilgan matnlar).

8. Munshaot matnlari (rasmiy ish yuritishga oid hujjatlar matnlari).

9. Nazmiy matnlar (muayyan qofiyalangan tuzilma asosida yaratilgan she’riy asarlar matni)[2].

Biroq ushbu tasniflashda matnning mazmuniy va tuzilmaviy turlari aralashib ketganligini ham qayd qilib o‘tish joiz, deb o‘ylaymiz.

Ona tili ta’limida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini ta’minlash – so‘z boyligini oshirish, nutqiy mahoratini shakllantirish, turli mazmun va shakllardagi badiiy, ma’rifiy, munshaot matnlari ustida ijodiy ishlashga o‘rgatish, egallagan bilim, ko‘nikma, malakalari asosida mustaqil matn yaratishga

[1]Salisheva Z.I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarida): ped. fan. b-cha fals. dokt. (PhD) .... dis-yasi. –Toshkent, 2019. – 29-b.

[2] Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. ―Toshkent, Fan. – 2008. – 38-b.

yo‘naltirishdan iborat bo‘lib, bu ona tili ta’limi samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri sanaladi. Zero, mustaqil yaratilgan matn – o‘quvchi tafakkuri, intellektual qobiliyatining voqelanishi, uning ijodiy fikrlarining yuzaga chiqishi va muayyan mavzuga bog‘liq shaxsiy qarashlari aks etgan mustaqil g‘oyalarining kashf etilishidir. Boshqa tomondan, o‘quvchini mustaqil matn yaratishga o‘rgatish, matn ustida ishlash orqali ta’lim oluvchilarda kommunikativ savodxonlik layoqatini shakllantirish natijasida boshqa fanlardan o‘zlashtirayotgan bilim, ko‘nikma, malakalarini to‘liq anglab yetish va boshqalarga mustaqil tushuntira bilish, o‘z ijodiy fikrlarini, g‘oyalarini yetkaza olishdek kreativ xislatlarni tarbiyalashga ham yordam beradi.

O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga va erkin muloqot yurita olishga o‘rgatishda aynan ona tili ta’limining o‘rni, ahamiyati nihoyatda ulkanligi, ona tilidan olingan bilim, ko‘nikma, malakalar barcha fanlarni o‘rganishda mustahkam zamin bo‘lishi, nutq madaniyatini shakllantirishning muhimligi umumiy o‘rta talim maktablarida o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi oldiga o‘quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish va kommunikativ savodxonligini ta’minlash borasida quyidagi o‘ta dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda:

- o‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, fikr mahsulini to‘g‘ri, ravon, o‘rinli ifodalashga o‘rgatish;
- ona tili ta’limi mazmunini takomillashtirish, darsliklardagi o‘rganilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlash mashqlari va ularning shartlarini o‘quvchida ijobiy o‘quv motivlarini hosil qiluvchi lingvopsixologik topshiriqlar darajasiga ko‘tarish;
- muammoli o‘quv topshiriqlari orqali o‘quvchini izlanish va kashf qilishga yo‘naltirish, o‘quvchi lug‘at boyligini kengaytirish jarayonida nutqiy mahorati va nutq madaniyatini shakllantirish;
- so‘zni tanib va tanlab ishlatishni talab qiluvchi o‘quv topshiriqlari, nutqiy madaniyatni yuksaltiruvchi ko‘nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir.

Aytish lozimki, matn ustida ishlash va matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish, uni oʻquv amaliyotiga izchil joriy etish, oʻquvchilarda mustaqil matn yaratish koʻnikmalarini shakllantirishning intensiv-universal texnologiyasini yaratish, ana shu maqsadga xizmat qiladigan matn yaratishning bosqichli tizimini ishlab chiqish masalasi alohida oʻrin tutadi.

## 1.2-§. Ona tili ta’limida matn ustida ishlash va matn yaratishning didaktik tamoyillari

Insonning muayyan zamon va makondagi ijtimoiy-ma’naviy faoliyatining asosiy vositasi muomala-muloqot boʻlsa, insoniyat erishgan yutuqlar, madaniy-ma’naviy meroslarni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning asosiy vositasi matndir. Ijodiy tafakkur mahsulini yozma ifodalash, ya’ni matn yaratish uchun matn ustida ishlash malakasini egallash, matn turlarini bilish, matnning tarkibiy qismlarini farqlash va ularni oʻzaro bogʻlovchi grammatik vositalarni qoʻllay olish koʻnikma-malakalarini egallash talab etiladi. Buning uchun ona tili darslarida oʻquvchilarni matn turlari va uning ifoda vositalari bilan tanishtirish, matnning tuzilmaviy-tarkibiy qismlari haqida nazariy ma’lumotlar berish, matn mazmunini toʻldirish, kengaytirish, matnni qayta ishlash, matnning shakli, uslubini oʻzgartirish, matnda mavjud mantiqiy va uslubiy nuqsonlarni aniqlash yoʻnalishlarida ish olib borish, ya’ni oʻquvchilarni nafaqat matn yaratishga, balki matnni tahlil qilish va tahrir qilishga oʻrgatish ham kerak boʻladi.

Til tuzilmasiga oid jihatlarni, til sathlari birliklarini nutqdan ayri holda tahlil qilmay, aynan nutq tarkibida tahlil qilish, til boʻlimlarini oʻrganishni matn tahlili va matn yaratish bilan oʻzaro uygʻunlikda olib borilish natijasida ushbu maqsadni amalga oshirish mumkin boʻladi. Bu esa bevosita grammatik topshiriqlarning qanday qoʻyilishiga bogʻliqdir.

Shuni qayd etish kerakki, bugungi kunda grammatik bilimlar haqida turlicha qarashlarga ega boʻlish oqibatida grammatika masalasida bir-biriga qarama-qarshi fikrlar kelib chiqmoqda. Buyuk vatandoshimiz Abu Nasr Forobiy toʻgʻri soʻzlash, toʻgʻri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va goʻzal nutq tuzishda

leksikologiya, grammatika va mantiqning ahamiyati haqida shunday degan edi: “Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, so‘rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlar (substansiya va aksidensiyalar)ga ism beruvchi til haqidagi ilmlardir” deb tasdiqlayman. Ikkinchi ilm grammatikadir; u jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi[1].

Ma’lumki, dastlab grammatika so‘zi “o‘qish va yozishni o‘rganish” ma’nosida qo‘llangan. Keyinchalik keng ma’noda tilning struktural tuzilishi, til faniga oid nazariy qoidalari majmuyi, tor ma’noda esa morfologiya va sintaksis sathlari sifatida tushunilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili fani mashg‘ulotlarida uzoq yillar davomida aynan grammatikaning morfologiya va sintaksis sathlari (morfologiya va so‘z yasash, sintaksis va punktuatsiya) 5-sinfdan boshlab 4 yil davomida o‘qitib kelindi[2]. Biroq, ta’kidlash kerakki, ushbu sathlarda berilgan nazariy ma’lumotlar nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga deyarli xizmat qilmadi. Metodist olim G‘.Hamroyev fikricha, aksincha, darsliklar tarkibidagi ko‘p yillardan beri e’tibordan chetda qolib, juda kam soatlarda o‘qitib kelinayotgan fonetika, to‘g‘ri yozish, imlo qoidalari (orfografiya), adabiy talaffuz qoidalari (orfoepiya), tilning lug‘at tarkibi (leksika, leksikologiya emas) va tinish belgilari (punktuasiya) kabi mavzular o‘quvchining so‘z boyligini oshirishga, ularda imloviy savodxonlik, adabiy talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘proq xizmat qilgan bo‘lar edi[3].

Matn ustida ishlash o‘quvchidan matn va uning turlari, matn qismlarining o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini ajrata olish, matnning tarkibiy qismlari - kirish, asosiy qism, xulosa haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, matn uslubidan kelib chiqib til birliklarini tanlab ishlata olish ko‘nikma-malakalarini shakllantirish va

[1] Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1991. – 15-b.
[2] Qarang: Abdullaev Y., Omilxonova M., Ma’rufov Z., G‘ulomov A. Ona tili. 6-7-sinf. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.; Asqarova M. Abdullaev Y., Omilxonova M. O‘zbek tili.7-8-sinf. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
[3]Hamroyev G‘. Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish: ped. fan. dokt. (DSc) ... dis-ya. –Toshkent, 2022. – 72-b.

rivojlantirishga yordam beradi. O‘zbek tilini o‘qitishga oid metodik tadqiqot ishlarida matn ustida ishlash, bog‘lanishli nutq tuzish ko‘nikma-malaklarini shakllantirish va rivojlantirish muammolari yuzasidan metodist olimlarning turli qarashlari bayon etilgan. Jumladan, metodist olima T.Ziyodovaning umumta’lim maktablarida ona tili darslarida o‘quvchining mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishga bag‘ishlangan tadqiqot ishida matn yaratishning intensiv-universal texnologiyasini yaratish, mati yaratishning 4 bosqichli tizimini ishlab chiqish va uni ona tili ta’limi amaliyotiga joriy etish masalasi[1], Z.Salishevaning tadqiqot ishida esa oliy ta’limda talabalarning bog‘lanishli monologik nutqini o‘stirish masalasi tadqiq etilganini qayd etib o‘tish mumkin. Ushbu tadqiqot ishlarida o‘quvchilar va talabalarni matn va uning tarkibiy qismlari (kirish, asosiy qism va xulosa), murakkab sintaktik butunliklarni o‘zaro bog‘lovchi, uslubiy ravonlikni ta’minlovchi grammatik vositalarni to‘g‘ri qo‘llash yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, egallangan nazariy bilimlarni o‘quv amaliyotiga tatbiq etish orqali ularda bog‘lanishli matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirish va muntazam ravishda takomillashtirib borish haqida fikr yuritiladi[2].

M.Rixsiyevaning matn tuzishga o‘rgatishga bag‘ishlangan tadqiqot ishida asosan o‘quvchilarning yozma nutq malakalariga, o‘zbek tilida bog‘lanishli matn tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan bo‘lib, u metodik tavsiyalarida “o‘zbek tili dasturlarida leksik va grammatik toifalarning vazifasi asosan bir yoqlama tahlil qilinganligi, ularni matn tuzishdagi roli nuqtayi nazaridan o‘rganish muammosi deyarli e’tibordan chetda qolganligi, shu bois matn va uning tuzilishi, matnning ma’no va grammatik xususiyatlarini o‘rgatish yo‘llarini ishlab chiqish, matnni tashkil qiluvchi mustaqil gaplar orasidagi munosabat turlariga oid nazariy masalalarni hal qilish, gaplarni o‘zaro bog‘lovchi vositalar va ularni o‘rganish izchilligini belgilash zarur”ligini o‘rinli qayd etib o‘tgan[3].

---

[1] Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. –Toshkent, Fan. – 2008. – 38-b.
[2]Salisheva Z.I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarida): ped. fan. b-cha fals. dokt. (PhD) .... dis-yasi. –Toshkent, 2019.
[3] Rixsiyeva M.M. Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili darslarida o‘quvchilarni matn tuzishga o‘rgatish: ped. fan. nom. ... dis. –Toshkent, 1998. –146 b.

D.Toshxo‘jayeva esa “Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga o‘rgatishning metodik asoslari” mavzusidagi tadqiqot ishida matn mazmunini qayta hikoya qilishga tayyorlashda o‘zbek tili o‘qituvchilari nimalarga e’tibor qaratishlari kerakligiga alohida to‘xtalib, “Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan bayon etish talabada ma’lum darajada gap tuzish malakalari aniqlangan paytdan belgilanadi. Lekin buning uchun muayyan poydevor yaratilgan bo‘lishi zarur. Poydevor qancha vaqt oralig‘ida paydo bo‘lishi lug‘at ishi hamda gap tuzishga o‘rgatish samaradorligiga, bu ishlarning nechog‘li to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq” ekanligini, amaldagi darsliklarda matn mazmuni yuzasidan o‘tkaziladigan savol-javoblar aksariyat hollarda darak gaplarni so‘roq gaplarga aylantirish, tayyor javoblarni o‘qib berish asosida olib borish kabi samarasi kam ish usullardan foydalanilishini ta’kidlab o‘tadi. Uning fikricha, “talaba-o‘quvchi xilma-xil matnlarni o‘qib, tasvir, rivoya, muhokama jarayoni”, “monologik nutqning qurilishidagi kompozitsion xususiyatlari” bilan tanishishi, “matnning qanday boshlanayotgani va qanday tugayotganini ko‘rish jarayoni”da “uning turli xil uzunlikdagi (gap, matn), turli shakldagi (monolog, dialog) va hokazolar bayonini idrok etishlari” zarur. Ushbu jarayon o‘quvchi-talabada “bayonning mantiqiy qurilishi haqida tushuncha hosil qiladi” va matn tuzish jarayonida “og‘zaki bayon tuzishda olgan bilimlaridan foydalanadi”[1].

H.Ne’matov, A.G‘ulomovlar rasm asosida hikoya, manzara tasviri, shaxs, hayvon, narsa-buyum, voqea-hodisa tasviri kabilardan iborat bo‘lgan ijodiy yozma ishlarni matn tushunchasi bilan bog‘lagan holda, o‘quvchilarni matn ustida ishlashga o‘rgatishda egallangan bilimlarni muayyan ko‘nikma va malakalar bilan mustahkamlashni tavsiya qiladilar[2]. Bizningcha, ular orasidan quyidagilarni muhim deb ajratish mumkin:

- yozma ishga mavzu tanlash,

---

[1] Toshxo‘jaeva D. Matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qilishga o‘rgatishning metodik asoslari: ped. fan. nom. ... dis. –Toshkent, 2000. –94-95-b.

[2] G‘ulomov A., Ne’matov H. Ona tili ta’limi mazmuni. Ona tili o‘qituvchilari uchun qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.

- ayni bir narsa (buyum, manzara, voqea-hodisa) haqida turli mavzuda matn yaratish;

- yozma ish mazmunini mavzu nomlanishi bilan uyg‘unligini ta’minlash;

- mavzuni yoritish uchun zarur material: bilimlar, kuzatishlar asosida mushohadalar, qiyoslash va o‘xshatishlari, hukm va xulosalarni to‘plash;

- yozma ishning rejasini tuzish (u tor yoki keng reja bo‘lishi mumkin);

- mavzuni yoritishda mazmun izchilligiga e’tibor qaratish va xatboshidan yozishga e’tibor qaratish;

- matn uslubi, jumlalar qurilishi, imlo va tinish belgilarining qo‘yilishi ustida ishlash va ishni oqqa ko‘chirish va h.k.

Mazkur metodik qo‘llanma ma’lum bir muddat umumiy o‘rta ta’lim maktablari, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi ona tili o‘qituvchilari uchun asosiy dastur vazifasini bajardi. Ammo T.Ziyodova fikricha, mazkur tavsiyalarda matn yaratish jarayonida o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish, o‘quvchining matn yaratish uchun mustaqil ravishda leksik va sintaktik manbalar asosida jumlalar hosil qilish ko‘nikmalarini muayyan tizim asosida shakllantirish ko‘zda tutilmagan[1].

Matn yaratishga yo‘naltiruvchi lingvopsixologik o‘quv topshiriqlari tizimini ona tili ta’limiga keng joriy etish o‘quvchining so‘z boyligini oshirish, egallagan bilimlarini qiyoslash, analiz va sintez qilish asosida mustaqil ijodiy fikrlash, o‘z fikrini ifodalash jarayonida so‘zlarni tanlab ishlatish kabi ehtiyojlarni yuzaga keltirishga yordam beradi. Shunga yo‘naltirilgan ko‘nikma va malakalarni uzluksiz shakllantirib va rivojlantirib borish esa o‘quvchi nutqiy mahoratining oshib borishiga va ijodiy tafakkur ko‘lamining kengayishiga, asta-sekin matn yaratish ko‘nikmalarining avtomatlashuviga xizmat qiladi.

Matn ijodiy tafakkur mahsuli bo‘lib, maktab ta’limining birinchi va asosiy vazifasi, avvalo, bilim oluvchilarni o‘z ona tilida ravon, mantiqan izchil gapirishga o‘rgatishdir. O‘quvchilar o‘z ona tilida qanchalik yaxshi nutq so‘zlay olsalar, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma shaklda shunchalik yorqinroq, chiroyli va sermazmun

---

[1] Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi.-Toshkent, Fan. – 2008. – 46-b.

ifodalay oladilar. Ona tili orqali o‘quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar,  milliy g‘urur shakllanadi.

Ma’lumki, mustaqil yaratiladigan har bir matn o‘quvchilar ijodiy tafakkurining mahsuli hamdir. Shu bois tadqiqot ishlarida ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ijodiy tafakkurini o‘stirish masalalariga alohida e’tibor qaratilayotganini ham qayd etish mumkin[1].

Bugungi kunning eng muhim masalasi – ona tili ta’limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirishdir. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar savol va topshiriqlar asosida tilning amal qilish qoidalarini o‘rganadilar. Mashq tarkibida berilgan gaplar, matnlar o‘quvchining lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiladi, biroq matnlar ustida qanday ish olib borish hali ham muammoligicha qolmoqda. Shu bois keyingi tadqiqot ishlarida ona tili darslarida o‘quv topshiriqlari va mashqlarni o‘quvchi nutqini rivojlantirishga maqsadli yo‘naltirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Bu masala o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish, chet tillarini o‘qitish sohalarida ham muammoli holatda ekanligini qayd etib o‘tish mumkin. Jumladan, X.Muxitdinova o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish bo‘yicha olib borgan doktorlik tadqiqot ishida til ta’limida o‘quv topshiriqlari va mashqlarga alohida to‘xtalib, quyidagilarni ta’kidlab o‘tgan edi: “Hozirgi kunda o‘zbek tilini o‘qitish tamoyillari, ularda beriladigan o‘quv materiallarining tartibi va taqsimoti bilan bir qatorda, dars jarayonida o‘zbek tilini o‘rgatishga yo‘naltirilgan mashqlar tarkibi va turlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy ta’lim mashg‘ulotlariga moslashtirib qo‘llash yo‘llarini topish o‘zbek tili ta’limi mutaxassislari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir”[2].

Ingliz tili grammatikasini o‘rgatishning lingvometodik xususiyatlari bo‘yicha tadqiqot ishi olib borgan H.Mustafoeva chet tillari ta’limida mashqlarning til va nutq mashqlari turlariga bo‘linishi bo‘yicha B.A.Lapidusning quyidagi

---

[1] Yusupova Sh.J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili darslarida o‘quvchilar tafakkurini o‘stirishning ilmiy-metodik asoslari (akademik litseylar misolida): ped. fan. dok.… diss. – Toshkent, 2005. – 279 b.; Alavutdinova N. G. Ona tili darslarida ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish metodikasi (5-sinf misolida): ped. fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2008. – 156 b.

[2] Muxitdinova X. Ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish: ped. fan. dokt.… diss. –Toshkent, 2011. – 108-b.

fikrlarini keltiradi: “Uning (B.A.Lapidusning) fikricha, nutq mashqlari bevosita nutqiy faoliyat xususiyatlarini qamrab olganligi bilan xarakterlansa, til mashqlari nutqiy muloqot ko‘nikmasi taraqqiyotini ta’minlash uchun xizmat qiladi”. “.... nutq mashqlari bevosita nutqiy faoliyat xususiyatlarini qamrab olganligi bilan xarakterlansa, til mashqlari nutqiy muloqot ko‘nikmasi taraqqiyotini ta’minlash uchun xizmat qiladi” [1].

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yillar davomida metodika sohasiga oid tadqiqot ishlaridagi ilmiy asoslangan xulosalarni amaliyotga tatbiq etishda kam e’tibor berilgan. Jumladan, X.Muxitdinova 2011-yildayoq o‘zbek tili ta’limida uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashga qaratilgan doktorlik ishida til ta’limidagi turli yondashuvlarni tahlil qiladi, jahon til o‘qitish metodikasida tillar ona tili, davlat tili va ikkinchi til sifatida farqlanishi, nutqqa oid mavzular hamda grammatik ma’lumotlarning berilishida mashq va topshiriqlarning uzviyligi xususida asosli fikrlarni bildirib o‘tgan. Qayd etish kerakki, ushbu fikrlar hali ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q.

Grammatik ma’lumotlarni chegaralamaslik, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadini qo‘ymaslik oqibatida me’yoridan ortiq nazariy ma’lumotlar maktab darsliklariga kirib qoldi. Natijada bitiruvchi yoki birinchi kurs talabasidan jumlani grammatik tahlil qilib berish so‘ralsa, u tibbiyot yoki moliya yo‘nalishida bo‘lishidan qat’i nazar so‘z va gaplarni yaxshi tahlil qilib bera oladi, ammo unga gapni *murakkab ega, ot-kesim, sifatlovchi, qaratqich aniqlovchi, nomustaqil, mustaqil to‘ldiruvchiga* ajratishdan o‘z kasbi doirasida biror amaliy foyda bo‘lmaydi. Ortiqcha grammatizm ona tili ta’limini hayotdan uzoqlashtiradi. Aslida unga yaxshi shifokor va bank xodimiga kerak bo‘ladigan kasbiy muloqot madaniyati o‘rgatilishi kerak. Buning uchun maktab ta’limidagi o‘quvchilar adabiy talaffuzi ravon, imloviy savodxon, ta’sirli nutq uchun yetarli so‘z boyligiga ega bo‘lishlari kerak[2].

---

[1]Лапидус Б. А. К проблеме функциональной дифференциации языкового материала // Иностранные языки в высшей школе. – Москва: 1975. – 18–21 с. Qarang: Mustafoeva H. T. Ingliz tili grammatikasini ijtimoiy-gumanitar talabalarga o‘rgatishning lingvometodik xususiyatlari: Ped. fan. nom. ... dis. – Samarqand, 2003. – 139 b.
[2] Hamroyev G‘. Ko‘rsatilgan manba. - 24-25-b.

Keyingi yillarda ona tili darsliklarida o‘quv materiallari va topshiriqlarining berilishi muammosi markaziy masala sifatida tadqiq etila boshlandi. Tadqiqotchi H.Mustafoyeva o‘quvchilarga taqdim etiladigan bilimlarni jamlash va tizimga solish bo‘yicha mavjud pedagogik-psixologik (masalan, empirik, nazariy) yondashuvlar, o‘quv materiallarini tanlash va strukturalash tizimining amalda ijobiy natijalarni bergan modellari (jumladan, mantiqiy aloqalar-funksional-semantik prinsip, tizimlilik prinsipi, didaktik bilimlarni yiriklashtirish nazariyalari)ni ko‘rib chiqib, darsliklarda o‘quv materiallarining bloklarga jamlangan konsentrlar shaklida taqdim etilishi o‘quv materiallarini yaxlit qamrab olish imkonini beradi, degan fikrga keladi va konsentrizm prinsipi asosida o‘quv materiallarini strukturalashtirish g‘oyasini ilgari suradi[1].

G‘.Hamroyev fikricha, hozir respublika miqyosida amalda bo‘lgan maktab darsliklaridagi mashqlar va o‘quv topshiriqlarining funksiyalarini aniqlashtirish kerak, ularning aksariyati DTSda belgilangan talablarga mos kelmaydi. Chunonchi, ona tili darslarida tez-tez uchraydigan *“Matndan unlilarni topib tavsiflang”* kabilarni o‘quv topshiriqlari darajasida baholab bo‘lmaydi, sababki, ular o‘quvchida ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qila oladigan yetarli ko‘nikma, malakalarni hosil qilishi qiyin[2].

Dastur va darsliklar o‘quvchini ona tili ta’limi maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga undashi lozim.Tadqiqot davomida o’tkazilgan tajribalarga tayangan holda shuni aytish mumkinki, darslikning eng muhim qismini nazariy ma’lumotlar bazasi emas, balki o‘quvchiga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanishni o‘rgatadigan o‘quv topshiriqlari tashkil etmog‘i lozim. Maktab ta’limida o‘quvchilarga gap tahlili, so‘z yasash usullarini emas, til birliklaridan nutq vaziyatiga mos ravishda to‘g‘ri va o‘rinli foydalana olishni o‘rgatish kerak. Maktabda ona tili ta’limi tilshunos tayyorlash maqsadini emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga etkazib berishni taqozo etadi.

---

[1] Mustafoeva H. T. Ingliz tili grammatikasini ijtimoiy-gumanitar talabalarga o‘rgatishning lingvometodik xususiyatlari. – Samarqand, 2003. – 29-b.

[2] Hamroyev G‘. Ko‘rsatilgan manba.- 35-37-b.

Davr isbotlagan bu haqiqat bugungi kunda ona tili ta’limiga nisbatan yondashuvni o‘zgartirish, o‘qitish metodikasini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Bu o‘rinda mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020-yil 20-oktyabrdagi 6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida ham “o‘zbek tilini davlat tili va ona tili sifatida o‘qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy til o‘qitish metodikasini yaratish”[1] vazifalari qo‘yilganligini ta’kidlash kerak.

Tadqiqotchilarning tahlillari darsliklarda asosan tayyor matn ustida ishlashga e’tibor qaratilayotgani, tayanch so‘zlar va nutqiy qurilmalar vositasida o‘quvchilarda bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini hosil qilish, o‘z fikrini turli vaziyatlarda mustaqil ifodalash, nutqida sintaktik-sinonimik vositalardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlar kam berilganini, o‘quvchilarni **so‘zlardan – so‘z birikmalari – so‘z birikmalaridan – gaplar – gaplardan bog‘lanishli matn** yaratishga olib chiqadigan mashq va topshiriqlar tizimi shakllantirilmaganligini, demak, o‘quvchilarni bog‘lanishli nutqqa o‘rgatish ko‘nikma-malakalari shakllantirish talab darajasida emasligini ko‘rsatmoqda.

Tayyor berilgan matnlar ustida ishlashda, odatda, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi mustaqil amaliy ishlarni bajarish, mavzuga bog‘liq bilim, ko‘nikma, malakalarni egallashga qaratilgan o‘quv topshiriqlari, shuningdek, matnning turi, qaysi uslubga xosligini aniqlash, matn qurilishi, tarkibi, tashkil etuvchi qismlariga bog‘liq holda matndagi gaplarni sodda yoyiq va yig‘iq gaplarga ajratish, gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlash, gap bo‘laklari orasidagi grammatik va sintaktik bog‘lanishlarni, qo‘shma gaplarni sodda uyushiq gaplarga aylantirish, matnda tinish belgilarini to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash ko‘nikmalari ustida ish olib boriladi. Amaldagi darsliklarda asosan quyidagi topshiriqlarni ko‘plab uchratish mumkin:

- nuqtalar o‘rniga qo‘shimchalardan mosini qo‘yib ko‘chirish;

[1] Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. - 6084-sonli PF, 2020-yil 20-oktabr.

- matnni o‘qish, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlash;

- nuqtalar o‘rniga qavs ichida berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib yozish;

- matnni o‘qish va berilgan topshiriqlarni bajarish;

- savollarga javob yozib chiqish va shu asosda kichik hikoya tuzish;

- rasm asosida kichik hikoya tuzish;

- berilgan tayanch so‘zlardan foydalanib matn tuzish;

- maqollarni o‘qish va ma’nosini aytib berish;

- berilgan matn mazmuni asosida hikoya tuzish;

- matn mazmunini o‘z taassurotlari asosida qayta so‘zlash kabi.

Ko‘rinadiki, darsliklarda mashq va topshiriqlarning turi ko‘p bo‘lsa-da, ularda muayyan tizim mavjud emas, topshiriqlarni oddiydan murakkabga qarab, terma gaplardan bog‘lanishli nutqqa, so‘ng monologik nutqqa qarab o‘stirib borish tamoyili qo‘llanmagan. Ushbu mashq va topshiriqlar orasida bevosita bog‘lanishli monologik nutqqa olib chiqishga yo‘naltirib tizimlashtirilmagan. Bog‘lanishli matn tuzish yo‘llari ko‘rsatilmagan holda o‘quvchining o‘zidan bog‘lanishli matn tuzish so‘ralganini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot ishlari o‘zbek tilini o‘qitishda hozirgi kunda qo‘llanib kelinayotgan mashqlarning turlari, ularda berilayotgan materiallar va topshiriqlar tizimi ta’lim oluvchilarning o‘zbek tilini o‘rganishlarini jadallashtirish uchun yetarli xizmat qilmayotgani haqida alohida fikrlar bildirilgan. Mashq va topshiriqlarda tizimlilikni ta’minlash uchun mashq turlarini zamonaviy tilshunoslik, psixologik, pedagogik tadqiqotlarda berilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar asosida takomillashtirish va aynan matn yaratishga mos bosqichma-bosqich o‘sib boradigan mashqlar va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Bunda muayyan mavzuda matn yaratishga doir matn tuzishga tayyorgarlik jarayonini qamrab oladigan **matn oldi,** matn mazmunini to‘ldirish, matnni kengaytirish, ixchamlashga qaratilgan **matn ustida ishlash,** matn tahriri va xatolar ustida ishlashga yo‘naltiriladigan **matn osti** topshiriqlaridan foydalanish ko‘zda tutiladi. Mashqlarning muayyan ketma-ketlik

asosida tizimli ravishda berilishi o‘quvchining bilim va malakalarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borishga va o‘quvchini nutqqa olib chiqishga xizmat qiladi. Bu o‘rinda I.A.Zimnyaya tomonidan bildirilgan fikr alohida e’tiborga sazovor bo‘lib, uning ta’kidlashicha, tilga o‘rgatishda ilk bosqichning asosiy vazifasi avvaldan tayyorlangan mashqlar vositasida o‘quvchiga lisoniy bilim berishni tashkil qilish bo‘lsa, keyingi bosqichda shunday ta’lim sharoitini yaratish lozimki, bunda o‘quvchi o‘rgatuvchidan kommunikativ topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘lgan bilimni “tortib” olish imkoniyatiga ega bo‘lsin[1].

Z.Salisheva yaxlit sintaktik butunlikdagi matnlar tuzishda quyi bosqichlarda o‘tilgan morfologiyaga oid mavzularni sintaktik mavzularni o‘tish jarayonida mustahkamlab borish va nutqda amaliy qo‘llashni o‘rganishni talab etishini, buning uchun o‘zbek tili ta’limida bog‘lanishli matn, fikrni izchil va bog‘lanishli ifodalash, terma gaplardan bog‘lanishli matn hosil qilish, monologik nutq turlari, fikrga munosabat bildirish, fikrni turli uslublarda ifodalash kabi mavzular bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berish va amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilishga qaratilgan mashqlar ustida ishlash nihoyatda zarurligini ta’kidlaydi.

Uning fikricha, o‘quvchi-talabalarda bog‘lanishli monologik nutq ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda yo‘l qo‘yilayotgan asosiy metodik kamchiliklar:

- o‘qituvchilar aksariyat qismining faqat grammatik mashqlarni bajartirish bilan ko‘p shug‘ullanishlari, o‘quvchi-talabalarning og‘zaki nutqiga kam e’tibor qaratishlari va og‘zaki nutqdagi leksik, grammatik va uslubiy xatolarni bartaraf etishga qaratilgan ko‘nikma, malakalar berilmasligi;
- mashg‘ulotlarda, asosan, bir tipdagi, tez-tez takrorlanib turuvchi mashqlarni bajartirish, faqat bir xil nutqiy mavzular va tayyor matnlar yuzasidan suhbatlar tashkil etish, dialoglar yoki o‘quvchi-talabaning monologik nutqi jarayonida yo‘l qo‘yiladigan talaffuz bilan bog‘liq xatolar ustida ishlamaslik;

[1] Зимняя И. А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. –Москва: МГУ, 1998. –268 с. / Qarang: Кадырова Ф. Р. Лингводидактические основы обучения детей дошкольного возраста второму языку (на материале русского и узбекского языков): дис. ... док. пед. наук. –Ташкент: 2006. – 70 с.

- o‘zbek tili mashg‘ulotlarida tinglab tushunish va eshitganlarini so‘zlab berish ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilgan mashq va topshiriqlar berilmasligi, audiomatnlar, eshitish mashqlaridan foydalanmaslik;

- mashg‘ulotlarda sintaktik sinonimik vositalar bilan ishlanmasligi, o‘quvchi-talabalarning ona tilidan farq qiluvchi xususiyatlarni tushuntirib borishga, rus tilidan ona tiliga tarjima qildirishga kam e’tibor qaratilishi, o‘zbek tilidagi gap tartibi, so‘zlarning o‘zaro birikish-aloqadorlik qonuniyatlarini o‘rgatmaslik;

- darsliklarga terma gaplar va bog‘lanishli matn, bog‘lanishli monologik matn tuzish, matn qismlari, ularni mantiqiy bog‘lash vositalari, matn turlari yuzasidan nazariy ma’lumotlar, bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilgan topshiriqlar kiritilmagani;

-o‘quvchi-talabalarda bog‘lanishli monologik nutq so‘zlash amaliy ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilgan oddiydan murakkabga qarab o‘sib boradigan mashqlar va topshiriqlar tizimi ishlab chiqilmaganligining oqibatidir[1].

Afsuski, “O‘zbek tili” darsliklarida o‘quvchi-talabalarning o‘zlarini bog‘lanishli nutq tuza olishiga, ya’ni o‘zi matn tuza olishga o‘rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlar tizimi qo‘llanmayapti.  Bu o‘rinda T.Ziyodova tavsiya etgan MYBT - matn yaratish texnologiyasi e’tiborga sazovor bo‘lib, u matn yaratishning to‘rt modulga bo‘lingan quyidagi bosqichli tizimini tavsiya etadi:

1-bosqich – tayanch so‘zlarni tanlash (tovushdosh, ma’nodosh, uyadosh, zid ma’noli, shakldosh, iboralar, tasviriy ifodalarni tanlash);

2-bosqich – so‘z birikmalarini hosil qilish (so‘zlardan so‘z birikmalari hosil qilish);

3-bosqich – gap tuzish (tuzilgan so‘z birikmalaridan sodda yoyiq, uyushiq va ajratilgan bo‘lakli, kirish so‘z va kirish gapli, sodda va qo‘shma gaplar, she’r qatorlar tuzish);

4-bosqich – matn yaratish (tuzilgan gaplardan foydalanib monologik va dialogik matnlar yaratish)[2].

---

[1]Salisheva Z.I. O‘zbek tili mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (rus guruhlarida): ped. fan. b-cha fals. dokt. (PhD) .... dis-yasi. –Toshkent, 2019. – 66-b.
[2] Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2008.-155 b.

Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlari masalasida tadqiqot ishi olib borgan G‘.Hamroev esa o‘quvchilarda matn tuzish ko‘nikmasini shakllantirishda asosiy diqqat-e’tiborni:

– matnda qo‘yilgan tinish belgilarning qo‘llanilish sabablarini izohlang;

– matnni mazmunga putur yetkazmay qisqartiring;

– hikmatni matnga aylantiring;

– turli mavzudagi maqol va hikmatlarni bir umumiy mazmunga birlashtiring;

– tarjimayi hol matnini tavsifnomaga aylantiring;

– berilgan mavzuni 10 ta jumla bilan so‘zlar takrorisiz, bexato va yorqin ifoda qiling;

– so‘zlarni ularning ma’nodosh muqobillari bilan almashtiring;

– gaplarning shakli va mazmunini o‘zgartiring;

– matnni kengaytiring yoki ixchamlang;

– matnga qo‘shimcha ma’lumotlar kiriting;

– matnga kirish so‘zlar kiriting;

– ilmiy matnni badiiy matnga yoki aksincha aylantiring;

–matnni xulosalang kabi topshiriqlarga qaratishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi[1].

Bog‘lanishli nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardagi topshiriqlar **tayyor berilgan matnlar va yaratilajak matnlar ustida** olib boriladigan ishlarni o‘z ichiga oladi. Darsliklarda berilgan yoki o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan **tayyor matnlar ustida ishlash**da quyidagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin:

- matn turini aniqlang;
- matnga sarlavha toping;
- matnning kirish (xulosa, asosiy qismi)ni ajrating;
- matndagi abzaslarning o‘rinliligini kuzating;
- matndan ma’nosi notanish bo‘lgan so‘zni ma’nosini izohli lug‘atdan topib izohlang;

[1] Hamroyev G‘. Ko‘rsatilgan manba. – 90-b.

- matnni tarkibiy qismlarga ajrating va har bir qism tuzilmasini tahlil qiling;
- matndagi asosiy fikrni ifodalagan gapni ajrating;
- matndagi ikkinchi darajali ma’lumotlarni ajrating;
- matnning xulosa qismi qanday ifodalanganini izohlang kabi.

**O‘quvchilar tomonidan yaratilgan matnlar ustida ishlash**da esa quyidagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanish mumkin:

- matnda yo‘l qo‘yilgan imloviy va uslubiy xatolarni toping va bartaraf qiling;
- matnda tinish belgilarning qo‘yilishidagi xatolarni toping va ularni bartaraf qiling;
- matnda yo‘l qo‘yilgan mantiqiy xatolar, noo‘rin ishlatilgan so‘zlarni aniqlang;
- matnni qo‘shimcha ma’lumotlar qo‘shib kengaytiring;
- matndan ortiqcha ma’lumotlarni chiqarib, matnni ixchamlashtiring;
- matnga kiritilgan o‘zgarishlarni maqsadli ekanini isbotlang;
- matn mazmuniga mos hikmatli so‘zlar, maqollar, iboralarni matn tarkibiga kiriting va h.z.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning matn ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni amaliy jihatdan nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, unda o‘quvchilar ona tili ta’limida egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini uyg‘unlashtirgan holda amaliyotda tatbiq etishi lozim bo‘ladi. Chunki har qanday matn ham grammatik bilimlarni, ham so‘z va so‘z birikmalari, iboralarni tushunib qo‘llash, gaplarni to‘g‘ri tuzish va uzviylikda bog‘lash yuzasidan bilim va ko‘nikmalarni bilishlikni taqozo etadi. Ayni vaqtda matn ustida ishlash o‘quvchidan matn va uning turlari, matn qismlari, ularning farqli jihatlari, matn tarkibi, matn qismlarini bog‘lovchi vositalar, matnning uslubi va lisoniy vositalari yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo‘lishlikni ham talab qiladi. Xususan, 8-9-sinfdan boshlab o‘quvchilar matn tarkibiy qismlarini ajrata olishi va matn janri, tili va uslubini farqlashi kerak bo‘ladi. Buning uchun matn ustida ishlashni 5-sinfdan boshlash, avval tayyor matnlar bilan tinishtirish va kichik matnlar tuzdirish

orqali o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini asta-sekin shakllantirib borish lozim.

**Matn yaratish ustida ish olib borish** esa quyidagi 3 bosqichdan qamrab olishi maqsadga muvofiq:

1) matn oldi topshiriqlari;

2) matnning xomaki variantini tayyorlash;

3) matnni tugallash.

**1.Matn oldi topshiriqlari** matn tuzishga tayyorlanish jarayoniga qaratilgan mashqlardan boshlanadi. Bunda quyidagi turdagi topshiriqlardan foydalanish kerak bo‘ladi:

1) matnni boshlashga mos keluvchi jumlani shakllantirish;

2) tayanch so‘z va so‘z birikmalarini aniqlash;

3) gaplarni bog‘lanishli izchillikda joylashtirish;

4) jumlalarni bog‘lashda qo‘llanadigan grammatik vositalarni (qo‘shimchalar, yordamchi so‘zlar, kirish so‘zlar) aniqlashtirish;

5) notanish so‘zlar ma’nosini lug‘at asosida aniqlashtirish;

6) nutq vaziyatiga mos kirish so‘zlarni tanlash;

7) matnni xulosalashda qo‘llanadigan jumlalar, kirish so‘zlarni tanlash.

**2.Matnning xomaki variantini tayyorlash mashqlari** esa quyidagi mazmundagi topshiriqlarni qamrab olishi ko‘zda tutiladi:

1) matnni tarkiblash: asosiy va qo‘shimcha axborotlarni joylashtirish;

2) matnning kirish, boshlovchi qismi uchun jumlalarni tanlash;

3) matndagi yakunlovchi jumlani o‘zgartirish;

4) matnga munosabat bildiruvchi va xulosalovchi jumlalar qo‘yish;

5) matndagi ortiqcha jumlalarni aniqlash;

6) sarlavha asosida matn tuzish;

7) mavzu mazmuniga mos kichik matn tuzish;

8) matnga reja tuzish;

9) fikrni davom ettirish.

**3.Matnni tugallash jarayoni**da quyidagi turdagi topshiriqlarni berilishini rejalashtirish kerak:

1) tuzilgan matnning asosiy mazmunini so‘zlab berish;

2) mavzuni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan kengaytirib gapirish;

3) matnni (mavzuni) ixchamlashtirib so‘zlab berish;

4) matn mazmunini jumlalar tartibini o‘zgartirib so‘zlash;

5) matnni shaxsni o‘zgartirib (1-, 2-, 3-shaxs nomidan) hikoya qilish.

Bu kabi tizimlashtirilgan topshiriqlar o’quvchilarning o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini turli vaziyatlarda amalda qo‘llay olish malakalarini shakllantirishga yordam beradi hamda ularning bog‘lanishli monologik nutqini rivojlantiribgina qolmay, mustaqil fikrlash faoliyatlarini ham o‘stiradi.

Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning egallangan bilimlar, ko‘nikma va malakalarning amaliy tatbiqi asosida mustaqil matn yaratish ona tili darslarida o‘tilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Matn ustida ishlash va uni tahrir qilish orqali esa matnning mantiqiy-mazmuniy va uslubiy shakllanganlik darajasi aniqlanadi, matndagi imloviy va uslubiy nuqsonlarni bartaraf etish jarayonida o‘quvchilarda matn yaratish mahorati rivojlantirib boriladi.

O‘qituvchi dars jarayonida o‘quvchilarning ta’limiy-didaktik faoliyatini samarali tashkil qilishni aniq bir maqsadga – mustaqil matn yaratishga yo‘naltirish uchun darsni puxta rejalashtirishi, o‘quvchiga ijodiy ishlash muhitini yaratib beradigan topshiriqlar tizimi namunalarini ishlab chiqishi kerak. Har bir ta’lim oluvchiga individual yondashish, uni mustaqil ijodkorlikka undash ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish xislatlarini tarbiyalaydi, o‘quvchiga taqdim qilinayotgan bilimlarni tushunish va ulardan amaliy foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga yordam beradi.

Maktab o‘quvchilarida mustaqil matn yaratish ko‘nikmalarini shakllantirishda topshiriqli mashqlar tizimidan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’kidlash joizki, o‘quv topshiriqlari qo‘llaniladigan asosiy manba darslik va qo‘llanmalar

bo‘lib, har bir darslik o‘quv jarayonida o‘quvchilarning ongli va faol ishtirokini, o‘quv materialining to‘liq asosini ta’minlashi lozim.

G‘.Hamroyev doktorlik tadqiqot ishida o‘quv topshiriqlarini o‘zaro farqlash masalasi pedagogikada ham, metodikada ham bahsli mavzu ekanligini qayd etgan holda, “topshiriq jahon til o‘qitish metodikasida o‘quv maqsadiga erishishga qaratilgan o‘quv jarayonining birligi bo‘lib, uning tuzilishini belgilaydi, til va nutq maqsadlariga erishishda ma’lum darajada mashqdan farqlanishi bilan tavsiflanadi”[1], deya ta’kidlaydi. Uning fikricha, mashqlardan farqli ravishda topshiriqlar darsning tashkiliy jihatlariga, o‘quv materialini tushuntirishda va pedagogik aks ettirishda to‘liq qatnashadi. Topshiriq bir vaqtning o‘zida bir nechta mashqlarni o‘z ichiga olishi mumkin[2].

Bugungi davr mustaqil, tanqidiy, yangicha fikrlaydigan insonlarni tarbiyalash vazifasini ona tili ta’limi oldiga muhim vazifa qilib qo‘ymoqda. Til ta’limida matn ustida ishlash topshiriqlarini bajarish jarayonida o‘quvchilar til imkoniyatlaridan foydalanishning turli usul va vositalari bilan tanishadilar, o‘zlari tuzadigan jumla uchun eng ma’qul, nutqiy vaziyatga mos, zarur so‘zni tanlaydilar, shu so‘zning lug‘aviy mano guruhlari ustida ishlash orqali uning boshqa so‘zlar bilan birikish imkoniyatini aniqlaydilar, so‘zlarni o‘zaro bog‘lab so‘z birikmalari hosil qilish orqali esa tilda mavjud lisoniy sintaktik qoliplar haqida muayyan tasavvurga ega bo‘ladilar, yaratilajak matnning asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash va uni ketma-ketlikda joylashtirishga urinadilar, fikrni ixcham va ravon ifodalash malakalarini egallashga harakat qiladilar. O‘quvchi matn yaratish jarayonida o‘zi erkin mushohada yuritadi, o‘zi so‘z tanlaydi, tuzgan gaplarini o‘zi mustaqil tahlil qiladi, gaplarning ketma-ketligini o‘zi tartiblaydi, tuzgan matnining mazmuniy-me’yoriy shakllanganligi, uslubiy mukammalligi haqida fikr yuritadi, o‘z bilimi, tanqidiy yoki ijobiy qarashlari, intellektual qobiliyatini namoyish qiladi.

Til tuzilmasiga oid hodisalarni, til sathlari birliklarini nutqdan ayri holda tahlil qilmay, aynan nutq tarkibida tahlil qilinsa, til bo‘limlarini o‘rganish matn

---

[1] Hamroyev G‘. Ko‘rsatilgan manba. - 59-b.
[2] Hamroyev G‘. Ko‘rsatilgan manba. - 65-b.

tahlili va matn yaratish bilan o‘zaro uyg‘unlikda olib borilsagina ushbu maqsadni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Bu esa bevosita grammatik topshiriqlarning qanday qo‘yilishiga bog‘liq.

Bizningcha, ona tili darslarida matn yaratishga doir topshiriqlar tizimi quyidagilarni qamrab olishi maqsadga muvofiq:

- berilgan mavzu asosida matn yaratish;
- berilgan tayanch so‘zlar asosida kichik matn tuzish;
- berilgan fikr asosida matnni davom ettirish;
- boshlanish qismi berilgan matnni davom ettirish;
- matnni berilgan ma’lumot asosida davom ettirish;
- matn mazmunidagi asosiy fikrni ifodalagan gapni topish;
- matndan ikkinchi darajali ma’lumotlarni chiqarib, matnni ixchamlashtirish;
- matnga  xulosaviy fikrlarni qo‘shish va matnni xulosalash;
- matn mavzusiga mos maqol, hikmatli so‘zlar va iboralar vositasida matnni xulosalash;
- matnni bildirilgan yangi fikrlar asosida abzaslarga ajratish va abzaslarga ajratilishini asoslash;
- matnni tarkibiy qismlarga ajratish va har bir qismga ajratilishni asoslash;
- matnning kirish qismini abzas vositasida ajratish va h.z.

Ushbu topshiriqlarning har biri o‘ziga xos grammatik topshiriqlar ustida ishlashni talab etadi. Ammo bu topshiriqlar matnni gaplarga ajratish, gap va jumlalarni sintaktik, so‘zlarni morfologik tahlil qilishga qaratilmasligi kerak. Har bir grammatik topshiriq matn mazmunini, matn tuzilmasini, uning tarkibiy qismlarini tugal shaklga keltirishga, har bir so‘z, gap, grammatik vosita o‘zaro uyg‘un, izchillikda matn yaxlitligini ta’minlashga xizmat qilishiga yo‘naltirilishi shart.

Ko‘rinadiki, matn yaratish matn ustida ishlash jarayoni bilan uyg‘unlikda olib borilishi zarur. Har bir yaratilgan matnning takomiliga yetishi matn ustida olib boriladigan grammatik va tahririy ishlarga bog‘liq bo‘lib, bu leksik (so‘z tanlash,

so‘zlarning o‘zaro aloqador uyadoshlari, sinonimlari va uslubiy bo‘yoqdor variantlarini topish, turg‘un so‘z birikmalari va iboralardan o‘rinli foydalanish), grammatik (so‘z va gaplarni, matn qismlarini bog‘lovchi vositalarni to‘g‘ri qo‘llash, sintaktik-sinonimik vositalardan o‘rinli foydalanish), matnda qo‘llangan tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash matnning mazmuniy va grammatik mukammaligini ta’minlaydi.

Demak, ona tili ta’limida grammatik topshiriqlar shunday tuzilishi kerakki, ular o‘quvchilarga egalagan bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliy qo‘llashga o‘rgatsin. Ona tili ta’limida o‘tkazilayotgan islohotlar faqatgina DTS talablari, o‘quv dasturlari mazmuninigina emas, darsliklar tarkibiga kiritilgan grammatik o‘quv topshiriqlarining mazmun-mohiyatini ham tubdan o‘zgartirishni taqozo etmoqda. Bu bugungi kunning asosiy didaktik tamoyilidir.

## Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

1.Insoniyat erishgan yutuqlar, madaniy-ma’naviy meroslarni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning eng asosiy vositasi ijodiy tafakkur mahsuli bo‘lmish matn orqali namoyon bo‘ladi. Matn nutq jarayonining yaxlit kommunikativ birligi bo‘lib, u ikki va undan ortiq jumlalar va gaplarning o‘zaro mazmunan birikishidir. Inson ijtimoiy-ma’naviy faoliyatining asosiy shakli va mazmuni muomala-muloqot orqali ifodalansa, insoniyat erishgan yutuqlar, madaniy-ma’naviy meroslarni keyingi avlodlarga yaxlit holda yetkazishning eng asosiy vositasi ijodiy tafakkur mahsuli bo‘lmish matn orqali namoyon bo‘ladi.

2.Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning egallangan bilimlar, ko‘nikma va malakalar amaliy tatbiqi asosida mustaqil matn yaratishi ona tili darslarida o‘tilayotgan har bir mavzuning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Matn ustida ishlash va uni tahrir qilish orqali esa matnning mantiqiy-mazmuniy va uslubiy shakllanganlik darajasi aniqlanadi, matndagi imloviy va uslubiy nuqsonlar bartaraf etish jarayonida o‘quvchilarda matn yaratish mahorati rivojlantirib boriladi. O‘quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, o‘z fikrini to‘g‘ri, ravon, talab va ehtiyojga mos

ravishda ifodalashga o‘rgati,  bu jarayonni amalga oshirishning eng muhim omillaridan biri – matn yaratishning samarali texnologiyasini ishlab chiqishdir.

3.Ijodiy tafakkur mahsulini yozma ifodalash, ya’ni matn  yaratish uchun matn ustida ishlash malakasini egallash, matn turlarini bilish, matnning tarkibiy qismlarini farqlash va ularni o‘zaro bog‘lovchi grammatik vositalarni qo‘llay olish ko‘nikma-malakalarini egallashni taqozo etadi. Buning uchun ona tili darslarida o‘quvchilarni matn turlari  va uning ifoda vositalari bilan tanishtirish,  matnning tuzilmaviy-tarkibiy qismlari haqida nazariy  ma’lumotlar berish, matn  mazmunini to‘ldirish, kengaytirish, matnni  qayta ishlash, matnning shakli, uslubini o‘zgartirish, matnda mavjud mantiqiy va uslubiy nuqsonlarni aniqlash yo‘nalishlarida ish olib borish, ya’ni  o‘quvchilarni nafaqat matn yaratishga, balki matnni tahlil qilish va tahrir qilishga o‘rgatish ham kerak bo‘ladi.

4.Tadqiqotchilarning tahlillari darsliklarda asosan tayyor matn ustida ishlashga e’tibor qaratilayotgani, tayanch so‘zlar va nutqiy qurilmalar vositasida o‘quvchilarda bog‘lanishli nutq ko‘nikmalarini hosil qilish, o‘z fikrini turli vaziyatlarda mustaqil ifodalash, nutqida sintaktik-sinonimik vositalardan foydalanishni o‘rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlar kam berilganini, o‘quvchilarni **so‘zlardan – so‘z birikmalari – so‘z birikmalaridan – gaplar – gaplardan bog‘lanishli matn** yaratishga olib chiqadigan mashq va topshiriqlar tizimi shakllantirilmaganligini, demak, o‘quvchilarni bog‘lanishli nutqqa o‘rgatish ko‘nikma-malakalari shakllantirish talab darajasida emasligini ko‘rsatmoqda.

5.Darsliklarda mashq va topshiriqlarning turi ko‘p bo‘lsa-da, ularda muayyan tizim mavjud emas, topshiriqlarni oddiydan murakkabga qarab, terma gaplardan bog‘lanishli nutqqa, so‘ng monologik nutqqa qarab o‘stirib borish tamoyili qo‘llanmagan. Ushbu mashq va topshiriqlar bevosita bog‘lanishli monologik nutqqa olib chiqishga yo‘naltirib tizimlashtirilmagan. Bog‘lanishli matn tuzish yo‘llari ko‘rsatilmagan holda o‘quvchining o‘zidan bog‘lanishli matn tuzish so‘ralganini ko‘rish mumkin.

6.Til tuzilmasiga oid  jihatlarni, til sathlari birliklarini nutqdan ayri holda tahlil qilmay, aynan nutq tarkibida tahlil qilish, til bo‘limlarini o‘rganishni **matn**

**ustida ishlash** va **matn yaratish** bilan o‘zaro uyg‘unlikda olib boorish natijasida ushbu maqsadni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Bu esa bevosita grammatik topshiriqlarning qanday qo‘yilishiga bog‘liq bo‘lib, bunda muayyan mavzuda matn yaratishga doir matn tuzishga tayyorgarlik jarayonini qamrab oladigan **matn oldi,** matn mazmunini to‘ldirish, matnni kengaytirish, ixchamlashga qaratilgan **matn ustida ishlash,** matn tahriri va xatolar ustida ishlashga yo‘naltiriladigan **matn osti** topshiriqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

7.Matn ustida ishlash o‘quvchidan matn va uning turlari, matn qismlari, ularning farqli jihatlari, matn tarkibi, matn qismlarini bog‘lovchi vositalar, matnning uslubi va lisoniy vositalari yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo‘lishlikni ham talab qiladi. Xususan, 8-9-sinfdan boshlash o‘quvchilar matn tarkibiy qismlarini ajrata olishi va matn janri, tili va uslubini farqlashi kerak bo‘ladi. Buning uchun matn ustida ishlashni 5-sinfdan boshlash, avval tayyor matnlar bilan tanishtirish va kichik matnlar tuzdirish orqali o‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini asta-sekin shakllantirib borish lozim.

# II BOB. O‘QUVCHILARNI GRAMMATIK TOPSHIRIQLAR BAJARISH ORQALI MATN YARATISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH

## 2.1-§. Grammatik bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash jarayonida mustaqil matn tuzishga tayyorlov topshiriqlari

Mustaqil O‘zbekiston rivojlanishining dastlabki yillarida milliy ta’lim tizimini jahon me’yorlariga moslashtirish bo‘yicha salmoqli islohotlar amalga oshirildi. “Ta’lim to‘g‘risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari asosida ta’lim sohasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlarning samarali natijalari Davlat ta’lim standartlari talablarining ham yangilanishiga olib keldi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori bilan tasdiqlangan DTS umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-9-sinflari uchun amaliyotga joriy etildi.

Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta ta’limda o‘qitiladigan har bir fan yuzasidan o‘rganilishi lozim bo‘lgan bilimlarga qo‘yilgan asosiy talab hisoblanadi.

DTS talablari asosida ona tili ta’limi mazmunining yangilanishi sohada tub islohotlar natijasida qilinishi lozim bo‘lgan ishlar ko‘lamini belgilab berdi. Til ta’limida lingvistik ko‘nikmalar grammatikaga oid o‘zlashtiriladigan bilim hamda nutq o‘stirishga qo‘yilgan talablar asosida shakllantiriladi. Nazariy bilimlarni egallash barobarida nutq o‘stirishning birinchi yo‘nalishida o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, ikkinchi yo‘nalishda imlo va talaffuz me’yorlarini, shuningdek, so‘z turkumlari va sintaktik tuzilishlarning uslubiy imkoniyatlarini tushunish, uchinchi yo‘nalishda fikrni og‘zaki va yozma bog‘lanishli bayon qilish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan. Har bir yo‘nalish talablarini bosqichma-bosqich shakllantirib borish natijasida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni yozma nutqda erkin qo‘llay olish orqali o‘quvchi biror mavzu doirasida mustaqil matn yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ona tilining har bir sathini mukammal darajada o‘rganish, fikrni aniq va erkin bayon etishda ulardan o‘rinli foydalanish DTSda asosli belgilab berilgan. Har bir pedagog uni mukammal o‘zlashtirishi, sinf o‘quvchilarining yosh xususiyati va intellektual salohiyatini inobatga olib, yuqori saviyali dars mashg‘ulotlarini tashkil etgan holda sifat samaradorligini oshirishi lozim.

DTSda Ona tili fanini o‘qitishdan maqsad o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirish ekanligi belgilangan bo‘lib, bunda fan doirasida olingan nazariy bilimlarni ona tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda amaliyotda qo‘llash maqsadiga yo‘naltirilgan tayanch kompetensiyalar va fanga oid kompetensiyalarga qo‘yilgan talablar bilish darajalari bo‘yicha shakllantirildi. Fanga oid kompetensiyalarning lingvistik kompetensiyasi (FK1) fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, leksika, grammatika va uslubiyatga oid nazariy bilimlar talablarni qamrab oladi, nutqiy kompetensiya esa (FK2) tinglab tushunish, o‘qish, so‘zlash, yozish bo‘yicha talablarni aks ettirishi belgilab berildi[1].

DTSning Milliy o‘quv dasturi asosida takomillashtirilishi o‘quvchilarni nafaqat nazariy bilim olishlariga, balki egallangan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga qaratilgan bilimlar bilan o‘qitish imkoniyatini ham yuzaga keltirdi. O‘quvchilarni hayotiy ko‘nikmalarga tayyorlaydigan amaliy mavzular salmog‘i kengaydi. Ona tili ta’limida nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish birinchi planga ko‘tarilib, tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish kompetensiyalariga jiddiy e’tibor qaratila boshlandi. Xususan, ona tili ta’limida tinglab tushunishning fahmlash, anglash kabi bosqichlari ustida ishlash orqali nutqiy ko‘nikmalarni kognitiv bilimlar bilan bog‘lab olib borish bo‘yicha tadqiqot ishlari ham olib borila boshlandi[2]. Bularning barchasi o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqqa doir ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Islohotlar natijasida Davlat ta’lim standartlari talablarini Milliy dasturdagi o‘zgarishlar bilan qiyoslash umumiy o‘rta ta’limning har bir sinf

---

[1]Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili Adabiyot. (5–9-sinf) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent; 2017, 14 (774)-son.

[2]Hamroyev G‘. Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish: Ped. fan. dokt. (DSc) ... dis-ya. –Toshkent, 2022. – 72-b.

bosqichida o‘quvchilarning matn bilan bog‘liq quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari lozimligi ko‘rsatilgan.

**Davlat ta’lim standartlari va Milliy o‘quv dasturda o‘quvchilarning matn bilan bog‘liq egallashi lozim bo‘lgan BKM tahlili**

**2.1-jadval**

| Sinflar | DTS (1999.16.08.) | DTS (2017.16.08.) | MO‘D (2021) |
|---|---|---|---|
| 5-sinf | matn yaratish darajasida gap tuzish; mustaqil gaplarni o‘zaro bog‘lay bilish, fikrni yozma ravishda bayon etish (miqdoriy ko‘rsatkich – 10-12 gap). | **A2:** 8-10 gapli ijodiy matn yarata olish; mustaqil va ijodiy fikrlay olish.<br>**A2+:** 11-15 gapli ijodiy matn yarata olish. | berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o‘z fikrini to‘g‘ri, izchil ifodalash, shuningdek, 10–12 gapdan iborat matn yoza olish; matnning izchilligini va samarasini oshirish uchun so‘zlarni, grammatik qoidalar va gap qurilmalarini to‘g‘ri qo‘llash. |
| 6-sinf | rivoya-matn, tasvir-matn tuzish; fikrni yozma ravishda bayon etish (miqdoriy ko‘rsatkich - 12-14 gap) | **A2:** 10-12 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yozish, bayonga reja (sodda) tuza olish, matnda badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalana olish.<br>**A2+:** 16-18 gapdan iborat ijodiy matn (bayon) yoza olish. | berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o‘z fikrini to‘g‘ri, izchil ifodalash, shuningdek, 12–14 gapdan iborat matn yoza olish; materialni tartiblash va umumlashtirish, fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yoza olish; hikoya matni, tasviriy matn, muhokama matnni yaratishda so‘zlarni, grammatik qoidalar va gap qurilmalarini to‘g‘ri qo‘llash. |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **7-sinf** | gaplarda fikrni aniq, mantiqiy izchillikda yoritish; fikrni yozma ravishda bayon etish (miqdoriy ko‘rsatkich - 14-16 gap) | **A2:** matnlarni, so‘z, iboralarni ma’nosini anglagan holda to‘g‘ri o‘qiy olish; fikrni to‘g‘ri va ravon bayon qila olish.<br>**A2+:** tinglangan matn, ko‘rilgan lavhadagi asosiy voqea-hodisalarni tushuna olish; matnlarni, so‘z, iboralarni ma’nosini anglagan holda to‘g‘ri o‘qiy olish; fikrni to‘g‘ri va ravon, kerakli o‘rinda qisqa bayon qila olish. | berilgan matn, rasm, audiomaterial asosida imlo va uslubiy qoidalarga rioya qilgan holda o‘z fikr va hissiyotlarini to‘g‘ri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi 14–16 gapdan iborat matn yoza olish; biror narsani tushuntirish yoki ma’lum predmet, hodisa haqida ma’lumot yetkazish maqsadida fikrlar va argumentlarni daliliy tafsilotlar bilan asoslab yoza olish; o‘z yozma nutqining ta’sirchanligini oshirish maqsadida badiiy va ritorik vositalarni qo‘llay olish. |
| **8-sinf** | matn yaratish jarayonida o‘zbek adabiy tili grammatika-sining me’yor va imkoniyatlariga rioya qilish; fikrni yozma shaklda bayon etish (miqdoriy ko‘rsatkich - 20-25 gap) | **A2:** tinglangan matn, ko‘rilgan lavhadagi asosiy voqea-hodisalarni tushuna olish; matnni (barmoq vaznidagi she’r) ma’nosini anglagan holda to‘g‘ri va ravon o‘qiy olish.<br>**A2+:** fikrni so‘z va gaplarni mantiqiy bog‘lagan holda to‘g‘ri bayon qila olish. | turli ko‘rinishda berilgan materiallar asosida o‘z fikr va hissiyotlarini to‘g‘ri, izchil ifodalash, shuningdek, turli mazmundagi 16–18 gapdan iborat matn yoza olish; ma’lum narsa yoki hodisa haqida ma’lumot yetkazish maqsadida ma’lumot va ijodiy-tavsifiy xarakterdagi matn yarata olish, bunda dalillardan foydalana olish; matnning izchilligini va samarasini oshirish uchun so‘zlar, grammatik qoidalar va strukturalarni to‘g‘ri qo‘llash; o‘z yozma nutqining ta’sirchanligini oshirish maqsadida badiiy va ritorik vositalarni qo‘llay olish. |

DTS talablari bo‘yicha tuzilgan o‘quv dasturi va darsliklar mazmunida ham takomillashtirish, yangi avlod darsliklarini yaratish talablari bo‘yicha yuzaga chiqqan o‘zgarishlarni kuzatish mumkin. Bu o‘zgarishlar ona tilidan dastur hamda darsliklar o‘quvchilarning o‘rganishlari uchun tanlangan va ularning

o'zlashtirishlariga muvofiqlashtirilgan til materiallarini o'z ichiga olishi[1]ni tasdiqlaydi.

Dastlabki DTS talablari[2] bo'yicha tuzilgan o'quv dasturiga asoslangan darsliklarda sof grammatik bilimlarni egallash, ularni mustahkamlash jarayonida matnlardan foydalanish nazarda tutilgan. Xususan, 5-sinf ona tili darsligi[3]da keltirilgan matnlarda asosiy e'tibor grammatik topshiriqlarni bajarishga qaratilib, lingvistik ko'nikmalarni mustahkamlashga xizmat qilgan. Masalan: **560-mashq**da choy so'zining kelib chiqishi haqidagi hikoyat kelirilgan. Ushbu mashq orqali o'quvchilar boshqa tildan o'zlashgan so'zlarning tilimizga qanday olinishi haqida puxta bilib oladilar. Bu jarayon o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga quyidagicha yetkaziladi: tilimizning lug'at tarkibida o'zimizniki bo'lgan so'zlardan tashqari boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar ham mavjud. Bu tabiiy holdir. Chunki o'zbek xalqi o'z tarixining turli davrlarida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lib kelgan. Mana shu aloqa-aralashuv natijasi o'laroq tilimizga boshqa tillardan so'zlar kirib, o'zlashib ketgan. "Choy" leksemasi *(***Choy** *[t.f.< xit.* cha] bargi damlab ichiladigan, janubiy o'lkalarda o'suvchi doimiy yashil buta daraxti; shu o'simlikning quritib maxsus ishlangan, maydalangan, damlab ichiladigan barglari; shu o'simlikning maxsus ishlangan, maydalangan barglaridan damlangan xushbo'y ichimlik; shu ichimlik bilan birga ovqatlanish[4]*)* ham ana shunday so'zlardan biridir. Shuningdek, choy o'zbek xalqining lingvomadaniy birliklaridan sanaladi.

5-sinf darsligida o'quvchi tomonidan matn mazmunini anglashga e'tibor qaratilgan matnlar ham mavjud. Biroq ularni yetarli darajada deb bo'lmaydi. Bu kabi matnlar salmog'ining kamligi o'quvchilarda grammatik topshiriqlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirsa-da, ularda ijodiy fikrlash ko'nikmasini nisbatan

---

[1]Qarang: G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. Ona tili o'qituvchilari uchun qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1995. – 128 b.

[2]Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti. – Toshkent, 16.08.1999-y.

[3]Mahmudov N. va b. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015. – 197-b.

[4]O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 4-jild. – Toshkent: O'zME, 2006. – 503-b.

past darajada shakllanishiga olib keladi. Masalan: **155-mashq[1]. Matnni sinchkovlik bilan o'qing. Mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday so'roqqa javob bo'lishini hamda qaysi gap bo'lagi bo'lib kelayotganini aniqlang.**

*Bugunga kelib **ekologik** muammo hayotimizning **eng dolzarb** masalasiga aylandi. **Uzoq** yillar davomida **bu** muammolarni hal etish uchun **jiddiy** ish olib borishga yo'l berilmadi. U davrlarda **bepoyon** o'lkamizning **beqiyos** boyliklarini asrash butunlay **yot** tushuncha edi. Natijada **serunum** yerimiz kasallandi, **beg'ubor** havo, **musaffo** suvlar bulg'andi. Hozirda tabiatga qarash butunlay o'zgardi.*

**Topshiriq.** Quyidagi savollarga javob bering: 1.Ekologiya deganda nimani tushunasiz? 2.Matnda qaysi davr voqeligi aks etgan?

Ushbu mashqdagi topshiriq shartlarini bajarish jarayonida ona tili ta'limining fanlararo aloqasi natijasi yaqqol ko'zga tashlanadi, tilni tizimli ravishda o'rganishning amaliyotga ijobiy ta'siri samarasi seziladi. O'quvchilarda ekologik tarbiya shakllanadi. Jumladan, *ekologik, eng dolzarb, uzoq, bu, jiddiy, bepoyon, beqiyos, serunum, beg'ubor, musaffo* kabi so'zlarning qaysi so'z turkumiga mansubligi, qanday gap bo'lagi vazifasida kelishi aniqlanadi. Bu orqali o'quvchilarda grammatik va nutqiy ko'nikmalarni boyitishga erishiladi.

Tahlillar davomida shu narsa aniqlandiki, 1999-yilgi DTS talablari asosida yaratilgan darsliklarda tilning nazariy bilimlari (FK1)ni egallash, shu asosida malaka va ko'nikmalarni shakllantirish birinchi darajali hisoblangan. Har bir mavzuga doir mashqlarda yangi bilimlarni mustahkamlash uchun topshiriqlar keltirilgan. Masalan, **6-sinf ona tili darsligi**da "So'z yasovchi qo'shimchalar" mavzusini olsak, dastlabki topshiriqda *-zor, -iston, -li* qo'shimchalari yordamida *olcha, o'zbek, iroda* asoslaridan yangi so'zlar yasash, asosdan anglashilgan ma'no bilan yangi yasalgan so'z ma'nosini farqini izohlash keltirilgan. Yangi bilimlar bayonidan so'ng 65-68-mashqlardagi topshiriqlarning barchasi so'z yasovchi

---

[1]Mahmudov N. va b. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015. – 51-b.

qo‘shimchalarni aniqlash va belgilashga asoslanadi. Faqat 67-mashqning 2-shartida “Matndagi fikrga qo‘shilasizmi?” savolini uchratish mumkin[1]. Matnda asosiy fikr shijoatli farzandlar yurt kelajagini belgilashi haqida so‘z boradi, lekin mushohada uchun topshiriq ajratilmagan. Bu xususiyat fikrlarimizning asosliligidan dalolat beradi.

6-sinf darsligining **163-mashq**[2]ida “Alpomish” dostonidan kichik parcha keltirilgan. Mashqning shartiga ko‘ra o‘quvchilar ravishdoshlarni aniqlashi, qaysi so‘zga bog‘lanayotganligini topishi lozim.

*... Boysari o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot eli bilan ko‘chib borgach, Ko‘kqamsh ko‘li atrofida mollarni semirtirib, yaylovda yayrab yotadi. O‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elining boyvachchalari bilan yig‘ilib, bir yerga jam bo‘lib, bir baxmal o‘tovni tikib, shu o‘tovning ichida hamma boyvachchalar bilan qimiz ichib, o‘z kayf-u safosi bilan o‘tirar edi.*

Ushbu mashqda ham asosiy e’tibor grammatik topshiriqlarni bajarishga qaratilgan. Ravishdoshlar bo‘yicha darslikdagi yuqoridagi mashqdan oldin shu mavzuga doir juda muhim bo‘lgan qoidalarni o‘rgangan o‘quvchilar tomonidan ushbu amaliy mashqni bajarish qiyinchilik tug`dirmaydi. Biroq mashqning topshirig‘ida nutqiy ko‘nikmani shakllantiruvchi savol mavjud emas.

Xuddi shu holatni 7-sinf ona tili darsligi[3]da ham kuzatish mumkin: **139-mashq. O‘qing. O‘rin-payt kelishigi shaklidagi so‘zni aniqlang va uni hokim so‘z bilan birga ko‘chiring. Qanday so‘roqqa javob bo‘layotganini ayting. Sodiq do‘st deganda kimni tushunasiz?**

*Inson umri davomida o‘ziga sodiq do‘stlar orttiradi. O‘g‘il ham, qiz ham, kim bo‘lishidan qat’i nazar, o‘z faoliyatida, o‘qishda, mehnatda, uzoq safarda, odamlar orasida o‘ziga fe’li, muomalasi bilan yoqib qolgan kishi bilan do‘stlashadi.*

---

[1]Mahmudov N. va b. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Tasvir, 2017. – 25-b.
[2]Mahmudov N. va b. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Tasvir, 2017. – 64-b.
[3]Mahmudov N. va b. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017. – 66-b.

*Do'stlik nihoyatda nozik bo'lib, uni asrab-avaylash lozim. Do'stlik insonning bolalik davrida boshlanadi. Bolalikdan boshlangan do'stlik odamzodning keyingi ulg'aygan va kamolotga erishgan davrida orttirgan barcha do'stlari orasida alohida o'rin tutadi. (T. Qurbonov)*

Yuqoridagi mashqni bajarish orqali o'quvchilar ham kelishiklarni o'zlashtiradilar, ham sintaksis bo'limiga nisbatan qiziqishlari ortadi. Bu mashqlarni o'quvchilarga bajartirishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitishdan iborat.

2021-yilgi DTS talablari va Milliy o'quv dasturi mazmunida sof nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish nazarda tutilgan. Uzoq yillar davomida ona tili ta'limi mazmunining grammatik tushunchalarni o'rganishga qaratilganligi, keyin esa bu bosqichning nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga tomon o'zgarishi o'quvchilar tomonidan ona tili ta'limini egallashda bo'shliqlarni yuzaga keltirdi. Bu metodist olim A.G'ulomov tomonidan ta'kidlab o'tilgan edi: "Ma'lumki, ko'p hollarda ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar egallayotgan ko'nikmalar, asosan, tilning grammatik qurilishini o'rganishga qaratiladi, ularning so'z boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, fikrni bayon qilishning samarali yo'llarini aniqlash kabi foydali amaliy ko'nikmalar birmuncha e'tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili dasturi o'quvchilarni ko'proq ana shu foydali amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirishga yo'naltirilishi lozim"[1].

Ona tili o'qitishning grammatik talablari aslida o'zgarmas talablardir, ammo mashq va topshiriqlar, o'rgatish tizimi va mezonlari yildan-yilga takomillashib, yangiliklar bilan mukammallashtirib boriladi. Bu jarayon tizimli ravishda rivojlantirilganda samarali natija beradi.

Fikrimizcha, ona tili ta'limidagi topshiriq va mashqlar mavzu doirasida o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlaydi, shu bilan birga munozara uchun keltirilgan topshiriqlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

[1]G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 4-b.

Xususan, matnga doir talablarni bajarish, uning mazmun-mohiyatida aks etgan fikrni o‘quvchiga yetkazish uchun **mashq** va **grammatik topshiriq** atamalarini mohiyatan farqlash lozim.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “**MASHQ** 1. [v. zl. A – husnixat, rasm chizish uchun namunalar] Biror faoliyatni puxta o‘rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg‘uloti. *Harbiy mashq Mashq qilmoq.* M: *Sidiqjon ko‘kragini sandalga berib, xat mashq qilar, Kanizak uning ro‘parasida kitob o‘qib o‘tirar edi.* (A.Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari) – *Ish yomon, – dedi kelgan militsioner, – ko‘pi mashq ko‘rmagan, hali miltiq otishni bilmaydigan militsionerlar, qo‘lidan nima kelar edi.* (S.Ayniy, Qullar) *Uzoq mashqlar bekor ketmagan edi. Xonning qo‘shini go‘yo bir tan, bir jon bo‘lib harakat qilar edi.* (P.Qodirov, Yulduzli tunlar)

2.Ma’lum maqsadda bajariladigan, qilinadigan muayyan ish, harakat. *Imloga oid mashqlar. Jismoniy mashqlar. M: Bolalar bir-birlarining qo‘llarini ushlashib, gimnastika mashqlarini yengil va chiroyli bajaradilar.* (Gazetadan)”[1], – deya izoh keltiriladi.

“Pedagogika ensiklopediyasi”da ham mashq atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o‘zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko‘p marta takrorlash. Mas., o‘qish, yozish. Mashq ta’limda ko‘nikma va malakalar hosil qilishda muhim o‘rin tutadi”[2].

O‘quvchilarga nazariy ma’lumotlarni tezroq yetkazishda, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishda grammatik topshiriq hamda mashqlarning ahamiyati kattadir.

V.A.Buxbinder, N.I.Gez, M.S.Ilin, I.M.Berman, I.V.Raxmanov, J.J.Jalolov, A.G‘ulomov, S.Saidov, G‘.Hamroyev singari olimlar tomonidan mashqlar, ularning tasnifi, turlari yuzasidan lingvistik, psixolingvistik va lingvopedagogik tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lib, jumladan, V.A.Buxbinder mashqni

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 2-jild. – Toshkent: O‘zME, 2006. – 562 b.
[2] Pedagogika ensiklopediyasi. 2 jildlik. 1-jild. – Toshkent: O‘zME, 2015. – 223 b.

“mashq – til hodisalariga oid bilimlarni egallash, fonetik, leksik, grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish, mazkur birliklarni nutq vaziyatida to‘g‘ri qo‘llash amali”[1] sifatida e’tirof etadi.

U mashqlarning psixolingvistik tomoniga e’tibor qaratib, 3 guruhga bo‘lib tasnif qiladi:

1) informatsion mashqlar – o‘quvchilarda bilimni shakllantirishga xizmat qiladigan mashqlar;

2) operatsion mashqlar – til haqidagi nazariyalarni o‘rgatish natijasida o‘quvchilarda ko‘nikma hosil qilishga mo‘ljallangan mashqlar;

3) motivatsion mashqlar – egallagan bilim, ko‘nikmalar natijasida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish maqsadida bajariladigan mashqlar[2].

Metodist olim I.V.Raxmanov esa mashqlarni  til mashqlari va nutq mashqlari guruhlariga ajratadi[3].

O‘zbek milliy pedagogikasida J.J.Jalolov  mashqlarni  3 xil usulda tasnif qilishni taklif qilgan:

1) shakllantiruvchi mashqlar – bilim olishga mo‘ljallangan mashqlar;

2) rivojlantiruvchi mashqlar – ko‘nikma egallashga yo‘naltirilgan mashqlar;

3) takomillashtiruvchi mashqlar – malakani o‘stirishga xizmat qiluvchi mashqlar[4].

G‘.Hamroyev tadqiqotida fonetika o‘qitish jarayonida talaffuzi va imlosi qiyin nutq tovushlarini o‘zlashtirishda odatlantiruvchi mashqlardan foydalanish adabiy talaffuz ko‘nikmasini rivojlantirib, imloviy savodxonlikni oshirishga xizmat qilishi yoritib berilgan[5].

Ona tili ta’limi jarayonida bajariladigan mashq va topshiriqlar o‘quvchilar tomonidan tilning fonetik, orfoepik, orfografik, punktuatsion me’yorlarini o‘zlashtirish, mustahkamlash, xatoliklarni tuzatishga qaratiladi. Topshiriqlardan

---

[1]Бухбиндер В.А. Устная речь как процесс и предмет обучения // Очерки методики обучения устной речи на иностранных зыках / под ред. В.А.Бухбиндера. – Киев: КГУ, 1990. – 43-51 с.
[2]Бухбиндер В.А. Устная речь как процесс и предмет обучения // Очерки методики обучения устной речи на иностранных зыках / под ред. В.А.Бухбиндера. – Киев: КГУ, 1990. 43-51 с.
[3]Рахманов И.В. Обучение устной речи на иностранным языке. – Москва: Высшая школа, 1980. – С. 120.
[4]Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 c.
[5]Hamroyev G‘. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida fonetikaga doir o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. – Samarqand: SamDU. – 8-b.

dastlab bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda foydalaniladi, ya’ni matn ustida ishlashning birinchi bosqichida grammatik topshiriqlar sof grammatik vazifani bajaradi, ya’ni o‘zlashtirilgan bilim va egallangan ko‘nikma hamda malakalarning matn tarkibidagi gaplarda amaliy qo‘llanishiga qaratiladi. Keyingi o‘rinda esa yaxlit matn ustida ishlashga qaratilgan topshiriqlar haqida so‘z boradi. Aynan shu fikrdan kelib chiqqan holda G‘.Hamroyev o‘z tadqiqot ishida topshiriqlarni quyidagi 6 turga bo‘lishni taklif etadi:

**1.Bilishga doir topshiriqlar.** Bu daraja o‘quv materiallarining asosiy unsurlarini eslash, tushunib yetish va qayta tiklashga yo‘naltirilgan o‘quv maqsadlarini ishlab chiqishni ko‘zda tutadi.

**2.Qo‘llashga doir topshiriqlar.** Bu daraja, asosan, o‘quvchida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi (bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyati):

– tushunchalarni qo‘llash;

– qoidalarni qo‘llash;

– nazariyalarni qo‘llash va hokazo.

**3.Tahlilga doir topshiriqlar.** Bu daraja o‘quv maqsadlarini quyidagi toifalar bo‘yicha aniqlashtiradi:

– unsurlar tahlili (matnni qismlarga bo‘lish, ajratish);

– munosabatlar tahlili (abzaslar o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish);

– tamoyillar tahlili (birliklarni tizimlashtirish).

**4.Sintezlashga doir topshiriqlar.** Bu daraja “alohida qismlardan yaxlitini tuzish” ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha o‘quv maqsadlarini belgilaydi:

– g‘oyalar sintezi (masalan, muammo yechimi bo‘yicha bildirilgan g‘oyalarning umumlashishi);

– mulohazalar sintezi (masalan, nutqiy ko‘nikmalarning shakllanganlik darajalari, mezonlarini ishlab chiqish);

– tuzilma sintezi (masalan, matn ko‘rinishi – chizmasi, til birliklari yordamida nutqning ifodalanishi).

**5.Baholashga doir topshiriqlar.** Bunday topshiriqlar muayyan maqsad uchun u yoki bu o‘quv materiallarining ahamiyatini baholash ko‘nikmalarini nazarda tutadi[1].

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, o‘quvchilar dars mashg‘ulotlarida topshiriqlarni bajarish jarayonida limgvistik BKMlardan mahorat bilan samarali foydalana olsa, o‘z fikrlarini ta’sirchan, tushunarli bayon qila olsa, ajdodlardan qolgan boy ilmiy, badiiy merosni chuqur anglash darajasida o‘z tilini bilsa, ana shunda ona tili ta’limi o‘z maqsadiga erishgan bo‘ladi. Buning uchun ona tili darslarida foydalaniladigan o‘quv materiallari til ko‘nikmalarni kompleks tarzda shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bir paytning o‘zida ham talaffuz, ham imlo, ham so‘z boyligini oshirish, qolaversa, mustaqil fikrlashga yo‘naltirishga sharoit yaratish til ko‘nikmalarini mustahkamlash nutqiy mahoratni oshiradi. Ona tili darslarining asosiy maqsadi hisoblangan o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqiy malakalarini shakllantirish, unga zamin yaratuvchi fonetika, orfoepiya, orfografiya, punktuatsiya mashqlaridan muntazam foydalanish, topshiriqlarni va mashqlarni maqsadli yo‘naltirish samarali natija beradi.

Ona tili ta’limi o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda mustaqil fikrlash bilan bog‘liq ijodiy faoliyatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Bu borada metodist olima Sh.Yusupovaning olib borgan tadqiqot ishi va u tomonidan tavsiya qilingan mashq va topshiriqlarning ahamiyati nihoyatda katta[2].

Ko‘rinadiki, o‘quvchilarni bog‘lanishli nutqqa tayyorlashda ularning ijodiy mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish ham, grammatik bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan mashq va topshiriqlarning ham ahamiyati katta. Bu ikki yo‘nalishni uyg‘unlikda olib borish o‘quvchilarning yozma bog‘lanishli nutq malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, pirovardida ularda matn tuzish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

---

[1] Hamroyev G‘. Ko‘rsatilgan manba. -72-b.

[2] Yusupova Sh. Ona tili ta’limi samaraorligini oshirish va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish: ped fan. nom-di diss. TDPI. –T.,1998.- 137 b.

O‘quvchilarda darslik va boshqa manbalar yordamida egallashi ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlari shakllantirishga erishish maqsadida o‘rganilayotgan material yuzasidan reyd tashkil qilish orqali bilimning ishonchliligini isbotlashga, kommunikativ-kognitiv kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan ***“Reyder” texnologiyasi*** asosida darsga kreativ yondashish mumkin. Masalan, nutqiy malakalarni shakllantirishda maxsus rasmlar asosidagi so‘zlar talaffuz qilinadi, o‘quvchilar ularni lug‘at diktant sifatida daftarga yozadilar. Bilimdon o‘quvchilar – reyderlar tengdoshlarining xatolarini aniqlaydilar: xil-xil (saralangan, tanlangan), hil-hil (ezilib pishgan); uhlamoq (xafa bo‘lmoq), uxlamoq (dam olmoq); ham (1) bog‘lovchi, 2) yuklama); xam (egik); hamma (barcha, jami), xamma (bug‘doy o‘ra); hil (bug‘), xil (tur); hush (es, aql), xush (yaxshi, ajoyib); shoh (podshoh), shox (1) novda, 2) a’zo); hol (ahvol), xol (meng, tanadagi belgi). O‘qituvchi shu holatni videoproyektor orqali (uning hajmi katta bo‘lganligi sababli sinfdagi barcha o‘quvchi tasvirni yaqqol ko‘rib turadi va bu eng muhimidir) batafsil izohlab, shu asosda to‘g‘ri talaffuz qilib bera olsa, natija istalgandek bo‘ladi.

Boshqa bir o‘rinda mustahkamlash uchun biror matn, masalan**, “Hunar xosiyati”** matni h va x harflarining har ikkalasini yozgan holda ekranga chiqarilsa, ***“Ortiqchasini top”*** usuli orqali o‘quvchilar mustaqil ravishda o‘rganganlarini amaliyotda qo‘llab ko‘rish imkoniga bir vaqtning o‘zida ega bo‘ladilar. Vaqt ham tejaladi. Xuddi shunday talaffuzi va imlosi qiyin bo‘lgan o‘, u, i, e unlilari; q, ng undoshlari fonetik topshiriqlar asosida o‘rgatilishi lozim. Bu so‘zlar mazmuni va imlosini o‘rganish, ulardagi farqni esda saqlash o‘quvchilarning yozma nutq ko‘nikmalirini shakllantirishga xizmat qiladi.

***“Birgina topshiriqni bajarish mobaynida bir nechta zarur nutqiy ko‘nikmani shakllantirishga erishish”*** texnologiyasi ham o‘quvchilar bilan ishlashda samarali natija beradi. Berilgan hikmatli so‘zning ma’nosini tushuntiring. Unda ishtirok etayotgan undosh tovushlarning hosil bo‘lish o‘rnini talaffuz asosida mustaqil aniqlang. Har bir so‘zning ma’nodoshini topib yozing.

*Hunarni asrabon netkumdur oxir*

*Olib tuproqqami ketgumdur oxir (Navoiy).*

Taklif etilayotgan o‘quv materiallari o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham yangilik emas. Topshiriq shunchaki tuzilmasligi zarur, puxta o‘ylangan, maqsadli, ko‘p tomonlama foydali shaklda tuzilsa, darsda vaqtni unumli sarflashga olib keladi. Topshiriqlar birgina lingvistik ko‘nikmani hosil qilishga qaratilgan bo‘lsa (berilgan jumlani unli va undoshga ajrating kabi), u bugungi kun talabiga javob bermaydi. Bir topshiriqni bajarish mobaynida bir nechta ko‘nikmani shakllantirish lozim. Masalaga shunday yondashilsa, o‘quvchilarda nutqiy kompetensiya bosqichma-bosqich tarzda rivojlanib boraveradi. Yuqorida keltirilgan namunadagi sermahsul topshiriqdan darsda foydalanilsa, topshiriqning bosqichliligi fanni STEAM fanlar bilan bog‘lashga xizmat qiladi, bunda mazkur fanlarda masalalar sharti bosqichli ekanligi inobatga olinadi, ona tili darslaridagi topshiriqlar strukturasini ham shunga moslanadi. Bosqichli topshiriqlar o‘quvchining o‘zlashtirish imkoniyati, bilimini baholashda yordam beradi. Masalan, topshiriq uch bosqichli bo‘lsa, bittasini to‘liq bajargan “qoniqarli”, ikkitasini to‘liq bajargan “yaxshi” va uchalasini ham to‘liq bajargan o‘quvchi “a’lo” baholanishi mumkin.

Ta’kidlash kerakki, darslikda berilgan topshiriqlarning sharti bilan cheklanib qolmay, o‘quvchilarni mustaqil ish yuritishga, muayyan xulosaga kelishiga yo‘naltiradigan grammatik topshiriqlar bilan ishlashga o‘rgatish ularni matn yaratishga tayyorlab boradi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida o‘quvchilarni matn yaratishga yo‘naltiruvchi quyidagi grammatik topshiriqlarni tadqiqotda tavsiya qildik:

***5-sinf uchun mo‘ljallangan topshiriqlardan namunalar***

**1-topshiriq.** Bir undosh tovush bilan boshlanuvchi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

*Namuna: Ilmli inson – insoniyatga imkon.*

1.Botir botqoqlikka botib borardi.

2.Suvilon suvda sekin, sokin suzdi.

3.Tolib tirkamada turgan traktorning tirillashidan taajjublandi.

4.Tursunoy Toshkentni ta'sirli tasvirladi.

5.Salim salomlashib so'rashgach, so'riga surildi.

**2-topshiriq.** Hikmatli so'zlarda uchraydigan tovush o'zgarishlarini aniqlang. Xuddi shu xusisiyatlarni o'zida ifoda etgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

1.O'zgalar g'amini chekmasa odam, unga noloyiqdir inson degan nom (Sa'diy). 2.Mayli, yurtim, kezsang ham dunyo… O'zligingni unutma also (Abdulla Oripov). 3.Odob –beodobning har bir odobsizligiga sabr-toqat qilishdir (Jaloliddin Rumiy). 4.Qiyinchilik aqlning charxi-yu, g'ayratning qayrog'i bo'lar ekan (Abdulla Qahhor). 5.Odamgarchilikka intilish insonni barcha yomonliklardan qaytaradi (Konfutsiy).

**3-topshiriq.** Kundalik hayotimizda tez-tez ishlatiladigan so'zlarning qaysi tildan olinganligini aniqlang. So'zlarni qatnashtirib, gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdan bog'lanishli matn yarating.

*Abadiyat, sertifikat, firdavs, salyut, xurmo, turnir, fakultet, avval, krossvord, skaner, avzo, syomka, strelka, avlod, fevral, skelet, sanitariya, avj, asr, doim, bodom, flomaster, bulbul, seyf, sviter, tennis, palma, dori, palto, kabob, bino, iste'dod, kamolot, kitob, mamlakat, teatr, advokat, marosim, dollar, konsert, maydon, biznes, navro'z, stress, taekvando, tross, kabel, film, namoz, samokat, faner, mashrut, samolyot, orzu, moyonez, marhamat, stol, oqil, kvadrat, mart, metall, sinf, xalq, abonent, vergul, metr, menyu.*

**4-topshiriq.** Tutuq belgisining unlini cho'zish xususiyatiga mos so'zlarga misollar yozing. So'zlarni qatnashtirib, gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizdan bog'lanishli matn yarating. Masalan: *Ra'no, ma'no, a'lo…*

**5-topshiriq.** Gaplarda qo'llanilgan bir tovush bilan farqlanuvchi so'zlarni aniqlang. Birgina tovushning nutqdagi ahamiyati haqida bahslashing.

*Soda tabobat va kulinariyada ishlatilinadigan bikorbanatdir. Sodda, yoqimli liboslari o'ziga yarashib turgan qizlar tabassum bilan qarab turardi. Boburning "Kobul" devoni topilgan emas. Mashina dovon tepasiga ko'tarilar ekan, derazadan salqin shamol urildi. Mirzakarimboyni Toshkentning to'rt dahasi biladi. O'zbek xalqi ichidan o'nlab daholar yetishib chiqqan. Ot abzalin*

*shayladi, o'q-anjomin boyladi. Sizning har bir so'zingiz biz uchun tilladan afzal. Bu gaplardan so'ng otasining boshi anchagacha xam bo'lib yurdi. Farzona bu qilmishi tufayli onasining ham, otasining ham fig'onini falakka chiqardi.*

5-sinf o'quvchilari fonetik hodisalar, talaffuz va imlo qoidalari, so'zning ma'no xususiyatlarini o'rganar ekan, doimiy ravishda qo'llanilayotgan so'zning mazmun-mohiyatini anglashda lug'atlarga murojaat qilishadi. Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodni intellektual salohiyatga ega, yuksak ma'naviyatli, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida tarbiyalashda o'quv lug'atlariga ehtiyoj seziladi. Zero, "tilshunoslik oldiga muhim ijtimoiy-siyosiy buyurtma – ona tilidan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish va xorijiy tillarni tezkor o'rgatishga xizmat qiluvchi maktab lug'atlarini yaratish vazifasi qo'yildi"[1].

***6-sinf uchun mo'ljallangan topshiriqlar namunalari*** 5-sinfda o'rganilganlarni takrorlash, yangi bilimlarni nutqiy vaziyatda qo'llashga asoslandi. So'z juftliklarini topish, so'z turkumlarining gapdagi o'rni va vazifasini anglash, yangi so'zlarni qo'llab gaplar tuzishda o'quvchilardagi tirishqoqlik, izlanuvchanlik, mantiqiy fikrlashning samarali natijalarini guvohi bo'ldik:

**1-topshiriq.** She'riy misralardagi bir tovush bilan farqlanuvchi so'zlarni aniqlang. Ma'nodagi farqni izohlang. Xuddi shunday so'zlardan gaplar tuzib, bog'lanishli matn hosil qiling.

*1.Shoxlarda mezonlar yaltirar xira,*
*Poyida shivirlar mening kuylarim.*
*2.Shoh Mashrab qoni senda*
*Urdi tug'yon o'zbegim.*
*3.Besh asrkim, nazmiy saroyni*
*Titratadi zanjirband bir sher.*

---

[1] Bahriddinova B.M. O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi: lingvistik asoslari, tarixi va istiqbollari. Fil. fanl. dok. (DSc).... diss. avtoreferati. –S.: 2020. – 14-b.

*4.Kechalar uyqusiz she'r yod olganim*

*Tonggi ufqdagi yolqinlar aytsin.*

**2-topshiriq.** *Yig'im, kam, huzur, orzu, ko'cha, savdo, kuch, his, aql, fan, arzon, odob* so'zlarining juftlarini toping. Tuzilgan juftliklardan gaplar hosil qiling. Gaplarni bog'lanishli matnga aylantiring.

Masalan: *yig'im-terim, kam-ko'st, huzur-halovat...*

**3-topshiriq.** *Go'sht, tabiat, issiq, qadr, doim, ilm, unga, achchiq, do'st, g'isht, yozdir, iliq* so'zlaridan faqat talaffuzida tovush ortadigan so'zlarni aniqlang va ular ishtirokida gaplar tuzing. Mazmuni mos gaplarni jamlab matn yarating.

**4-topshiriq.** *To'g'rilik bilan xiyonat, yolg'on bilan diyonat chiqisha olmaydi*. Ushbu gapda qo'llangan mavhum otlarning ma'nosini izohlang. Guruhlarga bo'linib, yaxshi fazilatlar, yomon illatlar ro'yxatini tuzing. Ulardan foydalanib bog'lanishli kichik matn yarating.

**5-topshiriq.** *Insoniyatniki, yig'in, oromgohlarimiz, iste'dodli, unumdorlikni, kiyin, bog'dorchilik, iste'dodli, otashin, bilimdon, o'chirg'ich, maqtanchoq, sovutkich, qizg'anchiq* so'zlarini asos va qo'shimchalarga ajrating. Belgi bildiruvchi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Gaplardan bog'lanishli matn yarating.

***7-sinf uchun mo'ljallangan topshiriqlardan namunalar***

**1-topshiriq:** *avia-, avto-, kilo-, tele-, fito-, foto-, video-* so'zlari bilan boshlanuvchi so'zlarni yozing. So'zlardan gaplar, so'ng kichik matn hosil qiling.

Masalan: *avtobaza, avtobiografik, avtobiografiya, avtoblakirovka, avtovokzal, avtograf..; televideniye, telegramma, telekompaniya, telemarafon, telemarketing, teleobyektiv, teleskop, telestudiya, telefaks, telefilm, telefon, telefonogramma; fotokamera, fotokopiya, fotolaboratoriya, fotolitografiya, fotomaterial...*

**2-topshiriq.** Gapda nuqtalar o'rnida ishlatilishi kerak bo'lgan kilishik qo'shimchalarining mosini qo'ying. Tushum va jo'nalish kelishigi qo'shimchalarining ishlatilish o'rnini izohlang. Shu kelishik qo'shimchalari o'z o'rnida qo'llab matn tuzing.

*Yaxshi tarbiya ko'rgan odam ... xislatlari ... biri shuki, bunday odam o'z faoliyati ... boshqalar ... bir qadam oldin ... o'tsa, sheriklari ... yordam qo'li... uzatadi, safi ... kengaytirib, yangi g'alaba ...* ko'zlaydi.

**3-topshiriq.** Egalik qo'shimchasi qarashlilikni emas, umumdan ajratilganlik ma'nosini ifodalovchi birliklar asosida gap tuzing. Gaplarda mantiqiy bog'liqlik bo'lishiga erishing: *ozodlik qadri, Toshkent ko'chalari, ona mehri, erk tuyg'usi, mahalla idorasi, Mustaqillik bayrami, o'qish kitobi, ilon zahri...*

**4-topshiriq.** Gaplardagi shakli bir xil, ma'nosi har xil bo'lgan so'zlarning grammatik vazifasini aniqlang. So'z ma'nolarini o'rinli qo'llab matn yarating.

*1.Yuzida tabassum ko'rindi. Yuz marta eshitgandan bir marta ko'rgan yaxshi. Yer yuzining uchdan to'rt qismi suvdan iborat. 2.Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi. Yaxshilarning etagini tut, adashmaysan. 3.Arg'amchiga qil quvvat. Nomusingni yoshlikdan ehtiyot qil. 4.Hech bo'lmaganidan ko'ra kech bo'lgani yaxshi. Bir qoshiq qonidan kech bu bechoraning.*

**5-topshiriq. Grammatik topishmoqlarning javobini toping, fikringizni asoslang. So'zlarni qatnashtirib bog'lanishli matn tuzing.**

*Koning, noning, taronang*
*Kitobing, sening, tuning*
*Qaratqich kelishikning*
*Qo'shimchasi qaysi –ning?*

*Seni, qani ham ya'ni*
*Tuni, meni ham eni*
*Tushum kelishigining*
*Qo'shimchasi qaysi –ni?*

(5-topshiriq namunasidagi grammatik topishmoqlar akademik litsey talabalari uchun mo'ljallangan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligidan olindi.)[1]

7-sinfda o'quvchilar "Morfologiya" bo'limiga oid bilimlar bilan to'liq tanishib chiqadilar. Bu sinf uchun mo'ljallangan topshiriqlarni belgilashda

---

[1]A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili (akademik litsey o'quvchilari uchun darslik, 2-kitob). –T:-Ilm ziyo, 2013. – 301-b.

kelishik, egalik, ko‘plik kategoriyalarining, vazifadosh yordamchi so‘zlarning matnda qo‘llanishiga doir topshiriqlarni bajartirishni maqsad qildik.

***8-sinf uchun mo‘ljallangan topshiriqlar*** asosan kommunikativ-kognitiv kompetensiyalarni shakllantirishga asoslandi:

**1-topshiriq.** So‘zlarning ma’nodoshini toping. Ma’nodoshlik qatorini tashkil etgan so‘zlarni qatnashtirib tuzilgan gaplardan matnda yarating.

* *katta*
* *ko‘p*
* *sabr*
* *vaqt*
* *baraka*
* *baxt*

**2-topshiriq.** O‘zbek xalq maqollarini davom ettiring. Maqollarni sharhlashdagi fikrlaringiz asosida kichik matn yarating.

*Suv ichadigan quduqqa ..........*

*Egilganga egil, boshing yerga tekkuncha.............*

*Birovga choh qazima............*

**3-topshiriq.** *Mayda, aqlli, yuzaki, achchiq, chuchuk, qishki, xushbo‘y, ko‘chma, jahldor, yangi, do‘ppili, devoriy, mevali, tonggi, oilaviy, mazmundor, xayoliy, chiroyli, chillaki, serunum, chaqqon, xushbichim, quyma, aqlli* sifatlarini ko‘chma ma’noda qo‘llab so‘z birikmalari hosil qiling. Ulardan foydalanib, matn yarating.

Masalan: mayda gap, xushbichim yigit, quyma aql…

**4-topshiriq.** Lug‘aviy birliklarning turg‘un birikma va so‘z birikmasi bo‘la oladiganlarini tanlang. Ular ishtirokida gaplar tuzing. Gaplarni bog‘lanishli matnga birlashtiring.

*Boshiga yetmoq, yaxshi ko‘rmoq, ketiga tushmoq, bo‘yniga ilmoq, po‘stagini qoqmoq, oq ko‘ngil, qo‘li ochiq, bo‘yniga qo‘ymoq, dili xira, ko‘nglidan o‘tkazmoq, barmog‘ini tishlamoq, ichi qora, qulog‘iga quymoq, o‘z yog‘iga qovurilmoq, to‘nini teskari kiymoq.*

**5-topshiriq.** Avval bir bosh bo‘lakli gaplarni, so‘ng ikki bosh bo‘lakli gaplarni aniqlang. O‘zaro farqni taqqoslang. Xuddi shunday gaplar ishtirokida matn yarating.

*1.Ahillik bor yerda temir ham suvga cho‘kmaydi. 2.Kampirning ko‘zlari allanechuk olayib ketdi, yuzining suyakka yopishgan chandir terisi oqardi. 3.Bu shaharda tanish-bilish yo‘qligi Mirzayevga shu bugun bilindi. 4.Men sinfga kirgach, deraza oldida turgan Shaxnozani ko‘rdim. 5.Uy ichida odam ko‘p edi. 6.Shodmonbek zarbdan ko‘zi tinib hushdan ketdi. 7.Yig‘lab-yig‘lab marza olsang, o‘ynab-o‘ynab sug‘orasan. 8.U o‘ychan ko‘zlari bilan Botirga qarab sekin gapirdi.*

Xulosa qilib aytganda, grammatik topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilar mustaqil fikr yurita olish layoqatiga ega bo‘ladilar. Bu esa o‘quvchilarni matn yaratish faoliyatiga tayyorlashda o‘ta muhim jihat hisoblanadi.

## 2.2-§.Matn ustida ishlashga qaratilgan grammatik topshiriqlar (kengaytirish, ixchamlash, tahrir qilish, qiyoslash, xulosalash)

Yosh avlodda ijodiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir. O‘quvchining o‘quv materialini o‘zlashtirishi murakkab jarayon bo‘lib, til hodisalarini kuzata olish, izlanish, qiyoslash, umumiylik va alohidalikni aniqlash, farqlarni topish, tasnif etish, hukm chiqarish, qo‘llash bilan bog‘liq. Bu bog‘liqlik, ayniqsa, o‘quvchilar bilan tayyor matnlar ustida ishlash jarayonida yaqqol ko‘zga tashlanadi hamda lingvistik bilimlarini boyitish bilan birga quyidagi nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

kuzatish – berilgan matn asosida o‘rganilgan til hodisalarini tahlil qilish;

izlanish – o‘ylash, xotirada tiklash, so‘rash, lug‘at, qomus, internet manbalaridan foydalanish asosida bilimlarni boyitish;

narsa-hodisa mohiyatini qismlar sharhi orqali yoritish – har bir hodisani alohida-alohida sharhlay olish;

qiyoslash – matndagi hodisalarni o‘zaro taqqoslay bilish;

umumiylikni aniqlash – matndagi hodisalarning o‘xshash va umumiy tomonlarini aniqlash;

farqlarni topish – hodisalarning bir-biridan farqli tomonlarini ajrata bilish;

tasnif etish – matndagi hodisalarni o‘xshashlik va farqlari asosida guruhlarga ajratish;

hukm chiqarish – hodisalar tizimi haqida umumlashma hukm, xulosa, qoida chiqara olish;

alohidalikni aniqlash – o‘rganilgan hodisalarning yondosh voqelik bilan munosabatlarini aniqlash;

qo‘llash – hodisalarni mustaqil ravishda yozma va og‘zaki ko‘rinishda sharhlab, ijodiy matn tuza olish.

O’quvchilarda bu jihatlarni shakllantirishda ijodiy bayonning o‘rni va ahamiyatini ta’kidlash zarur. Negaki, bayonning bu turida o‘quvchi matnga tasvir usullarini qo‘shib yoki lisoniy hamda imloviy topshiriqlar kiritgan yoxud o‘qituvchi boshlab bergan hikoyani davom ettirgan holda bayon yozishi mumkin[1]. Jarayon o‘quvchini matn ustida ishlashga yo‘naltiradi.

Ona tili darslarida o‘quvchilar hikoya matni, tasviriy matn, muhokama matnlari ustida ishlash orqali quyidagi BKMga ega bo‘lishlari ko‘zda tutiladi:

- matn mazmunidan kelib chiqib, unga sarlavha qo‘yish;
- matnni ilmiy mushohada qilib, unda aks ettirilgan g‘oyani qayta bayon qilish;
- matndan ko‘zlangan maqsadni anglash;
- muayyan predmet yoki voqea-hodisalarni ta’riflash va tavsiflashga imkon yaratish;
- matn yuzasidan mulohazaga kirishish;
- mulohazalardan xulosa chiqarish;
- mulohaza hamda xulosalar atrofida bahslashish.

[1]Nurmonov A., Abduraimova M., Yusupova Sh. Bayonlar to‘plami (umumta’lim maktablarining V-IX sinflari uchun).-T:O‘qituvchi, 1997. – 4-b.

Matn ustida ishlash jarayonida muayyan bir matn yuzasidan atroflicha fikr yuritish, matn mazmunini kengaytirish, matndan chiqarilgan xulosani ixchamlashtirish, matnni tahrir qilishga e'tibor qaratiladi. Ma'lumki, til o'ziga xos sistemaga ega bo'lgan ijtimoiy hodisa va til birliklari muayyan sistemada o'zaro birlashib matnni hosil qiladi. A.Mamajonov, M.Abdupattoyevlarning "matn – o'ziga xos murakkab sintaktik strukturaga ega bo'lgan nutqning eng yirik ifodasi" ekanligi[1] haqidagi mulohazalariga tayanadigan bo'lsak, ona tili darslari orqali o'quvchilariga beriladigan BKMlar aynan matn tuzishga yo'naltirilishi kerakligi ayon bo'ladi.

O'quvchilar matnni qayta hikoya qilish, matn mazmuni kengaytirish jarayonida nutq oqimida takrorlanuvchi til birliklarini qo'llab, til va nutqqa oid muammolarga duch keladilar. Bu holatni bartaraf etish uchun o'qituvchi matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning mustaqil tafakkurini rivojlantirish, ularda nutqiy kompetentlilikka erishishga zamin hozirlashi lozim. Zero, "matn ustida ishlash faoliyati faqat darslikda berilganlari bilan chegaralanib qolmasdan, ilmiy va badiiy adabiyot, davriy matbuotdan tanlab olingan matnlar, audio – videolavhalar ustida ishlash ham o'quvchilar uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi tabiiy"[2]. Binobarin, matn mazmunini shakllantirish, uni kengaytirish va takomillashtirish, fikr rivojini anglash matn ustida samarali ishlashga olib keladi.

Jumladan, 5-sinf ona tili darslarida ko'proq tasviriy, bayoniy matnlar ustida ishlanadi. "Mening darsxonam", "Mahallamiz yoshlari", "Mehribon onam" kabi matnlarni yaratish jarayonida ijodiy fikrlash, tasvirni berishda ma'nodosh so'zlardan foydalanishga e'tibor qaratiladi. 6-sinfda muhokama matnini o'rganish yuzasidan **45-mashq**[3] keltirilgan, unda quyidagi topshiriq beriladi. **Matnni o'qing. Kompyuter haqidagi mulohazalardan xulosa chiqarishga harakat qiling. Ana shu mulohaza-xulosalar atrofida bahslashing.**

**Kompyuter**

[1]Mamajonov A., Abdupattoyev M. Matn sintaksisi. – Farg'ona, 2002. – 21–27-b.
[2]Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – 38-b.
[3]Mahmudov N. va b. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Tasvir, 2017. – 17-b.

*Olimlar kompyuterni inson miyasidan andaza olib yaratgan. O'ylaydi. Hisob-kitob qiladi. Muammoni yechadi. Xulosa chiqaradi. Eslab qoladi... Faqat kompyuterning insondan bitta ustunlgi bor: keraksiz axborotni xohlagan paytda xotirasidan o'chirib tashlashi mumkin... Odam esa yomon xotiralarni miyasidan o'chirib tashlolmay aziyat chekadi...(O'.Hoshimov)*

Muhokama matnining xusisiyatlari oʻrganilgach, oʻqituvchi tasviriy, rivoya matnlaridan farqini ta'kidlab oʻtadi. Bu topshiriqni bajarishda oʻquvchilarga yoshlar oʻrtasida keng ommalashgan kompyuter oʻyinlari haqida emas, balki, kompyuterning hayotimizdagi oʻrni, bu kashfiyotning insonga foydali va zararli tomonlari haqida munozarali fikrlar bayoni zarurligi uqtiriladi.

Umuman, ona tili darsliklarida berilgan barcha matnlarni tayyor matn sifatida qabul qilmay, shu matnni yanada kengaytirish, tahrir qilish, qiyoslash, xulosalash kabi yoʻnalishlarda ishlash lozim. Matn ustida ishlashni tashkil etish oʻquvchilarni mustaqil ijodiy fikrlashga, oʻz bogʻlanishli nutqini rivojlantirishga yoʻllaydi.

Muhokama matnlari oʻrtaga tashlangan fikrni asoslash, ishonchli dalillar bilan soʻzlash, oʻz fikrida sobit qolishga oʻrgatadi, lekin oʻquvchilar barcha mavzudagi matnlarda ham birdek bahslasha olmaydilar. Masalan, umumiy oʻrta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligida[1] Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asaridan parcha keltirilgan. Oʻrganilayotgan material asosida tasavvurni hosil qilish uchun asar haqida tayyorlangan videolavha yoki videodarsni oldindan sinf telegramm guruhi yoki kundalik com. platformasiga yuklash lozim. Badiiy adabiyot insonning ruhiy olamini oʻzida namoyon qilar ekan, oʻrganilgan har bir asarning mazmun-mohiyatini anglash, oʻquvchiga yetkazib berish, bilim oluvchining ta'sirchan mulohazalarga undashni faqat oʻqib tushunish bilan amalga oshirib boʻlmaydi. Videolavhalardan foydalanish bu borada eng qulay va samarali yoʻldir. Bu usul mashgʻulot sifatini oshirishga xizmat qiladi, murakkab mavzuni oson tushunishga yoʻl ochadi. Natijada oʻquvchi matn mazmunini kengaytirib ifodalashga muvaffaq boʻladi. Yana bir jihati, ajdodlarimiz

[1]Qodirov M. va b. Umumiy oʻrta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 51-b.

bizga meros qoldirgan beqiyos boylik juda katta imkoniyatlarni o‘z xazinasida asrab kelayotganini, ularni to‘liq ishga solish nafaqat millat tarbiyasiga, balki jahon pedagogika ilmi rivojiga ham o‘z sezilarli ulushini qo‘shishga sabab bo‘layotganini anglab olishlariga zamin hozirlaydi. Dars mashg‘ulotlarini ana shu tarzda tashkil qilish o‘quvchilarning nafaqat matn mazmunini anglashini, balki o‘rganilgan yangi materiallar asosida uni kengaytirib og‘zaki hikoya qilish yoki ijodiy matn yaratishlariga imkon yaratadi.

O‘quvchilar dars mashg‘uloti davomida “Afv – yaxshi xulqning afzali” matni bilan tanishadilar. Mashg’ulot avvalida videolavha haqidagi fikr-mulohazalar so‘raladi, so‘ng matn ma’lumotlari bilan uyg‘unlashtirib, matnni kengaytirib yozish topshiriq qilib beriladi. Topshiriq natijasini quyidagi jadvalda berishni lozim topdik:

2.2-jadval

| **Darslikda keltirilgan matn** | **O‘quvchi tomonidan kengaytirib yaratilgan matn** |
|---|---|
| AFV – YAXSHI XULQNING AFZALI<br>Afv deb kechurmakni aytilur. Bir kishi qilgan kamchiliklarini bo‘yniga olub, o‘kunub, kechurmakni so‘rasa, afv qilmak lozimdur. Chunki afv yaxshi xulqlarning afzali, insoniyatning fazilatidur. Janobi Haq “Qur’oni Karim”da afvni maqtab madh qilmishdur. Oliyjanob kishilar uzrni qabul qilur. Bir kishi qusur va qabohatini bo‘yniga olub uzr aytsa, afv qilur, kechirur. Kattalik va ulug‘likning lazzati | Abdulla Avloniy merosining shoh asari “Turkiy guliston yoxud axloq” bo‘lib, unda inson uchun muhim bolgan jamiyki axloq-odob me’yorlari, ta’lim-tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Asarda insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilm” - axloq haqida fikr yuritiladi. Axloq bu xulqlar majmuyidir. Xulq esa ezgulik yoxud yomonlikning muayyan bir insonda namoyon bo‘lish shakli. Binobarin, har bir xulq ezgulik va olijanoblikning yoki razillik va badbinlikning timsoli. Shu jihatdan ular yaxshi va yomonga bo‘linadi. Lekin bular har bir insonda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, shakllanmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum bir sharoit, tarbiya kerak.<br>Asardagi shunday yaxshi xulqlardan biri sifatida “afv” tilga olinadi. Afv deganda kechirimlilikni tushunamiz. Kimdir qilgan xatolarini tan olib, tavba qilib, uni kechirishlarini |

| | |
|---|---|
| birovdan o‘ch olmakda emas, balki afv qilmakdadur. Masalan, Ahmad Mahmudga bir yomon ish qilub dilini og‘ritdi. Mahmud Ahmaddan o‘chini oldi. Bas, Ahmad ila Mahmudning orasidagi yomonlikdagi farq na o‘ldi? Holbuki, har ikkisi ham bir-biriga yomonlik qildi. Har ikkisi ham g‘amlik va parishon bo‘ldi. Bir yomonlik ikki bo‘ldi. Agarda Ahmadning qabohatiga Mahmud afv mukofotini bersa, ikkisi ham shod-u masrur o‘lur hamda Janobi Haq afv qiluvchilarni suyar. O‘zi ham afv, mag‘firat qiluvchidir. No‘shiravon: ”Bir gunohkorni afv qilmakdan qanday lazzat olganimni hech kimga aytmayman”, — demish. (Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”) | so‘rasa, kechirish lozim. Chunki kechirimlilik insoniyatning eng yaxshi xulqlaridan-da yaxshisi, odamzotga xos fazilatlardandir. Olloh taollo “Qur’oni Karim” da afvni maqtab, uni chiroyli ta’riflaganlar.<br>Oliyjanob inson esa uzrni qabul qiluvchi kishidir. Kimda kim kamchilik va xatosini tan olib kechirim so‘rasa, uni kechirish oliyjanoblik belgisidir. Buyuklik va ulug‘likning aksi birovga qasd qilib o‘ch olishda emas, balki kechirimlilikda yaqqol aks etadi. Masalan, Ahmad ismli kishi Mahmud otli kishiga yomonlik qilib uning qalbini og‘ritib jarohatladi. Mahmud esa Ahmaddan bu qilgan ishi uchun o‘ch oldi. Afsus, bu vaziyatda yomonlik qilgan Ahmad va unga qasd qilgan Mahmud tenglashib qoldi va ular orasida hech qanday farq qolmadi. Vaholanki, har ikkalasi ham bir-birlariga yomonlik qildilar. Har ikkalalari gunohkor bo‘lib, xato qildilar. Natijada bitta yomonlik ikkita bo‘lgani qoldi. Agarda Ahmadning yomonligini Mahmud kechirimlilik bilan mukofotlasa edi, ikkalasi ham xursand va baxtli bo‘lardi. Zeroki, Haq taollo kechiruvchilarni yaxshi ko‘radilar. O‘zlari ham tavba qilganlarni gunohlarini kechirib, himoyaga oluvchidirlar. No‘shiravon: “Bir aybdorni kechirishdan qanday rohatlanganimni hech kimga aytmayman”, - deganlar.<br>Xulosa qilib aytganda, insonlar orasida kimning xulqi go‘zal bo‘lsa, martaba jihatidan eng afzali o‘shadir. Baland martabaga faqat go‘zal xulq bilan yetiladi. Ular orasida ziynatlanib turuvchi kechirimlilik xislati esa hamisha biz insonlarning qadrimizni yanada oshishiga xizmat qiladi. (Navoiy shahar 12-IDUM o‘quvchisi Norquvvatova Odina) |

Ona tili darslarida, matnni kengaytirish jarayoniga oid topshiriqlar o‘quvchilarning matn ustida ishlash, tahrir va tahlil imkoniyatlarini oshiradi. O‘quvchining matn ustida ishlash faoliyatida fikrni izchillikda bayon etish,

kengaytirish, matn tili va uslubini muvofiqlashtirish orqali amalga oshirilsa, oʻquvchi ongida nutqiy kompetensiya shakllanadi hamda bu singari kognitiv va psixolingvistik topshiriqlar soʻz qoʻllash mahorati, vaziyatni boshqara bilishi, ma'naviyati va axloqiy qarashlarini aniqlash va toʻgʻri rivojlantirishga xizmat qiladi: **160-mashq[1]. Matnga tayanib, quyida keltirilgan voqealar rivojining ketma-ketligini raqamlar bilan belgilang.**

*1. Xasis odam o'zidagi bor-budini sotib, quyma oltinga almashtirishga qaror qildi. 2. Bir odam xasisning oltinini o'g'irlab ketdi. 3. Xasis chuqur qazib, unga xazinani yashirdi. 4. Qo'shnisi xasisga quyma oltinning o'rniga tosh tashlashni maslahat berdi.*

***Xasis va uning oltini***

*Xasis bir odam o'zidagi bor-budini sotib, quyma oltin xarid qildi. Eski hovli yo'lagidan yurib bog'ga kirdi, bir qoziq yonida to'xtadi. O'sha yerdan choh qazib, oltinni ko'mib qo'ydi. Har kuni yo'lakka borar va xazinasining butun turganidan xabar olardi. Xasis odamning ishchilaridan biri uning bu yoqqa serqatnov bo'lib qolganini sezib qoldi va sababini bilmoqqa qaror qildi.*

*Tez orada ishchi ko'milgan xazinaning sirini bilib oldi. Yerni kovlab, oltinni o'g'irlab ketdi. Ertasi kuni xasis qozig'i yoniga kelib qarasa, oltin yashirilgan chuqur bo'm-bo'sh. U baqirib, sochlarini yuldi, odamlarni qarg'ay boshladi.*

*Xasisning ahvolini ko'rgan qo'shnisi: "Iltimos, bunchalik qayg'urma. Borgin-da, tosh olib o'sha chuqurga tashla. Oltinning har doimgidek o'sha yerda yotganini tasavvur qil: oltining chuqurda bormi-yo'qmi, undan senga hech bir naf yo'q-ku", – dedi. (Ezop masallaridan)*

Topshiriqni bajarish jarayonida oʻquvchilar matn mazmuniga tayanib uni qismlarga ajratadilar, fikrlar ketma-ketligi asosida raqamlarni almashtirib, kerakli tartibda joylashtiradilar. Matnni qismlarga boʻlib esda saqlash shu asosda fikrni erkin bayon qilishga zamin hozirlaydi. Voqealar bayoni davomida oʻquvchilar fikrlarini asoslaydilar. Biroq "Muhokamat ul-lugʻatayn", "Lison ut-tayr", "Majolis

[1]Mahmudov N. va b. Umumiy oʻrta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent, 2020.-74-bet.

un-nafois" kabi asarlaridan keltirilgan parchalarni dars mashg'ulotlari davomida o'rganish, mumtoz matnning ushbu mazmundor namunalarini tahlil qilish, uning zaminidagi mohiyatni anglash anchayin qiyin kechadi.

"Lison-ut tayr" asaridan berilgan matnlarni o'rgatish jarayonini mukammallashtirish uchun B.Mengliyevning shu asar tahliliga bag'ishlangan maqolasini o'qituvchilarga o'rganish uchun tavsiya qildik.

"Lison ut-tayr"ning "Talab vodiysi" qismidan keltirilgan matnni o'rganish o'quvchi uchun biroz murakkab jarayonni yuzaga keltiradi:

*Har dam anga yuz malomat yuzlanur,*
*Har nafas ming sa'b holat yuzlanur…*
*Ranj-u ko'shish sanchibon jismingga nesh,*
*Dardi noyob aylabon joningni resh*[1]*…*

O'quvchiga matn mohiyatini tushunarli tarzda yetkazish o'qituvchidan mashg'ulot uchun qiziqarli metodlarni tanlashni taqozo etadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'quvchi yoshiga mos tarzda va kerakli o'rinda qo'llash ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Matn ustida ishlash odatda undagi lug'at so'zlarni o'rganishdan boshlanadi. Shu o'rinda ***"SMS-xabarnoma" usuli***dan foydalanish yaxshi natija beradi. Darsda o'rganilishi lozim bo'lgan so'zlar sinf telegramm guruhiga xabarnoma shaklida joylashtiriladi. Bilamizki, telegrammdagi yangilik tez o'rganiladi:




**"2.1-rasm. "SMS-xabarnoma" usuli"**

*malomat – malol kelish, og'rinish*

*afgor – xor bo'lish, yozg'in holatga tushish*

[1]Qodirov M. va b. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 38-b.

*sa'b – qiyin, og'ir*

*mi'od – muddat, ijro vaqti*

*ko'shish – sa'y-harakat*

*nesh – nish, tig'*

*resh – yara, jarohat*

*solik – komillik yo'lidagi kishi*

*takbiri fano – o'tkinchi dunyo uchun haqni ulug'lash*

Usulni qo'llashdan kutilgan natija shuki, o'quvchilarning barchasi yangi so'zlarni o'qiydi, imlosini o'rganadi, keyingi darsda fikrni ifodalash jarayonida bemalol qo'llaydi, xatosiz yozadi. Bu usul ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilsa, yanada ko'proq samara beradi.

Mumtoz matnlarni o'rganish jarayonida ***"FSMU" interfaol usuli*** ham matn ustida ishlash davomida o'rganilganlarni qayta hikoya qilish va asoslash imkonini yaratadi.

***Hikoyat*** [1]

*Bog'bone bor edi bas behunar,*
*Bog'bonliq san'atidin bexabar.*
*Ne shajar payvand qilmoq shevasi,*
*Kim halovat hosil etkay mevasi.*
*Ne yog'och parkovi birla parvarish —*
*Aylab olibkim, shajar qilg'ay ravish.*
*Vaqt ila ne dona sochmog'in bilib,*
*Kim farah qilg'ay guli hosil qilib…*

***Topshiriq.*** "FSMU" usuli asosida "Lison ut-tayr" asaridagi hikoyat mazmuni haqida so'zlang.

F – hikoyatda majoziy tushuncha ifodasi namoyon bo'lmoqda.

[1] Qodirov M. va b. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 100-b.

S – bog‘bon siymosida bugungi kunda bilimsizligi, uquvsizligi natijasida jamiyatga foydasi tegmay, aksincha, ziyon yetkazayotgan insonlar tasviri aks etgan.

M – agar inson bilimni mukammal egallasa, uning orqasidan o‘ziga daromad oladi, xalqqa ham foydasi tegadi. Kishi ilmsiz bo‘lsa, qo‘lidan bir foydali ish kelmaydi, oxiri qilgan xatolari bilan o‘ziga ham, atrofdagilarga ham ziyon yetkazadi.

U – shunday bilim egallashimiz lozimki, kelajakda bilimsizlik hayotimizga daxl qilmasin.

**“FSMU” usuli** pedagogik jarayonda ancha yillardan buyon qo‘llanilib kelinmoqda. Afzalligi shundaki, bu usul yordamida yuzaga chiqqan mushohadalar o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stiradi, erkin fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

T.Ziyodova matnni ixchamlash xususida to‘xtalar ekan, “matn mazmunini o‘zgartirmagan holda matnda mavjud bo‘lgan ortiqchaliklar: shaxs va narsa – buyumning to‘liq tasviri, tarjimayi hol, portret, peyzaj ko‘rinishlari ifodasini maksimal darajada kamaytirish, matnni takrordan tozalash, imloviy, mantiqiy, uslubiy xato so‘z, gap, iboralarni topish, ularni bartaraf etish, sodda gaplarni qo‘shma gaplarga aylantirish, qo‘shma gaplarni so‘z va gap kengaytiruvchilaridan xoli qilib, uyushiq bo‘lakli gaplarga aylantirish, lirik chekinish, badiiy tasvirlarning o‘rinli-o‘rinsizligini aniqlash, matn mazmuniga mos kelmaydigan ma’lumot va kiritmalardan voz kechish yoki ularni kamaytirish, abzaslarni birlashtirish va.h.”[1] nazarda tutadi.

Matn ustida ishlash jarayonida matnni ixchamlash o‘quvchida to‘g‘ri, o‘rinli, ravon gap tuzish, ijodiy fikrlash, yozma nutq kompetensiyalarini mustahkamlashga olib keladi. Darsliklardagi matnlarning deyarli barcha topshiriqlarida shu vazifani kuzatish mumkin: **Topshiriq[2]. Matnni tinglang. Mazmunini uch jumlada bayon qiling.**

---

[1]Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2007. – 43-b.
[2]Mahmudov N. va b. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent, 2020.-80-bet.

### *Saodat kaliti*

*Bir kishi so'radiki: "Ey ustoz! Insonlar bilan muomalada qanday yo'l turganim ma'qul?" Ustoz:*

*–O'g'lim, sen hech tikanli dalada yalangoyoq yurib ko'rganmisan? – debdi.*

*–Ha, yurganman.*

*–Qanday yurgansan?*

*–Ehtiyotkorlik bilan sekin yurganman.*

*–O'g'lim, odamlar bilan ham xuddi shunday ehtiyotkorlik bilan muomalada bo'l, –debdi ustoz.*

*Ahmad, bu hikoyani qulog'ingga quyib ol. Tilini tiygan kishi salomat bo'ladi. Hadislarda: "So'zingga e'tibor ber. O'rni bo'lsa, yaxshi gap gapir, aks holda, sukut ma'qul", – deya marhamat qilingan. (Tohir Malik)*

5-sinf o'quvchilariga bu audiomatn eshittirilgach, o'quvchilar fikrni uch jumlada ifoda etishga kirishishadi. Dialogdagi o'rinlarni gap mazmuniga singdirish biroz qiyinchilik tug'diradi. Bilimdon, zukko o'quvchilar bu vaziyatda topshiriqni a'lo darajada uddalaydilar. Biroz yordam berilgach, qolgan o'quvchilar ham topshiriqni yakunlaydilar.

Matnni ixchamlash matn mazmunini saqlab, uni takrordan tozalash, imloviy, mantiqiy, uslubiy xatoliklarni bartaraf etish, qo'shma gaplarni sodda gapga aylantirishga olib keladi. 8-sinf darsligidagi **126-topshiriq[1] ham matn mazmunini uchta gap bilan ifoda etish**ni taqozo etadi. Bu matn 5-sinf o'quvchilariga mo'ljallangandek oddiy emas. Dastlab matn mazmunini anglash maqsadida lug'at so'zlarning ma'nolarini o'rganishda "Mumtoz va zamonaviy matnlar lug'ati" dan foydalanish tavsiya qilindi[2].

### *SO'Z MAVJLANGANDA*

---

[1]Qodirov M. va b. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 100-b.

[2]Sanoyeva M. Mumtoz va zamonaviy matnlar lug'ati (8-sinf ona tili darsligi misolida). – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2021.- 90-b.

*Xoja Fazlulloh Abullaysiy – Samarqand akobiridindur. Faqih Abullays avlodidandur. Fiqhda ani Abu Hanifayi Soniy derlar erdi va arabiyatda Ibn Hojib kaffasida tutarlar erdi.*

*Sayid Sharifning shogirdi erdi va Sayid oʻz xatlari bila ulumi dars ayturgʻa ijozatnomalar aning uchun bitib erdi. Faqir ikki yil alarning qoshida sabaq oʻqub erdim, ancha iltifotlari bor erdikim, "farzand" der erdilar.*

*Bovujudkim, Samarqandning a'lami ulamosi erdi, she'r va muammogʻa dagʻi moyil erdi.*

*Bu matla' alarningdurkim:*

*Qadi chun sarvi tu jon ast maro, balki ravon,*

*Soʻyam, ey sarv, ravon shavki, fido sozam jon.*

*Xoja Samarqandda Tangri taolo rahmatigʻa bordi va oʻz xonaqohida jaddining gunbazida madfundur. ("Majolis un-nafois")*

Qiyin soʻzlar oʻrganilgach, adabiyot fanidan BKMlar yodga olinadi. Alisher Navoiyning "Majolis-un nafois" tazkirasi, Navoiy Samarqandga borganida Fazululloh Abullaysdan saboq olgani haqidagi ma'lumotlar oʻquvchilarga eslatiladi.

Dars mashgʻulotlarini bu tarzda tashkil qilish matn mazmunini toʻliq anglagan holda fikrni ixcham ifoda etishga yordam beradi.

Oʻquvchini izchil, mantiqiy fikrlashga, oʻzgalar fikrini tinglash va anglashga, fikr mahsulini muayyan uslub va adabiy me'yorlar asosida, toʻgʻri, ravon ifodalashga oʻrgatishda, tilning nutqiy imkoniyatidan foydalanish kompetensiyasini shakllantirishda matnni tahrir qilishning ahamiyati katta. G.Blinovning "Punktuatsion xatolar tavsifi"[1] maqolasida oʻquvchi matn tahriri ustida ishlashni osonlashtirishda samarali foydalanish mumkin boʻlgan tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqolada tavsiya qilinishicha, oʻquvchi avval matnni toʻliq oʻqib chiqishi va matnning mazmunini tushunib olishi lozim. Birinchi oʻqishdanoq tuzatishlar kiritishga shoshilish matn muallifi gʻoyasini anglamasdan amalga

[1]Блинов Г. Классификация пунктуационных ошибок. – Москва: Высшая школа, 1970. – 116 с.

oshirilishi oqibatida xatoliklarga olib kelishi mumkin. Matn turi va mazmuni haqida tasavvurga ega bo‘lingandan keyin, matn lisoniy jihatdan tahrir qilinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu o‘rinda so‘zlarning imlosi, tinish belgilari, uslubiy kamchiliklarni ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Tahririy tuzatishlar jarayonida asosiy matndagi ba’zi o‘rinlar kengaytirilishi, olib tashlanishi, ishlov berilishi, o‘zgartirilishi mumkin. Matnni tahrirlashga yo‘naltirish shu yo‘nalishdagi topshiriqlarni bajarishdan boshlanadi. Masalan, 8-sinf darsligining **69-topshirig**‘i[1]ni ko‘rib chiqamiz. **Gaplardagi mantiqiy (noto‘g‘ri qo‘llangan) va uslubiy (noo‘rin qo‘llangan) xatoliklarni toping hamda tuzatib ko‘chiring.** Ushbu topshiriqni bajarish uchun quyidagi namuna ham berilgan: *Bejizga bu yerga kelmagan – Bejiz bu yerga kelmagan. 1. Olib kelingan kitoblar o‘n beshtadan ko‘proq edi. 2. Bir masalada ikkalasi talashib qolishdi. 3. Bog‘imizdagi keksa nokni kesishga majbur bo‘ldik. 4. Qoidani buzish ta’qib qilinadi.*

Ona tili ta’limida asosiy e’tibor o’quvchilar yaratgan matnlarda kuzatiladigan imloviy, punktuatsion, uslubiy xatolarni tahrir qilishga qaratiladi. Mumtoz matnlarni o‘rganishda o‘quvchi bugungi me’yordan farqlanuvchi so‘z va qo‘shimchalarni ham tahrirlaydi: **71-topshiriq[2]. Matnni diqqat bilan o‘qing. Talaffuzi va yozilishi bugungi me’yordan farqlanuvchi so‘z va qo‘shimchalarni belgilang.**

***SO‘Z CHAMANIDA ZAMONA VA TAVORIX***

*Darbozasi sharqi janubiyga qaratib qurilg‘an bu dongdor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to‘la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo‘shab hujralariga qaytqanlar, ko‘b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg‘ul, shuning uchun kunduzgiga qarag‘anda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so‘zlashishlari, xoxolab kulishishlari saroyni ko‘kka ko‘targudek…*

[1]Qodirov M. va b. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 57-b.

[2]Qodirov M. va b. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 57-b.

**1-topshiriq.** Matndagi talaffuzi va yozilishi bugungi me’yordan farqlanuvchi so‘zlanni bugungi holatiga qiyoslab yozing. Masalan: *darboza-darvoza, Toshkand-Toshkent, ko‘b-ko‘p…*

**2-topshiriq.** Talaffuzi va yozilishi bugungi me’yordan farqlanuvchi qo‘shimchalarni yozing. Masalan: *qurilg‘an-qurilgan, qaytqanlar-qaytganlar, boshqalarg‘a-boshqalarga…*

Matnni qiyoslash orqali muayyan bir matn boshqa variantlari bilan qiyoslanadi va lisoniy farqlarning mohiyati matn g‘oyasiga bog‘lab yoritiladi. Matnni qiyoslash natijasida o‘quvchilar adabiy talaffuz me’yorlariga o‘rgatiladi, imlo savodxonligini oshirish maqsadida ular zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar silsilasi bilan qurollantiriladi, so‘z zahirasi oshiriladi, so‘zdan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanish malakalari shakllantiriladi, fikrni og‘zaki va yozma shakllarda bayon qilish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy ma’lumotlar berib boriladi, o‘quvchilarda turli lug‘at va ma’lumotlar bilan ishlash malakalari rivojlantiriladi.

8-sing o‘quvchilari Alisher Navoiy haqida berilgan ikki matnni qiyoslash orqali ma’lumotnoma matni va ijodiy-tavsifiy matn haqida bilimlarini mustahkamlaydi. Ikkala matnni qiyoslash, shakl va mazmundagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, har bir matn talabiga mos so‘zlarni o‘rganish natijasida o‘quvchilarning “Mening qahramonim”, “Mening sevimli mashg‘ulotim”, “Qadimiy shaharlar”, “Unitilmas voqea”, “Yil fasllari” mavzularida xuddi shunday qiyosiy matnlar yaratish kompetensiyalari shakllantiriladi.

Matnni xulosalash murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammoli xarakterdagi matnni o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. Matnni xulosalashda mavzu doirasida o‘quvchilarning fikrlari muhokama etiladi. Masalan, matnda aks etgan muammoning ijobiy va salbiy tomonlari, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu jarayon tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga

imkoniyat yaratadi: **121-topshiriq[1]. Matndan olgan xulosangizni 2-3 jumlada yozma ifodalang.**

***TULKI VA DARAXT KESUVCHI***

*Ovchilar ta'qibidan qochib kelayotgan Tulki o'rmonda bir daraxt kesuvchiga ro'para keladi va unga: "Meni yashir", – deb iltijo qiladi. Daraxt kesuvchi unga: "Bor, kulbamga kirib berkina qol", – deydi. Birozdan so'ng bu yerga ovchilar yetib kelishadi va daraxt kesuvchidan: "Ko'rmadingmi, shu yerdan bir Tulki yugurib o'tmadimi?" – deb so'raydilar. Daraxt kesuvchi baland ovoz bilan: "Ko'rmadim", – deb aytadi, ammo ayni paytda Tulkining qayerga berkinganini qo'li bilan ko'rsata boshlaydi. Lekin ovchilar uning ishorasini tushunishmaydi, qisqasi, ovchilar uning gapiga ishonishib, jo'nab ketishadi. Nihoyat, Tulki ovchilarning ot choptirib ketishganini eshitib kulbadan chiqadi va churq etmay keta boshlaydi. Bu holni ko'rgan daraxt kesuvchi unga: "Hoy, noshukur jonzot, axir, men seni o'limdan qutqarib qoldim-ku! Sen bo'lsang menga rahmat ham aytmay, juftakni rostlab qolyapsan-a?" – deb malomat qiladi. Unga javoban Tulki deydi: "Agar aytgan so'zing bilan imo-ishorang bir-biriga mos bo'lganida rahmat aytardim". ("Ezop masallari", 86-bet)*

Ushbu topshiriqni bajarish davomida **"Fikrlar savati"** metodidan foydalanish yaxshi samara beradi hamda o'quvchilar tafakkurini, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, ularning bilimini mustahkamlaydi, takomillashtiradi.

"Fikrlar savati" o'z mazmunida o'quvchilarning "qiziqish doirasini" belgilaydi. Dars davomida ular berilgan matnni qarashlari asosida muhokama qiladilar va tahlilga tortadilar.

O'quvchilarning yozgan fikr-xulosalari:

1.Daraxt kesuvchi timsolida ikkiyuzlamachi inson qiyofasi berilgan. Do'stini sotib ketishga ham tayyor insonlar ko'p. Haqiqiy do'st topish qiyin.

2.Haqiqiy insonning ishi va so'zi bir bo'ladi. Insonlarga qo'ldan kelgancha yaxshilik qilish kerak. Yaxshilik insonni ulug'laydi.

---

[1] Qodirov M. va b. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 86-b.

3.Ikkiyuzlamachilik eng yomon odat. Bunday illatli insonlarning do‘sti bo‘lmaydi. Odati fosh bo‘lgach, hamma undan yuz o‘giradi.

4.Biz iymonli, insofli, diyonatli inson bo‘lishimiz lozim. Shundagina so‘zimiz va amalimizni bir tutamiz. Riyokorlik umuman bizga yaqin yo‘lamaydi.

Fikrlar o‘rganiladi, eng yaxshi deb topilgan *to‘rtinchi fikr* “savat”ga tashlanadi. Bu xulosalarni yozib, jamlab borish ijodiy izlanishlarga zamin yaratadi.

Matnni xulosalashda bashoratlash va baholash kabi fikrlar umumlashtirilgan holda o‘quvchilarni ijodiy yondashuvchi ishtirokchilarga aylantiradi. Bu orqali faollikka, erkin va mustaqil fikr yuritishga erishiladi. O‘quvchilar o‘qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar matn asosidagi g‘oyani ilmiy izlanish, uni asoslash, fikrni erkin va ravon ifodalash ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Mumtoz matn namunalarini anglash jarayonida o‘qituvchi shu darajada mahorat bilan ishlashi kerakki, o‘quvchilarning asarga bo‘lgan mehri oshsin. Ma’naviyatimiz durdonalarini o‘rganish hayotimizda uchraydigan har qanday muammoga yechim bo‘lib xizmat qilishini anglab yetsin. Bu jarayonda qissadan hissa chiqarish avval o‘quvchilar zimmasiga yuklanadi. So‘ng o‘qituvchi ularni jamlaydi, boyitadi. Agar hikoyat asosida adabiy-ijodiy esse yozish topshirilsa, o‘quvchilar buni a’lo darajada bajaradilar.

Bugungi kun ona tili ta’limida asosiy e’tibor o‘quvchilarda matn ustida ishlash orqali nutqiy ko‘nikmalarni egallashga qaratilgani bois, ona tili darsliklarida matndagi axborot, unda aks etgan g‘oyani test topshiriqlari shaklida bajarish matn mazmunini tez va oson o‘zlashtirishga imkon yaratadi.

Matn ustida ishlashning bu yangi yo‘nalishini takomillashtirish, o‘quvchilarni PISA xalqaro baholash tizimiga tayyorlash maqsadida 8-sinf darsligida berilgan matnlar asosida nutqiy va grammatik ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan test namunalari tavsiya qilindi. Masalan:

**FIL HIKOYATI**

*Filni bir xonaga qamab, umrida ko‘rmagan kishilarga ko‘rsatishdi. Xona qop-qorong‘i bo‘lib, nafas olishidan u yerda bir maxluq borligi zo‘rg‘a bilinar edi.*

*Kishilar avval filni paypaslab ko'rishdi va so'ngra o'z tasavvurlarini bayon qilishdi.*

*Xartumini ushlagani filni yo'g'on arqonga, qulog'ini ushlagani yelpig'ichga, oyoqlarini ushlagani ustunga, qornini ushlagani qoyaga o'xshatdi.*

*Shunday qilib, har bir kishi filni o'zi paypaslagan narsasidek tasavvur qildi*[1]*.(Sharq hikoyasi)*

**Matn yuzasidan test savollari:**

1.Xartumini ushlagani filni yo'g'on arqonga, qulog'ini ushlagani yelpig'ichga, oyoqlarini ushlagani ustunga, qornini ushlagani qoyaga o'xshatdi. Gapdagi o'xshatilgan birliklarni aniqlang va ularning ma'nolariga muqobil so'zlarni toping. 1) arqon, 2) yelpig'ich, 3)ustun, 4) qoya;

a) tog' jinslarining ochilib, yer yuziga chiqib qolishidan hosil bo'ladigan cho'qqi;

b) yelpib-yelpinish uchun ishlangan yarim doira yoki doira shaklidagi buyum;

c) bog'lash uchun ishlatiladigan buyum, arg'amchi;

d) binoning tayanch qismi.

A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d B) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a

C)1-c, 2-b, 3-d, 4-a D) 1-d, 2-a, 3-b, 4-c.

2.Matn mazmuniga mos maqolni toping.

A)Ko'rpangga qarab oyoq uzat.

B)Har kim dunyoni o'z qarichi bilan o'lchaydi.

C) Burgaga achchiq qilib, ko'rpani kuydirma.

D)Sanamay sakkiz dema.

3.Shunday qilib, har bir kishi filni o'zi paypaslagan narsasidek tasavvur qildi. Gapda ishtirok etgan fe'lning vazifa shakllarini toping.

A) sof fe'l, sifatdosh, ravishdosh B) sof fe'l, sifatdosh

C) ravishdosh, harakat nomi D) sof fe'l, harakat nomi

4.Matndan keltirilgan noto'g'ri ma'lumotni aniqlang,

[1]Qodirov M. va b. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 13-b.

A) Bir maxluq borligi zo‘rg‘a bilinardi.

B) O‘z tasavvurlarini bayon etdilar.

C) Oyoqlarini ushlagan ustunga o‘xshatdi.

D) Sherni bir xonaga qamadilar.

5.Matndagi asosiy g‘oyani 3 ta gap (20-25 so‘z) bilan yozing.

Keyingi yillarda umumiy o‘rta ta’lim bitiruvchilarning oliy ta’limga qabul qilish imtihonlarida ham matn tahliliga asoslangan test savollari kiritildi. Bu o‘quvchilarda matn ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish topshiriqlarni bajarish jarayonida til imkoniyatlaridan foydalanishning turli usul va vositalari bilan tanishish, o‘zi tuzadigan jumla uchun eng ma’qul, nutqiy vaziyatga mos, zarur so‘zni tanlash, shu so‘zning lug‘aviy ma’no guruhlari ustida ishlash, uning boshqa so‘zlar bilan birikish qobiliyatini aniqlash, so‘z birikmalari hosil qilish orqali esa lisoniy sintaktik qoliplar haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lish, erkin mushohada qilish, fikrni asoslash, qissadan hissa chiqarishni o‘rgatish bugungi kunda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega ekanligining isbotidir.

## 2.3-§.Matnni yaratishga yo‘naltirilgan tizimli grammatik topshiriqlar

Jamiyatni demokratlashtirish, iqtisodiyotni liberallashtirish, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar izchilligi hamda samaradorligini ta’minlashda yuksak salohiyatli, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, zamonaviy ta’limda o‘quvchi, o‘qituvchi, me’yoriy hujjatlar, o‘qitishning texnik vositalari, usul va uslublar muhim o‘rin egallaydi. Bu jihatlarning har biri dars jarayonida alohida ahamiyatga ega[1].

Bugungi kun ta’lim oluvchisi pedagogdan bilim, ma’rifat, tarbiya bilan bir qatorda psixologik yondashuvni talab qiladi. Aytilganidek, oddiy o‘qituvchi

[1]Qarang: Ziyomuhammedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya-zamonaviy o‘zbek modeli. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Lider Press, 2009. – 42-43-b.

gapiradi, yaxshi o‘qituvchi ko‘rsatadi, juda yaxshi o‘qituvchi yo‘naltiradi yoki ishonch (motivatsiya) beradi. Psixologik yondashuv:

- ota-ona va bola yashagan muhitni taqqoslash;
- fanga oid bilimlarni egallashda mustaqillik, murakkablik va kuchni birlashtirish;
- o‘quvchini muvaffaqiyatli bo‘lishiga ko‘maklashish;
- motivatsiya beruvchi buyuklar fikrini kun hikmati sifatida qo‘llash;
- zafar quchgan tengdoshlari haqidagi yangiliklardan xabardor qilish;
- iste’dodi bilan dunyoni lol qoldirayotgan imkoniyati cheklangan insonlar hayotiga oid videolavha namoyish qilish asosida amalga oshiriladi.

Bu jarayonda o‘quvchilarning hayotiy qarashlari jonlanadi, ular o‘z munosabatini erkin ifodalashadi, ochiq bayon etishadi. Bir mavzu doirasidagi fikrlar jamlanganda yaxlit og‘zaki matn yuzaga keladi. Ko‘rinadiki, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodkorligini shakllantirish har bir murabbiyning, har bir o‘qituvchining asosiy vazifasidir. Asosiysi, ularda mahoratni, ijodkorlikni shakllantirish texnologiyasini tashkil etish ta’lim jarayonining asosiy prinsipiga aylanishi lozimdir.

Olima Q.Husanboyeva “Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari” ilmiy tadqiqotida ta’lim mazmunini namoyon etuvchi jarayonlarga dars, darsliklar hamda o‘qituvchi rolini ta’kidlaydi[1]. Ta’lim mazmuni hamda ta’lim usuliga bu kabi yondashuv, ayniqsa, o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishda juda qo‘l keladi.

Nutqiy ko‘nikmalarni o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash jarayonida amalga oshirish mumkin. Bunda o‘quvchi shaxsining ijtimoiylik, hamkorlik qilish qobiliyati va ijtimoiy nutqning o‘zaro ta’siri, nutq madaniyatini bilish, tilni qo‘llashning turli sohalarida og‘zaki va yozma nutq kabi xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ona tili ta’limida matnni o‘qitishda

---

[1]Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning ilmiy-metodik asoslari: ped. fan. dok-ri diss. – Toshkent: TDPU, 2006. – 262 b.

umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilari o‘rtasida lingvistik, nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish yo‘nalishi oldingi o‘ringa qo‘yiladi.

Nutqiy kompetensiya samaradorligini oshirishda matn yaratish orqali yozma nutq malakalarini shakllantirish uchun quyidagi shart-sharoitlarga ega bo‘lish kerakligi tavsiya qilinadi:

- o‘quvchilarni mustaqil ishlash va fikrlashga tayyorlash;
- egallagan bilimlar asosida kasbiy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish;
- lug‘atlar, jadvallar, diagrammalar va ma’lumotlarning mavjudligi, ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lish;
- yozma nutq ko‘nikmalarining shakllanganligini muntazam nazorat qilib boruvchi axborot tizimini yaratish.

O‘quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda nazorat ishlari har qanday ta’lim turining ajralmas qismi hisoblanib, uning eng asosiy vazifalari sifatida nazariy materiallarni sifatli o‘rganish, mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, bilimlarni ehtiyojga asosan doimiy ravishda to‘ldirish va yangilash, mustaqil ishlash qoidalari va metodlarini o‘zlashtirish tushuniladi.

Matnning asosiy vazifalariga: bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, ijodiy iqtidorni rivojlantirib borish ko‘nikma hosil qilish usullarini egallash, tushunish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil xulosalar chiqarish tajribasini shakllantirish va hokazolar kiradi. Matn yaratish o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Matnlar maqsadi, vazifasi, murakkablik darajasi, kimga (individual yoki jamoa uchun) mo‘ljallanganligiga qarab, bir-biridan farq qiladi. Matn yaratish jarayonida tanlangan mavzularning ilmiyligi, tizimliligi, o‘quv materiallarining qiziqarliligi, amaliyot bilan bog‘liqligi, fanlararo aloqadorligi, shuningdek, beriladigan matnlar va topshiriqlarning ijodiy xarakterga egaligi muhimdir. Mustaqil o‘rganilayotgan mavzuning amaliyot bilan uzviyligi, ilmiyligi va o‘quv

materiallarining qiziqarliligi, mavzularning tizimliligi, topshiriq hamda vazifalarning koʻp qirraliligi, oʻzaro bogʻliqligi muhim oʻrin tutadi.

Ammo, eng asosiysi, oʻquvchilarning matn yaratish faoliyatini tashkil etish boʻlib, bunda ularning intilish va qiziqishlariga alohida e'tibor qaratish zarur. Insoniyat oʻz tarixiy taraqqiyoti davomida toʻplagan ijtimoiy tajribalarining muayyan qismini mustaqil oʻquv faoliyati asosidagina egallab olishi mumkin. Yaxshi tayyorgarlikka ega boʻlgan iqtidorli oʻquvchilar ijodiy va izlanish xususiyatiga ega boʻlgan matnlarni qiynalmay yaratadilar. Tayyorgarligi lozim darajada boʻlmagan oʻquvchilarning matnlari soddaroq mazmun kasb etadi, biroq, shunga qaramay, bu jihat ularda matn yaratish koʻnikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Har bir oʻquvchiga matnni yaratish boʻyicha topshiriqlar berilganda ularning yosh pedagogik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Masalan, 8-sinf ona tili darsligida "Ota-ona hurmati – muqaddas burch" mavzusida matn yaratish topshirilgan[1]. Sarlavhada eng muhim narsa, oʻquvchi ongini boshqaruvchi bir soʻz birikmasi bor. Bu "muqaddas burch" birikmasidir. U yaratilayotgan matndagi asosiy yoʻnalishni koʻrsatib turibdi. Sarlavhadan koʻrinadiki, oʻquvchi har qanday hurmat-e'tibor xususida emas, balki oʻzining ota-onasi oldidagi hurmati haqida yozishi zarur. Mazkur mavzu yuzasidan ota-onaga hurmat, ularni qadrlash borasidagi munosabat aks etgan badiiy-tasviriy, ijodiy matnlar tuzish nihoyatda foydali. Tasvirlanayotgan mashgʻulotning birinchi navbatda didaktik ruhda ekanligi, qiziqarliligi, inson uchun foydali ekaniga oʻzgalarni ishontirish uchun oʻquvchi hodisalarni sharhlashga, izohlashga, turli xildagi ibratli hikoyat va rivoyatlar, maqol va hadis namunalaridan aniq fakt va dalillar keltirishga harakat qiladi. Bu esa oʻz navbatida matnni yanada jonli chiqishiga xizmat qiladi.

Darslikning **29-topshirigʻi**[2]dagi ogʻzaki nutq tanlovi uchun berilgan "Izzat qilsang, hurmat koʻrasan", "Mehr – gul, qahr – tikan", "Mehr xazinasi – til",

---

[1]Qodirov M. va b. Umumiy oʻrta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 8-b.

[2]Qodirov M. va b. Umumiy oʻrta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Choʻlpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 40-b.

“Meniki-seniki – ko‘ngil torligi”, “Ustoz mehri – ota mehri” mavzusidagi matnlarni yaratishda ham, **48-topshiriq**[1]dagi **“**Vaqt – omad”, “Inson umri – daryo suvi”, “Qolgan ishga qor yog‘ar”, “Ertalabgi vaqt – naqdgina baxt” mavzularidan birida insho matni yozishda ham ana shu jihatlarga e’tibor qaratiladi.

O‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatishda quyidagi metodik tavsiyalarni e’tiborga olmoq lozim:

- matn yaratishda o‘quvchilarning yosh psixologiyasi, nutqiy qobiliyati hamda imkoniyatlarini hisobga olish;

- matn yaratish jarayonida ona tilini boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish tamoyiliga asoslanish;

- til hodisalarini qiyoslash, farqlash, tanlash, guruhlash, analiz va sintez qilish;

- matn yaratishda o‘quvchi sezgirligini oshiruvchi savollar bilan murojaat etish;

- og‘zaki va yozma nutqni ilmiylik va tushunarlilik, uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida rivojlantirish;

- darslikka qo‘shimcha sifatida nutq o‘stirish mashqlari, muammoli o‘quv topshiriqlari, psixolingvistik testlar, mavzu asosida nazorat savollari tuzish mashqlarini kiritish va ularni uzluksiz takomillashtirib borish.

Shu nuqtayi nazardan, 5–6-sinf o‘quvchilariga quyidagi grammatik topshiriqlar asosida matn yaratish tavsiya etildi:

**1-topshiriq: “Tabriknoma yozish”.** Tayanch so‘zlar: *hurmatli, muhtaram, bebaho o‘gitlar, mehr-oqibat, chin dildan, hayot yo‘lingiz.*

**2-topshiriq. Matnda aks etgan chehralar mazmuniga mos so‘zlarni qo‘yib, matnni to‘ldiring. Ijodiy fikrlar bilan davom ettiring.**

*Bugun rosa* 😋 *bo‘ldim. Bilasizmi, oyijonim kasalxonadan chiqdilar. Ularni judayam* 😌*. Toblari qochganda xafa bo‘lib, yashirincha* 😥*. Hammasi yaxshilik*

---

[1] Qodirov M. va b. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 48-b.

*bilan tugaganidan . Endi yana hammasi  bo'ladi. Xonadonimiz farishtasi uyga qaytdilar.  jamuljamligi qanday yaxshi-a.*

**3-topshiriq. Gul so'zi ishtirokida matn tuzing.**

**Gullar suhbati (o'quvchi tuzgan matn namunasi)**

*Katta bog'ning ko'rki bo'lgan atirgul bir kuni qashqargul bilan suhbat quribdi. Atirgul o'zini malika hisoblab, qashqargulga maqtanibdi:*

*-Bu maskanda mendan chiroyli gulni topa olmaysan. Meni yana xushbo'y tarovatim ham bor. Bulbul menga qarab kuylaydi. Mening jamolimni qizlar oraziga qiyoslashadi.*

*Qashqargul uning so'zlarini sabr bilan tinglab o'tiribdi. Uning sukut saqlaganidan atirgul g'ururlanib ketibdi.*

*Birdan havoning avzoyi buzilib, bog'da kuchli shamol qo'zg'alibdi. O'zini ko'z-ko'z qilgan atirgul barglarini to'rt tomonga uchirib, chang-to'zonga qorishtiribdi. Bir lahzalik shamolga bardosh berolmagan maqtanchoq atirgulning holiga qoqigul achinibdi. (Sahatqulova E'zoza, 12-IDUM, 6-sinf o'quvchisi)*

**4-topshiriq. Rasm asosida matn yarating.**




Bu topshiriqni bajarish uchun har bir rasmga mos dastlab so'z topiladi, u so'z birikmasiga aylantiriladi. So'z birikmasidan gap hosil qilinadi, gaplarni matnda o'rni bilan joylashtirish ustida ishlanadi.

7-8-sinf o'quvchilariga mustaqil matn yaratish mazmuni, uslublari va shakllarini quyidagi jihatlar orqali shakllantirish tavsiya qilindi:

- yaratilayotgan matnning aniq maqsadini aniqlash;

- matnni mustaqil tanlash va asoslash;
- matnning aniq rejasi va dasturini ishlab chiqish;
- o‘zini-o‘zi nazorat qilishning shakllari va muddatlarini aniqlash;
- bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish;
- fikrlarni umumlashtirish va xulosalash.

O‘quvchining matn yaratishi uning mustaqil fikr yurita olish layoqati bilan bog‘liq. Mustaqil fikr yuritish layoqati esa, eng avvalo, o‘z mulohazalari, ishonchi va baholash layoqati bilan shakllantiriladi. O‘quvchilarda matn yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish barobarida tanqidiy fikrlash layoqatini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday xususiyatga ega o‘quvchi, odatda, qat’iyatliligi, o‘z faoliyatini aniq rejalashtirishi va yo‘l qo‘ygan xatolarini tahlil qilish va tuzatishga tayyorligi, vaziyatni to‘g‘ri baholay olishi hamda maqsadga erishmaguncha orqaga chekinmaslik fazilatlari bilan ajralib turadi. Bunda o‘z xatti-harakatini baholash, intellektual usullar va strategiyalarni tushunib qo‘llash, o‘zining bilim olish faoliyatidagi kamchiliklarini va ularning sabablarini tahlil qilish va erishgan yutuqlarini baholash hamda murosa yo‘llarini izlash kabi fazilatlar zarur. Masalan, *“Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la, Bezamoq onidir umr daftarin…”* mavzusida o‘quvchilarga matn yaratish topshirig‘i berilsa, o‘quvchilar she’riy misradagi hikmatni matndan sharhlay olishlari lozim bo‘ladi.

**Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la, Bezamoq onidir umr daftarin…**

(o‘quvchi yaratgan matndan namuna)

*Shoirning bu she’rini “Lahzaga qo‘yilgan haykal”, - desak mubolag‘a bo‘lmas. Hayotning abadiy qonuniyatlarini anglagan, his qilgan odam uchun behuda lahzaning o‘zi yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas. Zero, inson necha yil umr ko‘rishidan qat’iy nazar bu umrning asosini mana shu onlar tashkil qiladi.*

*Berilgan fursatdan unumli foydalanish har birimizning o‘z qo‘limizda. Shunday ekan, vaqtimizni bekorga sarflamasdan ilm pillapoyadan ildamlamog‘imiz zarur. Lozim bo‘lganda o‘qib-o‘rganmog‘imiz darkor. (Eshmirzayeva Ruxshona, Uchquduq tumani 10-maktab, 8-sinf o‘quvchisi)*

Mazkur metodik tavsiyada o‘quvchilar bir paytning o‘zida o‘qish, yozish, sharhlay olish va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, tanlangan matn ham o‘quvchilarning dunyoqarashini tafakkurini o‘stiradi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgani uchun o‘quvchi xotirasida saqlanib qoladi, so‘z boyligining oshishiga olib keladi.

Ona tilini boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganish tamoyiliga asoslangan holda matn yaratishda o‘quvchilarning filologiya fanlari, ijtimoiy, aniq, tabiiy, iqtisodiy hamda amaliy o‘quv fanlaridan olingan bilimlari namoyon bo‘ladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun mo‘ljallangan ona tili darsligining yangi nashri[1]da “Tabiat va biz”, “O‘zbekni mashhur qilgan “Allapinin”, “Ulkan portlash”, “Qutb yulduzi”, “Telefonda gaplashish madaniyati”, “Alp Er To‘nga”, “Ko‘priklar”, “Konstitutsiya nima?”, “Baliqlarda aql bormi?”, “Algoritm asoschisi”, “Qadimiy shaharlar” kabi tarix, matematika, tibbiyot, geografiya kabi fanlarga oid matnlar kiritilgan. Bu milliy dasturning nutqiy faoliyat turlarini (tinglash, o‘qish, so‘zlash, yozish) yaxlit o‘zlashtirish, muloqotning barcha sohalarida nutq malakalaridan to‘g‘ri foydalanishni bilishga asoslangan talablarning yuzaga chiqishi uchun ilk qadam desak, yanglishmaymiz.

2022-2023-o‘quv yilida 6-, 7-sinflar uchun Milliy o‘quv dasturi asosidagi yangi darsliklar asosida ona tilini o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturida til ta’limida integrativ yondashuv asosiy planga chiqarilgan. Bu Milliy o‘quv dasturida: “Fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘rganish, u yoki bu fan bo‘yicha o‘rganilayotgan voqea-hodisa haqida o‘quvchida jonli mushohada qilish malakasini o‘stiradi. Bu bilan o‘quvchi voqea-hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi[2]”, – deya ta’kidlanadi. Dasturda “Men, sen, u va ular”, “Tabiat ne’matlari”, “Sog‘ tanda – sog‘lom aql”, “Kasbim – faxrim”, “ Yosh iqtisodchi”, ”Fan va texnologiyalar”, “Til va dil”, “Tarix xazinalari”, “San’at va madaniyat”, “Huquqimiz – haqimiz” kabi boblarda berilgan matnlarni o‘rganish samaradorligini oshirish uchun matn asosida tuzilgan test savollari, muhokama

[1] Mahmudov N. va b. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun ona tili darsligi. – Toshkent, 2020. - 198 b.
[2]Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Ona tili (1-11-sinflar). – Toshkent, 2020. - 15-b.

mavzulari, loyiha ishlari keltirilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad nutqiy kompitentlikni rivojlantirish bo‘lib, o‘quvchilarni PISA, PIRLS kabi xalqaro baholash tizimlariga tayyorlaydi.

E’tiborli jihati shundaki, fanlararo integratsiya faqat ona tili darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lash emas, boshqa fanlarni ona tili bilan bog‘lab o‘rganish jarayonida ham kuzatiladi. Milliy o‘quv dasturi asosida tuzilgan 6-sinf tabiiy fanlar darsligi[1]dagi mavzularda ko‘proq “Muhokama qiling” topshirig‘iga guvoh bo‘lamiz. Masalan, “Hayvonot dunyosi” mavzusida “Ko‘pchilik hayvonlar harakat organlariga ega. Hayvonlarning qanday harakat organlarini bilasiz? Hayvonlar qanday maqsadlarda harakatlanadi?” savollari muhokamaga qo‘yilgan. O‘quvchilar olingan bilimlar asosida hayotda yoki televizorda o‘zlari ko‘rgan hayvonlari, ularning harakatlanishida ishtirok etadigan organlar, bu organlarning o‘ziga xos jihatlari va afzalliklari haqida so‘zlaydilar. Bu og‘zaki nutq mahsuli bo‘lib, ona tili o‘qitishdagi gapda so‘z tartibiga amal qilish, rivoya matni, tasviriy matn tuzish ko‘nikmalarining shakllanganligini isbotlaydi. Xuddi shu jihatlar aniq axborotlar tahliliga tayanib yozilsa, o‘z-o‘zidan kichik ilmiy matn yaratiladi.

Mazkur metodik tavsiya har bir o‘quvchida nutqiy ko‘nikmalarni tizimli rivojlantirishga sharoit yaratib beradi. Ayniqsa, tanlangan matnning global muammolarga daxldorligi, shuningdek, undagi ma’lumotlarning o‘quvchi tafakkuriga ta’sir etishi, hayvonlarni asrash, jonivorlarga yaxshi munosabatda bo‘lishiga o‘rgatishga bo‘lgan mas’uliyat ham oshib boradi.

Fanlararo integratsiya natijasida yaratilgan matnlarda o‘quvchilarning barcha fanlardan olgan nazariy bilimlari, ilmiy va ijodiy mushohadalari aks etadi. Masalan:**Topshiriq. Huquqiy atamalardan foydalangan holda “Konstitutsiya – qonunlar asosi” mavzusida matn yarating.**

***Konstitutsiya – qonunlar asosi***

*Faxr va g‘urur bilan aytish mumkinki, yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlar bevosita qonun ustivorligi tamoyiliga asoslangan. Jamiyatda tenglik va*

[1]Tabiiy fanlar. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Tuzuvchilar: Suyarov K.T., Sangirova B.Z., Umaraliyeva T.M. va b. Toshkent respublika ta’lim markazi, 2022. – 40-b.

*adolatga yo‘l ochildi. Qonun xalq hokimiyatini amalga oshirish, jamiyatni boshqarish, davlat va fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish vositasidir. Demak, huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, qalqoni ham, ko‘zi ham qonundir.*

*Yoshlarning huquqiy ongini o‘stirish, huquqiy madaniyatini shakllantirish va ularni qonunga hurmat-e’tibor ruhida kamol toptirish orqali bunday yuksak, ezgu maqsadlarga erishish mumkin. Mamlamlakatimizning huquqiy-demokratik davlat qurish sari dadil harakatlarni qonun chiqaruvchi organ (parlament) faoliyatini takomillashtirish maqsadida olib borilayotgan islohatlar timsolida ko‘rish mumkin. Davlatimizda qonunchilik palatasi(quyi palata) va senat (yuqori palata)dan iborat yangi tizim bunyodga keldi. Kezi kelganda shuni aytish joizki, qonunlarni tayyorlashda ko‘p asrlik milliy huquqiy meros va qadriyatlarimizga tayangan holda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan qoidalari barobarida rivojlangan demokratik davlatlarning huquqiy tajribalarini atroflicha o‘rganish hisobga olingan.*

*Hayotda farovonlik, erkinlik kabi tushunchalar bor. Qabul qilingan qonunlarning eng oliy maqsadi jamiyatda turmush farovonligini, fuqarolarning erkinliklarini ta’minlashga qaratilgan qonunlarni tayyorlash jarayonida chet el tajribalarini o‘rgangan holda haqiqiy sharqona, o‘zbekona yaratuvchanlik yo‘li shakllanganligini faxr bilan gapirsak arziydi. (Shaxriyorova Shaxina, 11-AFChO‘IM, 8-sinf o‘quvchisi)*

Ko‘rinadiki, fanlararo integratsiyaning samarali tashkil etilishi o‘quvchilarning ta’lim jarayonida turli fanlardan olgan bilimlarini yozma nutqda erkin qo‘llashga asos bo‘ladi. Bugungi kunda STEAM deb nomlanuvchi ushbu yondashuv yangicha o‘qitish metodikasi bo‘lib, an’anaviy o‘qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. Bu fanlardan egallangan bilimlar o‘quvchilarning kelajakda yuqori malakali mutaxassislar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Natijada o‘quvchilar bilimlarni egallashga va shu zahotiyoq ularni amalda qo‘llashga harakat qilishadi.

Maktabda bilim berishning asosiy didaktik vositasi darslik sanaladi. Shuning uchun darsliklarda berilayotgan nazariy ma'lumotlar o'quvchi yoshi va psixologiyasiga mos, milliy tafakkur va mafkurani shakllantiruvchi, mashq va topshiriqlar esa zamonaviy hamda o'quvchini o'ziga jalb eta oladigan ma'lumotlarga boy bo'lishi lozim. Xalq og'zaki ijodining beqiyos namunalari bo'lgan afsonalar, rivoyatlar, hikmatli so'zlar, masallar, maqollar va matallar o'quvchilarning ijodiy matn yaratishlari uchun doimiy ma'naviy manba vazifasini o'tagan. Bir mavzu doirasidagi maqollar va hikmatli so'zlardan foydalanib, o'quvchiga matn yaratish topshirig'i berilsa, o'quvchilar bu vazifani tez va oson bajaradilar:

**So'z sehridan so'zlaganda…**

*Dono xalqimizda ,,So'zdan so'zning farqi bor, o'ttiz ikki narxi bor'' degan purma'no maqol bor. Darhaqiqat, ,,Anjom – uy ziynati, so'z – inson ziynati'' deganlaridek, har doim insonning kimligini, dunyoqarashini, qaysi kasb vakili ekanligini uning so'zlagan so'zidan bilsak bo'ladi. Albatta, ,,Ariqni suv bezar, Odamni – so'z". Ba'zi bir nodon kishilarning ,,Gapi gapga o'xshamas, Og'zi gapdan bo'shamas". Shuning uchun ,,Gapning qisqasi – yaxshi, Qisqasidan hissasi – yaxshi". Mazali so'z ham, mazali ovqat kabi insonga huzur bag'ishlaydi. ,,Ovqatni tuz mazali qilar, Odamni – so'z". O'zbek eli so'zga chechan, so'z gavharini marjon ipiga tera olgan xalq. Shu sababli, ,,So'z ojizi bo'lguncha, Ko'z ojizi bo'l", - deydi mutafakkirlarimiz. So'zlaganda ham, chinini so'zla: ,,Chin so'z – mo'tabar, Yaxshi so'z – muxtasar". Tiling yaxshi so'zlar ila bezansin, qulog'ing foydalilarini tinglasin. Zero, ,,Yaxshi gapga quloq sol, Yomon gapga uloq sol". (Xudoyqulova Maftuna, 16-AFChO'IM, 8-sinf o'quvchisi)*

Dars mashg'ulotlarini qiziqarli tashkil qilish matn yaratishda egallangan grammatik BKMlarni kerakli o'rinda tezkorlik bilan qo'llash imkoniyatini yaratadi.O'quvchilarga ***bir harf bilan boshlanuvchi so'zlardan foydalanib matn yaratish*** topshirig'ini berish ana shunday jarayonni yuzaga keltiradi. Masalan:

***Ilmli inson – insoniyatga imkon.***

*Inson izlanuvchan. Ilmni izlab, imkon izlaydi. Ilm- ibodat. Ilmli inson ibrat, ilmsiz inson isnod. Ibratli inson ilm ila iftixorlanadi. Ilmli insonda ijodkorlik ifodalanadi. Ilgari ilmlilar imkonsiz, imtiyozsiz ishlaganlar. Ilm - inson iqboli. Intiluvchanlik - insonning inon-ixtiyori. Inchunun, ilm izlang.(Nuritdinov Shamshod, Karmana tumani 5-maktab, 8-sinf o'quvchisi)*

***Bilimli bola-boy bola***

*Bilamizki, bugun bilimlilar badavlat. Bilim–baxtga, boylikka boshlaydi. Bilimsizlik – bee'tiborlik, bedodlik, befarqlik balosidan. Bilimlilar begumon baxtli. Bilim – bedorlik.  Beixtiyor bilimga benazir berilish – baxt. Bilimparvar birodarim birinchi bo'lishni biling. (Nabiyeva Binafsha, G'ijduvon tumani 4-maktab, 8-sinf o'quvchisi)*

Ushbu metodik tavsiyada tanlangan topshiriq matn orqali o'quvchini ravon gapirish, ifodali o'qish, savodli yozish ko'nikmalarini tizimli rivojlantirish bilan birga ularni orfoepik va orfografik bilimlarini mustahkamlashga o'rgatish imkoniyatini oshiradi.

O'quvchilarni xalqaro  PIRLS va PISA  tadqiqotlariga tayyorlash maqsadida diagramma, jadval, ma'lumotlar bazasiga tayanib matn yaratish topshiriqlari bugungi kunda ommalashdi. Bunda o'quvchilar ma'lumotni puxta o'zlashtirishlari, kerakli o'rinda ularning o'xshashlik va farqlarini topishlari, o'z tajribalari yoki qarashlari haqida fikrlarni jamlab matn yaratishlari lozim.

**Topshiriq. Keltirilgan diagramma asosida matn yarating.**



**Mobil telefonning xotira taqsimoti**

*Bugungi kunimizni mobil telefonlarsiz tasavvur eta olmaymiz. Insoniyatning bu kashfiyoti hozir har bir xonadon egasida mavjud. Mobil telefonlarning yangi avlodlari ko'plab funksiyalarga ega bo'lib, xotira hajmi ham kengayib bormoqda. Suratlar va videolar olish, hujjatlarni tayyorlash va jo'natishda ular beminnat dastyor.*

*Diagrammada ko'rsatilgan mobil telefonning xotira taqsimotidan ko'rinadiki, bu uyali aloqa vositasi telefonni faqat zaruriy holda ishlatadigan insonga tegishli. Qurilma dasturiy ta'minoti xotiraning taxminan 1/6 qismini egallagan. Aksariyat yoshlar telefonidan farqli ravishda videolar va rasmlar bo'limi hamda ilovalar bo'limi xotiraning hajm jihatdan kichik qismini band qilishi telefonning egasi haqidagi fikrimizni tasdiqlaydi. Hujjatlar bo'limi salmog'i foydalanuvchining ma'lum bir sohada ishlashidan dalolar beradi.*

*Bu ma'lumotlar biz yoshlarni mushohadaga chorlaydi. Mobil telefon – inson ixtirosi. Bu ixtironi hayotimizga, kelajak taqdirimizga ta'sir o'tkazishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Uyali aloqadan zarur hollardagina foydalanib, bebaho vaqtimizni bilim sirlarini egallashga sarflaylik. (Berdiyeva Ruxsora, Karmana tumani 5-maktab, 8-sinf o'quvchisi)*

O'quvchilar matnni yaratganlaridan so'ng fikrlarning berilgan ma'lumotlar bilan to'g'riligi, asoslarning o'rinliligi, chiqarilgan xulosaning aniqligini tekshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'rinadiki, o'quvchilarni matn yaratishga tayyorlash egallangan bilimlarni o'rinli qo'llash, matn mazmunini shakllantirishga xizmat qiluvchi vositalarning maqsadli ishlatish provardida yozma nutqning benuqson bo'lishiga olib keladi. Bu esa yozma nutqqa qo'yilgan talablarning to'laqonli bajarilishini anglatadi.

Umuman olganda, o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatishda o'qituvchi ona tili darslarida o'quvchidan matn yaratilgandan so'ng uni qayta-qayta tahrir qilish, har bir so'z, so'z birikmalari, har bir jumla ustida astoydil fikr yuritish, matndagi ortiqchaliklar va noo'rin tafsilotlarni, takroriy tasniflarni ixchamlashtirishni talab

qilishi lozim. Bunday yondashuv o‘quvchilarda matn yaratish va uni uslubiy tahrir qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi va mustahkamlaydi.

## Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1.Matn ustida ishlash jarayonida muayyan bir matn yuzasidan atroflicha fikr yuritish, matn mazmunini kengaytirish, matndan chiqarilgan xulosani ixchamlashtirish, matnni tahrir qilish orqali o‘ziga xos qonuniyatlarini aniqlashga e’tibor qaratiladi. Til o‘ziga xos sistemaga ega bo‘lgan ijtimoiy hodisa bo‘lganligi bois til birliklari matnda muayyan sistemada joylashadi. O‘quvchilar matn mazmunini kengaytirish jarayonida nutq oqimida takrorlanuvchi til birliklarini qo‘llab, til va nutq muammolarini vujudga keltiradilar. Bu holatni bartaraf etish uchun o‘qituvchi dars mashg‘ulotlarida bog‘lanishli matn tuzishga yo‘naltirilgan topshiriqlar bilan ishlashi, yangicha yondashuvlarga asoslanib, o‘quvchilarda mustaqil tafakkurga, nutqiy kompetentlilikka zamin hozirlashi lozim.

2.Matn mazmunini shakllantirish, uni kengaytirish va takomillashtirish, fikr rivojini anglash matn ustida samarali ishlashga olib keladi. Matnni kengaytirish jarayoni o‘quvchilarda matn ustida ishlashga, tahrir va tahlilga imkoniyat yaratadi. O‘quvchining matn ustida ishlash faoliyatida matnni tarkibiy qismlarga ajratish fikrni izchillikda bayon etish, kengaytirish, matn tili va uslubini muvofiqlashtirish orqali amalga oshirilsa, o‘quvchi ongida nutqiy kompetensiya shakllanadi hamda bu singari kognitiv va psixolingvistik topshiriqlar so‘z qo‘llash mahorati, vaziyatni boshqara bilishi, ma’naviyati va axloqiy qarashlarini aniqlash va to‘g‘ri rivojlantirishga xizmat qiladi.

3.Matnni xulosalash murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar muammoli xarakterdagi matnni o‘rganishga qaratilgan bo‘ladi. Matnni xulosalashda mavzu doirasida o‘quvchilarning fikrlari muhokama etiladi. Masalan, matnda aks etgan muammoning ijobiy va salbiy tomonlari, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu jarayon tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil

g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shakldа tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

4.O‘quvchilarni matn yaratishga o‘rgatishda o‘qituvchi ona tili darslarida o‘quvchidan matn yaratilgandan so‘ng uni qayta-qayta tahrir qilish, har bir so‘z, so‘z birikmalari, har bir jumla ustida astoydil fikr yuritish, matndagi ortiqchaliklar va noo‘rin tafsilotlarni, takroriy tasniflarni ixchamlashtirishni talab qilishi lozim. Bunday yondashuv o‘quvchilarda matn yaratish va uni uslubiy tahrir qilish ko‘nikmalarini hosil qiladi va mustahkamlaydi.

# III BOB. O‘QUVCHILARDA MATN YARATISH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINING SAMARADORLIGI

## 3.1-§. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni

O‘zbek tilini o‘qitish jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafaslikda, tilimiz ravnaqidagi yuksalishlar, tilshunoslikning yangi oqimlariga mos ravishda, o‘quvchining psixologik, lingvokreativ qobiliyatlari, bilim darajasini inobatga olgan holda o‘rgatishni o‘z oldiga maqsad qilib oladi. Bugungi kunda nutqiy kompetensiyaning birlamchi darajaga chiqishi o‘quvchilarning erkin va ijodiy fikrlashini taqozo etmoqda. Bu esa ta’lim oluvchilarning o‘z fikrini nutqiy sharoitda aniq, mulohazali, to‘g‘ri va ravon ifodalash malakasini shakllantirish, og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning eng muqobil pedagogik tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

O‘quvchilarning nutqiy vaziyatda grammatik atama va tushunchalardan, qoida va ta’riflardan unumli va o‘rinli foydalana olishi, imlo va talaffuz me’yorlarini, tinish belgilarini xatosiz qo‘llay bilishi uchun xizmat qiladigan, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalaydigan zamonaviy metodikalarni yaratish, zaririy tavsiyalarni ishlab chiqish esa asosiy ehtiyoj sanaladi.

O‘quvchilarga til sathi birliklarini nutqiy ko‘nikmalar bilan uyg‘unlikda o‘rgatish maqsadida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarida qo‘llanilgan yangi usul va vositalarni ommalashtirish, olingan natijalarni umumlashtirish va amaliyotga tatbiq qilish quyidagi tartibda amalga oshirildi:

1) dissertatsiya oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, dastlab egallangan BKMlarni mustahkamlash orqali o‘quvchilarni og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan grammatik topshiriqlarga o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va darslarda qo‘llanildi;

2) Navoiy viloyati xalq ta’limi boshqarmasi tasarrufidagi umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining talab va istaklarini inobatga olib mumtoz matnlarni tahlil qilish va o‘rganishda erishilgan natijalar asosida o‘qituvchilar bilan davra

suhbati tashkil qilindi;

3) tajriba-sinov davrida 8-sinf darsligida keltirilgan matnlar ustida ishlash jarayonida matnni kengaytirish, ixchamlash, nasriy bayon qilish, xulosalashda qo‘llanilgan usullar bo‘yicha mahorat darslari tashkil etildi;

4) so‘zning lug‘aviy ma’nosini anglash, muloqot jarayonida ulardan erkin foydalana olish maqsadida tuzilgan “Mumtoz va zamonaviy matnlar lug‘ati (8-sinf ona tili darsligi misolida)” taqdimoti o‘tkazildi;

5) matn namunalari bilan darsdan bo‘sh paytlarda shug‘ullanish, bilimlarni boyitishga asoslangan “Matn ustida mustaqil ishlash: topshiriqlar va testlar” nomli uslubiy ko‘rsatma tavsiya qilindi.

O‘quvchilarning ona tili fanidan egallagan BKMlarini matn ustida ishlash natijasida takomillashtirishga asoslangan tajriba-sinov ishlari ta’limning uch o‘quv yili mobaynida o‘tkazildi. Mazkur tadqiqotning tajriba-sinov ishlari 2020-2022-yillarda Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 7-,11-,12-,16-, Karmana tumanidagi 5-, Navbahor tumanidagi 9-, Uchquduq tumanidagi 10-, Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi 4-, 47-, 63-, Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 79- maktablarning 5–8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazildi. Asoslovchi bosqichda tanlab olingan sinflar tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Umumiy hisobda tajriba guruhida 562 nafar, nazorat guruhida 538 nafar; jami 1100 nafar o‘quvchi ishtirok etdi.

Tajriba-sinov va nazorat sinflaridan jalb qilingan o‘quvchilar va ta’lim muassasalari haqidagi to‘liq ma’lumot quyidagi jadvalda aks etgan:

**3.1-jadval.**

| T/r | Ta’lim muassasi nomi | 2019-2020-o‘quv yili | 2020-2021-o‘quv yili | 2021-2022-o‘quv yili |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 12-IDUM | 125 | 125 | 60 |
| 2. | Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 11-AFChO‘IM | 183 | 121 | 66 |
| 3. | Navoiy viloyati Navoiy shahridagi | 194 | 58 | 59 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 16-AFChO‘IM | | | |
| 4. | Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 7-maktab | 116 | 63 | 63 |
| 5. | Navoiy viloyati Karmana tumanidagi 5-IDUM | 118 | 61 | 57 |
| 6. | Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi 9-maktab | 64 | 67 | 57 |
| 7. | Navoiy viloyati Uchquduq tumanidagi 10-maktab | 59 | 68 | 55 |
| 8. | Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi 63-IDUMI | 65 | 55 | 58 |
| 9. | Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi 4-maktab | 55 | 55 | 56 |
| 10. | Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi 47-maktab | 50 | 51 | 42 |
| 11. | Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 79-maktab | 71 | 77 | 68 |
| | Jami: | 1100 | 801 | 641 |

1-asoslovchi bosqich tajriba-sinov davrida umimiy o‘rta ta’limning 5-8-sinflarida o‘quv dasturi asosida ona tili darsliklari materiallarining o‘rganilish darajasi, nutqqa tayyorlov topshiriqlarining bajarilishidagi o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklar, fikrni izchil bayon etish, bog‘lanishli matn yaratishdagi muammolar o‘rganildi.

Dars mashg‘ulotlarini tashkil qilishda samarali interaktiv metodlardan foydalanish, fanlararo integratsiyani amalga oshirish, lingvistik BKMlarni kommunikativ topshiriqlarni bajarish jarayonida qo‘llash bilan bog‘liq kamchiliklar kuzatildi. Muammoning turi, kelib chiqish sabablarini batafsil o‘rganish maqsadida o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. ***O‘qituvchilardan olingan so‘rovnoma (38 ishtirokchi) tahlili:***

1. 8-sinf ona tili darsligida “Matn va lug‘at ustida ishlash” mashg‘ulotlari uchun alohida soatlarning ajratilishi haqidagi fikringiz?

Barcha ishtirokchilar matnlarning nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaganlar.

2.“Matn va lug‘at ustida ishlash” mashg‘ulotlari uchun alohida tayyorgarlik ko‘rasizmi?

Bu savolga bir xil “ha” javobi berilgan. Fanning bugungi kundagi yangiligi ekanligini qayd qilingan, ammo bu tayyorgarlikni har bir o‘qituvchi o‘zicha baholagan. O‘qituvchilarning ko‘pchiligi metodik qo‘llanmalarning mavjud emasligini yozgan.

3.Ko‘pchilik mumtoz matnlarni o‘rganish zamonaviy matnlarni o‘rganishdan qiyinroq, deb hisoblaydi. Sizning munosabatingiz?

Mumtoz matnlarni o‘rganish muammoli holatligini hamma bir xil belgilagan. Dars jarayonida uchrayotgan kamchiliklar odatda shu dars soatlarida ko‘proq sezilayotganligini bildirishgan.

4.“Matn va lug‘at ustida ishlash” mashg‘ulotlarida lug‘atlardan qay tarzda foydalanasiz?

Yosh o‘qituvchilarning aksariyati (21 kishi) lug‘atlarning elektron variantidan foydalanishini, qolgan 17 kishi darsdan oldin har bir so‘zning izohini topib, o‘rganib chiqishini yozgan. Har ikki holatda ham o‘qituvchilar dars jarayonida vaqtdan unumli fodalanishni ko‘zlaganlari, dars mashg‘ulotlariga qadar lug‘at so‘zlarni o‘rganishga ko‘p vaqt sarflashlari ma’lum bo‘ldi.

5.O‘quvchilarni grammatik topshiriqlarni bajarish orqali matn yaratish faoliyatiga o‘rgatish mumkinmi?

5-8-sinflarda o‘quvchilar fonetika, grafika, orfoepiya, orfografiya, punktuatsiya, leksikologiya, morfologiya, sintaksisning salmoqli qismi o‘rganilishini barcha o‘qituvchilar ta’kidladi (buni shu paytga qadar lingvistik kompetensiyaga kuchli e’tibor qaratilishi bilan izohlash mumkin), ammo dars mashg‘ulotlarida egallangan BKMlarni muntazam ravishda nutqiy kompetensiyani shakllantirishga, ya’ni  bog‘lanishli og‘zaki va yozma matn tuzish faoliyatiga qaratishda ahvol qoniqarli darajada emasligini bildirdilar.

6.Grammatik topshiriqlarni bajarish orqali matn yaratishda qancha vaqtni axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishga sarflash lozim?

Bu savolga ba'zi o'qituvchilar 40 daqiqa, sanoqli (5-6 kishi) 1 soat (to'liq mashg'ulot) javobini yozganlar.

Bugungi kun ta'lim jarayonini axborot texnologiyalari vositalarisiz tasavvur qilish qiyin, lekin o'quvchilarni qiziqtirishlarini oshirish maqsadida mavzu doirasidagi bilimlar bilan bog'liq audio va video materiallardan foydalanish o'rinlidir. Bunda vaqtni to'g'ri taqsimlash ham muhim ahamiyatga ega. Agar o'qituvchi to'liq vaqtni videomaterialni ko'rishga sarflasa, grammatik topshiriqlarni qaysi o'rinda bajaradi? Matn yaratishga yo'naltirilgan topshiriqlarni bajarish qaysi qismda amalga oshiriladi? Jarayon vaqtni to'g'ri taqsimlash bo'yicha ham tavsiyalar ishlab chiqishni ko'rsatdi.

7."Matn va lug'at ustida ishlash" mashg'ulotlarini o'rganish davomida yangi pedagogik texnologiyaning qanday metodlaridan foydalanasiz?

Bu savolga har qaysi o'qituvchi o'zi bilgan usullarni yozgan. Qayd qilingan usullar esa nazariy bilimlarni mustahkamlashgagina xizmat qiladi.

8.Ushbu metodlardan darsning qaysi bo'limida foydalanish o'rinli?

Dars mashg'ulotlarini kuzatishda yangi pedtexnologik metodlarni qo'llash bilan bog'liq xatoliklar ko'p kuzatildi. O'qituvchilarning asosiy qismi darsni jo'ngina o'tish tarafdori ekanligi yaqqol sezildi. 7-8 o'qituvchi esa mashg'ulotning har bir qismida yangi usullarni qo'lladi. Kuzatishlar har ikki holat ham nuqsonlardan xoli emasligini ko'rsatdi.

9.Siz ta'lim berayotgan sinflarda "Matn va lug'at ustida ishlash" mashg'ulotlarining sifat samaradorligini qay darajada deb baholaysiz?

Ona tili ta'limiga yangilik sifatida kiritilgan bu mashg'ulotlarga o'qituvchilar hali kirishib ulgurmaganliklarini, nazariy bilimlarni berish ular uchun matn ustida ishlashdan osonroq ekanligini yozishgan. Ahvolni 28 kishi "qoniqatli", 10 kishi "yaxshi" deya baholagan.

10.Matn yaratishga yo'naltiruvchi qanday grammatik topshiriqlardan foydalanasiz?

Imlo bilan bog‘liq topshiriqlar, so‘z qo‘llash bilan bog‘liq topshiriqlar, gap tuzish bilan bog‘liq topshiriqlardan foydalanishlari ko‘rsatilgan, ammo maqsadli yo‘naltirilgan topshiriqlar bilan ishlash  ayrim faol o‘qituvchilardagina mavjudligi aniqlandi.

***O‘quvchilardan olingan so‘rovnama tahlili:***

1.8-sinf ona tili darsligida “Matn va lug‘at ustida ishlash” mashg‘ulotlari haqidagi fikringiz?

O‘quvchilar  “Matn va lug‘at ustida ishlash” mashg‘ulotlari grammatikaga oid bilimlarni egallashdan ko‘ra qiziqarli, deb hisoblashadi.

2.“Matn va lug‘at ustida ishlash” mashg‘ulotlarida matnni tushunish uchun oldindan tayyorgarlik ko‘rasizmi?

So‘rovnoma natijalari o‘quvchilar matnni tushunish uchun oldindan tayyorgarlik ko‘rmasliklarini aniqlashtirdi.

3.Ko‘pchilik mumtoz matnlarni o‘rganish zamonaviy matnlarni o‘rganishdan qiyinroq, deb hisoblaydi. Sizning munosabatingiz? Javoblar:

To‘g‘ri fikr javobi 80% o‘quvchida, noto‘g‘ri fikr javobi 20% o‘quvchida kuzatildi. Bu javoblar o‘qituvchilarning imkoniyatlarini ko‘rsatadi, degan xulosaga keldik.

4.“Matn va lug‘at ustida ishlash” mashg‘ulotlarida lug‘atlardan qay tarzda foydalanasiz?

O‘quvchilarning tez-tez elektron variantiga murojaat qilaman, degan javoblari 67% ni tashkil qildi.

5.“Matn va lug‘at ustida ishlash” mashg‘ulotlarini tashkil etishda axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishning darsni o‘zlashtirish imkoniyalariga ta’sirini qanday baholaysiz?

Bu savolga ko‘pchilik o‘quvchilar o‘qituvchilarining AKTdan foydalanmasligini (62%) yozishgan bo‘lsa, qolgan qismi ustozlari kompyuter va televizordan foydalanishini, tasavvur imkoniyatlarini kengaytirib, matnni oson tushunishga yordam berishini yozganlar, lekin ular bu jarayonga yangilik olib kirish kerak, degan fikrdalar.

6.“Matn va lug‘at ustida ishlash” mashg‘ulotlarini o‘rganish davomida ustozingiz yangi pedagogik texnologiyaning qanday metodlaridan foydalangan?

Juda ozchilikda “Pinbord”, “Aqliy hujum” degan javoblar uchradi.

7.“Matn va lug‘at ustida ishlash” mashg‘ulotlari qay darajada o‘zlashtirgansiz?

Mavzularni o‘zlashtirish darajasini ular qoniqarli hisoblashgan.

8.Grammatik topshiriqlarni bajarish jarayonida matn yaratasizmi?

Mavzudagi yangi bilimlarni qo‘llab matn yaratish topshirig‘ini o‘quvchilar uy vazifasida ko‘proq bajarganlari so‘rovnomalar jarayonida aniq bo‘ldi.

9.Dars jarayonida matn yaratishga yo‘naltiruvchi qanday grammatik topshiriqlarni bajargansiz? 5-sinf o‘quvchilari fonetika, leksikologiyaga doir, 6-sinf o‘quvchilari fe’l, ot so‘z turkumlariga doir, 7-sinflar mustaqil va yordamchi so‘z turkumlariga doir, 8-sinflar gap bo‘laklari va sodda gap turlariga doir grammatik topshiriqlarni bajarganlarini yozganlar. Ammo bu holat matn yaratish jarayoniga oid bo‘lmaganini bildirganlar.

10.Ma’lum bir bo‘limga oid topshiriqlarni bajarish orqali yozma nutqingizni takomillashtirish mumkinmi? Savol ko‘pchilik o‘quvchilar tomonidan javobsiz qoldirilgan, 29% o‘quvchi qisqagina “ha” javobni yozgan.

---

So‘rovnoma natijalari bugungi kun ona tili ta’limida asosiy e’tibor grammatik BKMlarni egallashga qaratilganligini, “Matn va lug‘atlar ustida ishlash” mashg‘ulotlari darsliklardan o‘rin egallagan bo‘lsa-da, matn ustida ishlash bilan bog‘liq muammolar mavjudligini aniqlashtirdi. O‘tkazilgan dastlabki nazorat ishlari muammoni yechish yo‘llarini ishlab chiqishga oydinlik kiritdi.

Tajriba-sinov ishlariga jalb qilingan 5-sinf o‘quvchilari uchun quyidagi topshiriq tanlandi:

**Matnni o‘qing. Avval bir unli tovushdan tuzilgan so‘zlarni, so‘ngra tovush o‘zgarishiga uchragan so‘zlarni yozing. Non haqidagi fikrlaringiz bilan matnni davom ettiring.**

*Nonning nomi ulug‘, nomidan o‘zi ulug‘. Bolaga ins-jins ziyon yetkazmasin deb, ona o‘z go‘dagi yostig‘i ostiga non qo‘ygan. Ota o‘g‘lini o‘zga yurtga safarga*

*otlantirib, oq fotiha berar ekan, "balo-qazolardan saqlaydi" degan ma'noda farzandining qo'liga non tutqazgan.*

*Yo'lga chiqqan bahodirga ota-onasi yoki suyuklisi non tishlatgan. Toki non nasiba torib, u uyga sog'-salomat, beshikast qaytsin.*

*Xastani, keksalarni ko'rish, ustozni ziyorat qilish, hol-ahvol so'rash uyiga non tugib borishdan boshlangan. ("Oltin sandiq ochildi" kitobidan)*

6-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan topshiriq:

**Matndagi fe'llarni aniqlang. Ulardagi nisbat, zamon, shaxs-son qo'shimchalarini belgilang. Shoir Muhammad Yusuf haqidagi fikrlaringiz bilan matnni davom ettiring.**

*Muhammad Yusuf qo'shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimnikiga o'xshamagan misralarda ta'riflagan she'rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi.*

*Muhammadning she'rlari bir qarashda juda sodda, jo'n yoziladiganga o'xshab tuyuladi. Uning oson yoziladiganga o'xshab ko'ringan misralari muxlislarini yig'latadi, kuldiradi, o'z og'ushiga oladi.*

*Odamlar uning she'rlarini hayajonsiz o'qimaydigan, kitoblarini do'konlardan qidirib yuradigan bo'ldilar. (O. Sharafiddinov)*

7-sinf o'quvchilari uchun "Ismlar" mavzusi bilan bog'liq topshiriq belgilandi:

**Matnni o'qing. Matndagi so'zlardan narsaning nomini, belgining nomini, miqdorning nomini va nomlar o'rnida almashinib keluvchi so'zlarni ajrating. Matn mazmunini o'z so'zlaringiz bilan ifoda eting.**

*Yorug', keng xonadagi karavotlarning birida qirq yoshlar chamasidagi ayol yotardi. Rangi biroz oqarinqiragani uchun qoshlari yana ham qora, quyuq ko'rinar, peshonasiga tushib turgan qo'ng'ir sochlarining jingalagi ham biroz ko'kargan, lekin g'unchadek lablari o'ziga yarashgan, bejirim edi. Bemor ayollar bilan muloyim gaplashadi-yu, lekin ko'ngli, turmushi haqida ochiq gapirmaydi. Eri poyezdda ishlar ekan. Shuning uchun haftada bir keladi. O'g'ilchasini yetaklab olma, apelsin to'ldirilgan sumkani ko'targanicha javdirab kirib keladi-da,*

*xotinining oyoq tomonida o'tirib unga termiladi. (S. Zunnunova)*

8-sinf o'quvchilarning yosh xususiyatlari, nazariy bilimlarning asosiy qismini egallaganliklari topshiriqda aks etdi:

**Matnni diqqat bilan o'qing. Matn yuzasidan tuzilgan test savollari va topshiriqlarni bajaring.**

***SHER VA SICHQON***

*Bir sichqon uxlab yotgan sherning ustidan pildirab o'ta boshladi. Sher uyg'onib ketib, sichqonni tutib oldi va uni yemoqchi bo'ldi. "Sen, yaxshisi, meni qo'yib yubor, –deb yolvordi sichqon, – kezi kelganda men ham bu yaxshiliging uchun seni falokatdan qutqaraman". Sher bu gapni eshitib, xaxolab kuldi va sichqonni qo'yib yubordi. Lekin oradan biroz vaqt o'tgach sichqon, chindan ham, sherga bergan so'zining ustidan chiqdi – uni bir o'limdan asrab qoldi. Gap shundaki, sher ovchilar tuzog'iga ilinib qolgan va ular sherni arqon bilan daraxtga bog'lab qo'yishgan edi. Sherning nola chekib o'kirganini sichqon eshitib qoldi va darhol uning oldiga yugurib keldi-da, arqonni kemirib, sherni tuzoqdan ozod qildi. So'ng dedi: "U kuni ustimdan kulgan eding – senga yaxshilik qilishimga go'yo ishonmaganday. Mana, endi sichqon ham minnatdorlik bildirishga qodir ekanligini bilib olding".*

*Bu masal ba'zida eng qudratli, zabardast odamlar ham, taqdir taqozosi bilan, eng zaif kishilar yordamiga muhtoj bo'lishlarini ko'rsatadi.(107-bet)*

Matn yuzasidan test savollari:

1.So'zlarning ma'nosini moslashtiring:

1) sichqon, 2) sher, 3) falokat, 4) ovchi

a) kichik kemiruvchi sutemizuvchi hayvon

b) yurik sutemizuvchi yirtqich hayvon

c) musibat, baxtsizlik, mushkul ahvol

d) ov qiladigan odam yoki hayvon

A) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d B) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a

C) 1-d, 2-c, 3-b, 4-a D) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c

2.Qaysi javobda so'z qo'llash bilan bog'liq xatolik kuzatiladi.

A) Bir sichqon uxlab yotgan she'rning ustidan pildirab o'ta boshladi.

B) -Sen, yaxshisi, meni qo'yib yubor, — deb yolvordi sichqon

C) Darhol uning oldiga yugirib keldi-da, arqonni kemirib, sherni tuzoqdan ozod qildi.

D) Uni bir o'limdan asrap qoldi

3."Kulmoq" so'zidan oldin "ustidan" so'zi ishlatilganda qanday ma'no hosil qiladi?

A) masxara qilmoq B) miyig‘ida kulmoq C) qahqaha urmoq D) xoxolamoq

4.Bir sichqon uxlab yotgan sherning ustidan pildirab o‘ta boshladi. Gapda ishtirok etgan fe’lning vazifa shakllari qaysi javobda to‘liq berilgan.

A) sof fe’l, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi

B) sof fe’l, sifatdosh, ravishdosh

C) ravishdosh, harakat nomi

D) sof fe’l, harakat nomi

5.Matn mazmuniga mos keluvchi maqol yoki hikmatli so‘z keltirib, uni sharhlang (20-25 so‘z)

Har bir sinf kesimida tanlangan nazorat ishi matnlari Davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari talablariga muvofiq uch parametrda tekshirildi:

1. A’lo baho – “5”;
2. Yaxshi baho – “4”;
3. Qoniqarli baho – “3”.

Nazorat ishlarini baholash quyidagi **mezonlar** bo‘yicha olib borildi:

**O‘quvchilarda matn ustida ishlash ko‘nikmalar shakllanganligini aniqlash mezonlarining ko‘rsatkichlari**

**3.2-jadval.**

| **Mezonlar** | **Ko‘rsatkichlar** | | |
|---|---|---|---|
| | **a’lo** | **yaxshi** | **qoniqarli** |
| **A2** | a) matndagi ma’lumot asosida grammatik topshiriqlarni to‘liq bajaradi; | a) matndagi ma’lumot asosida grammatik topshiriqlarni qisman bajaradi; | a) matndagi ma’lumot asosida grammatik topshiriqlarni bajarishga qiynaladi; |
| | b) o‘zlashtirilgan leksik birliklarni nutqiy sharoitda qo‘llay oladi; | b) o‘zlashtirilgan leksik birliklarni nutqiy sharoitda ma’lum darajada qo‘llay oladi; | b) o‘zlashtirilgan leksik birliklarni nutqiy sharoitda yetarli darajada qo‘llay olmaydi; |
| | v) ijodiy-tavsifiy matn yaratishda fikrlarni izchillik bilan bayon qila oladi; | v) ijodiy-tavsifiy matn yaratishda fikrlarni qisman bayon qila oladi; | v) ijodiy-tavsifiy matn yaratishda fikrlarni bayon qilishga qiynaladi; |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | g) hikmatli so‘zlar, maqollar, badiiy va ritorik vositalarni o‘rinli qo‘llaydi; | g) hikmatli so‘zlar, maqollar, badiiy va ritorik vositalarni qisman qo‘llaydi; | g) hikmatli so‘zlar, maqollar, badiiy va ritorik vositalarni qo‘llamaydi; |
| | d) husnixat, tinish belgilar va imlo qoidalariga amal qiladi[1]. | d) husnixat, tinish belgilar va imlo qoidalariga qisman amal qiladi. | d) husnixat, tinish belgilar va imlo qoidalarini qo‘llashda xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. |

Tajriba-sinov uchun tanlangan umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari tomonidan olingan dastlabki sinov natijalari tahlil qilinib, quyidagilar qayd etildi:

**O‘quvchilarda matn ustida ishlash ko‘nikmasining mavjud darajasini aniqlash bo‘yicha dastlabki nazorat ishlari tahlili**

(Jami 1100 nafar o‘quvchi)

**3.3-jadval.**

| **Nazorat ishlari olib borilgan ta’lim muassasalari** | **O‘quv-chilar soni** | **DTS talabi asosida** | | |
|---|---|---|---|---|
| | | **A’lo** | **Yaxshi** | **Qoniqarli** |
| Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 12-IDUM | 125 | 18 | 69 | 39 |
| Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 11-AFChO‘IM | 183 | 46 | 75 | 62 |
| Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 16-AFChO‘IM | 194 | 30 | 76 | 87 |
| Navoiy viloyati Navoiy shahridagi 7-maktab | 116 | 12 | 51 | 53 |
| Navoiy viloyati Karmana tumanidagi 5-IDUM | 118 | 26 | 43 | 49 |
| Navoiy viloyati Navbahor tumanidagi 9-maktab | 64 | 9 | 26 | 29 |
| Navoiy viloyati Uchquduq tumanidagi 10-maktab | 59 | 7 | 23 | 29 |
| Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi 63-IDUMI | 65 | 11 | 27 | 27 |
| Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi 4-maktab | 55 | 9 | 24 | 22 |

[1]Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili Adabiyot. (5–9-sinf) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent; 2017, 14 (774)-son, 230-modda. –58-b.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Buxoro viloyati G'ijduvon tumanidagi 47-maktab | 50 | 5 | 21 | 24 |
| Toshkent shahri Chilonzor tumanidagi 79-maktab | 71 | 12 | 27 | 32 |
| Jami: | 1100 | 185 | 462 | 453 |

Yuqoridagi jadvalda ilmiy-tadqiqot muammosi bo'yicha dastlabki nazorat ishi olib borilgan maktab o'quvchilarida mavjud bo'lgan matn asosida grammatik topshiriqlarni bajarish ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Birinchi bosqichdagi nazorat ishlarida jami 1100 nafar o'quvchi qatnashgan. Shundan "a'lo" bahoga – 185 ta, "yaxshi" bahoga – 462 ta, "qoniqarli" bahoga – 453 ta ish loyiq topilgan, bu esa sifat ko'rsatkichi 58,8% ekanligini ko'rsatadi. Dastlabki tahlilda nazorat va tajriba guruhlaridagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari deyarli farqlanmaganligi sababli umumiy sifat ko'rsatkichni keltirish joiz deb topildi.

Tajriba-sinovning 2-shakllantiruvchi bosqichida umumiy o'rta ta'limning 5-8-sinf Ona tili darsligidagi hamda tadqiqot davomida foydalanishga tavsiya qilingan grammatik topshiriqlarni bajarish jarayonida matn mavzusini yanada keng planda o'rganish, o'quvchilarni bog'lanishli matn yaratishga yo'naltiruvchi grammatik topshiriqlar qamrovini kengaytirish, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, so'zning ma'nosini matn mazmuniga mos holda qo'llash, mumtoz hamda zamonaviy matnlar tarkibidagi yangi so'zlar ma'nosini anglab yetish, o'quvchilar uchun tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarning lug'atini ishlab chiqish, darslikda keltirilgan matnlar mazmunini puxta o'zlashtirish, egallangan yangi bilimlar asosida matnni kengaytirish, qayta hikoya qilish, qisqartirish, tahlil qilish, grammatik topshiriqlar asosida matnni yaratish amaliyotida interfaol metodlar vositasidan  foydalanish imkonini yaratish ustida ish olib borildi.

Tilshunoslikning fonetika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiyaga oid bilimlarini o'rganish va o'rgatishda zaruriy topshiriqlarni bajarish jarayonida yozma nutq ko'nikmalarini oshirish bo'yicha olib borilgan quyidagi ishlar samaradorlik natijalarining oshishiga sabab bo'ldi:

-lingvistik ko'nikmalarni shakllantirishning har bir bosqichida o'quvchilarda nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga qiziqishni uyg'otish;

-topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘z kuchiga tayanib mustaqil ishlash, kichik guruhlarda ishlash jarayonida fikr-mulohazasini isbotlay olishga o‘rgatish,

-o‘rtaga qo‘yilgan muammoni yechishda shaxsiy fikrini erkin ayta olish,

-muntazam berib boriladigan grammatik topshiriqlar sirasiga u-o‘, i-e unli tovushlari va x-h, g‘-q undosh tovushlari ishtirok etgan so‘zlarni kiritish;

-o‘quvchilarga adabiy talaffuz me’yorlarini o‘rgatishga mahalliy sharoit va vaziyatni hisobga olish;

-imlo me’yorlarining puxta o‘zlashtirilishi, hattoki oddiy kundalik yozishmalarda ham (ayniqsa mobil telefonda) ularga amal qilish;

- imloviy xatolikning so‘z ma’nosiga ta’sir etishi, bu esa o‘z navbatida uslubiy xatolikka (artish-archish, dimlash-damlash) olib kelishini anglashga o‘rgatish;

-so‘zning ma’nodoshini nutq vaziyatiga mos qo‘llay bilish (gigant so‘zini insonga nisbatan qo‘llab bo‘lmaydi);

-omonimlar va ko‘p ma’noli so‘zlarning xususiyatlarini aniqlashga qayta-qayta murojaat qilish, bunday so‘zlarning matnda anglatgan ma’nosini izohlay olish;

-dars jarayonida foydalaniladigan topshiriqlarni imkon qadar media vositalar orqali taqdim etish;

-har bir mashg‘ulot mazmun-mohiyatiga yangilik kiritish va o‘quvchilarning linvistik va nutqiy kompetentligini oshirish.

**Fonetika, orfoepiya, orfografiya, leksikologiyaga oid topshiriqlarni bajarish jarayonida yozma nutq samaradorligini oshirish bo‘yicha olib borilgan ishlarning samaradorlik natijalari**

**3.4.1-jadval.**

| № | Maktablar | Nazorat guruhidagilar soni | Tajriba guruhidagilar soni | Natijalar | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Nazorat guruhi | Tajriba guruhi |
| **1** | Navoiy shahar 7-umumta’lim maktab | 5-“G” sinf 33 o‘quvchi | 5-“D” sinf 30 o‘quvchi | 58% | 74% |
| **2** | Navbahor tumani 9-umumta’lim maktab | 5-“A” sinf 29 o‘quvchi | 5-“B” sinf 28 o‘quvchi | 57% | 75% |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **3** | G‘ijduvon tumani 47-umumta’lim maktab | 6-“A” sinf 25 o‘quvchi | 6-“B” sinf 17 o‘quvchi | 58% | 79% |
| **4** | G‘ijduvon tumani 63-IDUMI | 6-“A” sinf 27 o‘quvchi | 6-“B” sinf 31 o‘quvchi | 65% | 86% |

Morfologiya sathining mustaqil va yordamchi so‘z turkumlarini o‘rganish jarayonida matn ustida ishlash bilan bog‘liq grammatik topshiriqlar quyidagi jihatlarga asoslandi:

-fe’llarning zamon, shaxs-son, nisbat, mayl, vazifa shakllari qo‘shimchalarining badiiy matnda ishlatilish jihatlari tahlili;

-otlardagi egalik va kelishik qo‘shimchalarining belgili va belgisiz ko‘rinishlarda yozma nutqda aks etishi;

-kelishik kategoriyalarining ko‘makchilar bilan sinonimiyasi;

-sifat darajalarining nutq jarayoniga ta’siri;

-nutqiy integratsiya jarayonida olmoshlarning xususiyatlari;

-modal, taqlid, undov so‘zlarni nutqiy vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash.

**Morfologiya sathini o‘rganish jarayonida matn ustida ishlash bo‘yicha olib borilgan ishlarning samaradorlik natijalari**

**3.4.2-jadval.**

| **№** | **Maktablar** | **Nazorat guruhidagilar soni** | **Tajriba guruhidagilar soni** | **Natijalar** | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | **Nazorat guruhi** | **Tajriba guruhi** |
| **1** | Uchquduq tumani 10-umumta’lim maktab | 6-“A” sinf 27 o‘quvchi | 6-“B” sinf 28 o‘quvchi | 66% | 79% |
| **2** | Navoiy shahar 11-AFCHO‘IM | 7-“I” sinf 33 o‘quvchi | 7-“D” sinf 33 o‘quvchi | 67% | 82% |
| **3** | G‘ijduvon tumani 4-umumta’lim maktab | 7-“A” sinf 28 o‘quvchi | 7-“B” sinf 28 o‘quvchi | 58% | 74% |
| **4** | Chilonzor tumani 79-umumta’lim maktab | 7-“A” sinf 36 o‘quvchi | 7-“B” sinf 32 o‘quvchi | 57% | 76% |

**Sintaksis bo‘limini o‘rganish jarayonida matn ustida ishlash bo‘yicha olib borilgan ishlarning samaradorlik natijalari**

**3.4.3-jadval.**

| № | Maktablar | Nazorat guruhidagilar soni | Tajriba guruhidagilar soni | Natijalar | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Nazorat guruhi | Tajriba guruhi |
| 1 | Navoiy shahar 12-AFCHO‘IM | 8-“E” sinf 31o‘quvchi | 8-“D” sinf 29 o‘quvchi | 63% | 87% |
| 2 | Navoiy shahar 11-AFCHO‘IM | 8-“G” sinf 32 o‘quvchi | 8-“H” sinf 30 o‘quvchi | 66% | 86% |
| 3 | Navoiy shahar 16-AFCHO‘IM | 8-“A” sinf 35 o‘quvchi | 8-“D” sinf 32 o‘quvchi | 67% | 82% |

Samaradorlikka erishishda so‘z birikmasining so‘z qo‘shilmasi, ibora, gap bilan o‘xshashlik va farqlari, gapning maqsadiga va tuzilishiga ko‘ra turlarini matnda qo‘llanish holatlarini chuqur tahlil qilish usullari o‘z natijasini berdi.

5-, 8-sinf ona tili darsligida “Matn va lug‘at bilan ishlash” mashg‘ulotlarining kiritilishi o‘quvchilarning tayyor matn ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qildi. 6 -, 7-sinfning milliy dastur asosida tuzilgan darsliklari 2022-2023-o‘quv yilidan o‘qitila boshlandi, shuning uchun tajriba-sinov davrida bu darsliklardan foydalana olmadik.

8-sinf o‘quvchilari ona tili darslarida egallanishi lozim bo‘lgan nazariy ma’lumotlarni asosiy qismini o‘rganib bo‘lganliklari sababli darsdan bo‘sh vaqtlarida ham matn ustida ishlashlari uchun “Matn ustida mustaqil ishlash: topshiriqlar va testlar” uslubiy ko‘rsatmasini tayyorladik. Ushbu uslubiy ko‘rsatmada o‘quvchilarning yozma nutq texnikasini shakllantirishga, ijodiy tafakkur qobiliyatini yuksaltirishga hissa qo‘shish hamda maktab o‘quvchilariga matn bilan ishlash asnosida grammatik topshiriqlarni bajarish yuzasidan ma’lumot berish, buyuk adiblar, so‘z ustalarining asarlaridan namunalar keltirib, shu matnlar asosida grammatik topshiriqlarni bajarish kabi masalalar haqida fikr yuritilgan. Uslubiy ko‘rsatma bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan individual ishlash imkonini beradi.

Uslubiy ko‘rsatmadagi qiyin topshiriqlar va mavzuga doir test savollari iqtidorli o‘quvchilar yoki fan olimpiadasida ishtirok etuvchi yuqori sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan.

O‘quvchilarni milliy test tizimiga tayyorlash maqsadida tuzilgan namunaviy test topshiriqlarining uslubiy ko‘rsatmaga kiritilishini matn ustida ishlashga bo‘lgan talabning kuchayganligi bilan izohlash mumkin. Matn asosida tuzilgan test materiallari nutqiy ko‘nikmalarni oshirishga yordam beradi, topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchi o‘tilgan mavzuga oid BKMlarni esga oladi va mustahkamlaydi.

**Tayyor matn ustida ishlash (kengaytirish, xulosalash, tahrirlash) asosida olib borilgan ishlarning samaradorlik natijalari**

**3.4.4-jadval.**

| № | Maktablar | Nazorat guruhidagilar soni | Tajriba guruhidagilar soni | Natijalar | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Nazorat guruhi | Tajriba guruhi |
| 1 | Navoiy shahar 16-AFCHO‘IM | 8-“B” sinf 30 o‘quvchi | 8-“V” sinf 29 o‘quvchi | 63% | 85% |
| 2 | Karmana tumani 5-IDUM | 8-“A” sinf 29 o‘quvchi | 8-“B” sinf 28 o‘quvchi | 58% | 73% |
| 3 | Navoiy shahar 12-IDUM | 8-“A” sinf 30 o‘quvchi | 8-“I” sinf 30 o‘quvchi | 62% | 82% |

O‘quvchilarni grammatik topshiriqlar asosida matn yaratishga yo‘naltirish ona tili ta’limida qo‘llanadaigan an’anaviy metodlardan hisoblanadi. 5-sinf darsligida “Kitobxon o‘quvchi – bilimdon o‘quvchi”, “Navoiy o‘gitlariga amal qilaman”, “Men, albatta, baxtli bo‘laman”, “Aql kuchdan qudratliroq” mavzularida 6-sinf darsligida “O‘zbekiston tabiati”, “Keksalarni ardoqlang”, “Aqlli bola – elga manzur”, “Vatanni mardlar qo‘riqlaydi”, “Tog‘da”, “Qishda”, ”Assalom, Navro‘z”, “To‘yda”, “Bizning oila”, “Sizni ulug‘laymiz, bobodehqon!”, 7-sinf darsligida “Maktabimizda gullar bayrami”, “Mustaqillik bizga nima berdi”, “Kuch birlikdadir” kabi mavzularda matn yaratish topshirig‘i uyga vazifa qismida keltirilgan. E’tiborli jihati o‘quvchilar berilgan mavzuda matn tuzish uchun darsda

egallangan yangi bilimlarga tayanishlari lozim bo‘ladi. Biz o‘quvchilarning tayyorlab kelgan matnlari asosida darsning kirish qismida “Ma’naviyat daqiqasi”ni tashkil qildik. Bahs-munozaralarda ham grammatik, ham nutqiy ko‘nikmalar ustida ishlandi. Tavsiyalarimiz asosida har bir gapda hikmatli so‘z yoki xalq maqoli qo‘llangan matnlarning, bir harf bilan boshlanuvchi so‘zlardan tuzilgan matnlarning, diagramma yoki jadval ma’lumotlari asosida tuzilgan matnlarning, chehralar holati ifodasidan yaratilgan matnlarning betakror namunalari yaratildi.

**Grammatik topshiriqlar asosida matn yaratish bo‘yicha olib borilgan ishlarning samaradorlik natijalari**

**3.4.5-jadval.**

| № | Maktablar | Nazorat guruhidagilar soni | Tajriba guruhidagilar soni | Natijalar | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Nazorat guruhi | Tajriba guruhi |
| **1** | Navoiy shahar 12-IDUM | 8-“A” sinf 30 o‘quvchi | 8-“I” sinf 30 o‘quvchi | 64% | 80% |
| **2** | Navbahor tumani 9- umumta’lim maktab | 5-“A” sinf 29 o‘quvchi | 5-“B” sinf 28 o‘quvchi | 57% | 74% |
| **3** | G‘ijduvon tumani 4-umumta’lim maktab | 6-“A” sinf 27 o‘quvchi | 6-“B” sinf 29 o‘quvchi | 60% | 78% |
| **4** | Chilonzor tumani 79-umumta’lim maktab | 7-“A” sinf 36 o‘quvchi | 7-“B” sinf 32 o‘quvchi | 58% | 73% |

Xulosa shuki, 5-8-sinf ona tili darslarida dastlab o‘quvchilarni grammatik topshiriqlarni bajarish jarayonida yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga erishiladi, tayyor matn ustida ishlash orqali nutqiy ko‘nikmalar takomillashtiriladi, bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarning har qanday grammatik topshiriqni nutqiy jarayonda erkin qo‘llab, bog‘lanishli matn tuzishlariga zamin yaratadi.

## 3.2-§. Tajriba-sinov natijalarining statistik tahlili

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy 3-dalillovchi bosqichida erishilgan samaradorlikni tahlil qilish maqsadida olingan nazorat ishlari tahlili natijalari quyidagilarni ko’rsatdi (3.5.1-3.5.11-jadvallarga qarang):

**3.5.1-jadval.**

Navoiy viloyati Navoiy shahar xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 11-AFCHO‘IM 8-“I”, 8-“D”sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan yakuniy tajriba-sinov natijalari (2021-2022-o‘quv yili)

| т/р | Tajriba-sinov jarayonida olingan nazorat ishi turi va mavzulari | tajriba-sinov va nazorat sinflaridagi o‘zlashtirish natijalari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 8-“D” sinf, nazorat sinfi, 33 nafar o‘quvchi | | | 8-“I” sinf, tajriba-sinov sinfi, 33 nafar o‘quvchi | | |
| | | a’lo | yaxshi | qoniqarli | a’lo | yaxshi | qoniqarli |
| 1. | “Alisher Navoiy” mavzusida matn yarating | 9<br>27,3% | 13<br>39,4% | 11<br>33,3% | 10<br>30,3% | 14<br>42,4% | 9<br>27,3% |
| 2. | Lug‘at so‘zlar bo‘yicha tuzilgan test sinovi | 10<br>30,3% | 12<br>36,4% | 11<br>33,3% | 12<br>36,4% | 12<br>36,4% | 9<br>27,3% |
| 3. | “Amir Temur va me’mor” mavzusi asosida tuzilgan grammatik topshiriqlarni bajaring | 10<br>30,3% | 13<br>39,4% | 10<br>30,3% | 12<br>36,4% | 13<br>39,4% | 8<br>24,2% |
| 4. | “Hunarning xosiyati” matnidan tuzilgan test | 9<br>27,3% | 14<br>42,4% | 10<br>30,3% | 12<br>36,4% | 13<br>39,4% | 8<br>24,2% |
| 5. | O‘rganilganlar bo‘yicha test sinovi | 9<br>27,3% | 15<br>45,5% | 9<br>27,3% | 13<br>39,4% | 13<br>39,4% | 7<br>21,2% |
| 6. | “Lison ut-tayr”dan berilgan mumtoz matnni qayta hikoya qiling | 10<br>30,3% | 14<br>42,4% | 9<br>27,3% | 13<br>39,4% | 14<br>42,4% | 6<br>18,2% |
| 7. | “Ulug‘bekning shogirdi” matnidan grammatik topshiriqlarni bajaring | 11<br>33,3% | 14<br>42,4% | 8<br>24,2% | 12<br>36,4% | 15<br>45,5% | 6<br>18,2% |
| 8. | “Tovusning go‘zalligi o‘ziga dushman” matnidan milliy reyting namunalari asosida tuzilgan test sinovi | 10<br>30,3% | 15<br>45,5% | 8<br>24,2% | 13<br>39,4% | 15<br>45,5% | 5<br>15,2% |
| 9. | “Sher va sichqon” matni asosida milliy reyting namunalari asosida tuzilgan test sinovi | 13<br>39,4% | 14<br>42,4% | 6<br>18,2% | 15<br>45,5% | 15<br>45,5% | 3<br>9,1% |
| | Baholar soni o‘rtacha | 10 | 14 | 9 | 12 | 14 | 7 |
| | Foiz hisobida | 30,3% | 42,45 | 27,3% | 36,4% | 42,4% | 21,2% |

**3.5.2-jadval.**

Navoiy viloyati Navoiy shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli 12-IDUM 8-"I", 8-"A"sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan yakuniy tajriba-sinov natijalari (2021-2022-o'quv yili)

| T/R | Tajriba-sinov jarayonida olingan nazorat ishi turi va mavzulari | tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirish natijalari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 8-"A" sinf, nazorat sinfi, 30 nafar o'quvchi | | | 8-"I" sinf, tajriba-sinov sinfi, 30 nafar o'quvchi | | |
| | | a'lo | yaxshi | qoniqarli | a'lo | yaxshi | qoniqarli |
| 1. | "Alisher Navoiy" mavzusida matn yarating | 7<br>23,3% | 12<br>40% | 11<br>36,6% | 8<br>26,6% | 13<br>43,3% | 9<br>30% |
| 2. | Lug'at so'zlar bo'yicha tuzilgan test sinovi | 7<br>23,3% | 13<br>43,3% | 10<br>33,3% | 10<br>33,3% | 12<br>40% | 8<br>26,6% |
| 3. | "Amir Temur va me'mor" mavzusi asosida tuzilgan grammatik topshiriqlarni bajaring | 6<br>20% | 13<br>43,3% | 11<br>36,6% | 9<br>30% | 13<br>43,3% | 8<br>26,6% |
| 4. | "Hunarning xosiyati" matnidan tuzilgan test | 7<br>23,3% | 15<br>50% | 8<br>26,6% | 10<br>33,3% | 13<br>43,3% | 7<br>23,3% |
| 5. | O'rganilganlar bo'yicha test sinovi | 7<br>24,1% | 13<br>44,8% | 9<br>31% | 10<br>33,3% | 15<br>50% | 5<br>16,6% |
| 6. | "Lison ut-tayr"dan berilgan mumtoz matnni qayta hikoya qiling | 7<br>24,1% | 14<br>42,8% | 8<br>27,5% | 9<br>30% | 16<br>53,3% | 5<br>16,6% |
| 7. | "Ulug'bekning shogirdi" matnidan grammatik topshiriqlarni bajaring | 6<br>20,6% | 16<br>55,1% | 7<br>24,1% | 10<br>33,3% | 16<br>53,3% | 4<br>13,3% |
| 8. | "Tovusning go'zalligi o'ziga dushman" matnidan milliy reyting namunalari asosida tuzilgan test sinovi | 7<br>23,3 | 16<br>53,3% | 5<br>16,6% | 8<br>26,6% | 18<br>60% | 4<br>13,3% |
| 9. | "Sher va sichqon" matni asosida milliy reyting namunalari asosida tuzilgan test sinovi | 7<br>25% | 15<br>53,5% | 6<br>21,4 | 11<br>36,6% | 17<br>56,6% | 2<br>6,6% |
| | Baholar soni o'rtacha | 7 | 14 | 8 | 9 | 15 | 6 |
| | Foiz hisobida | 24,1% | 48,2% | 27,5% | 30% | 50% | 20% |

**3.5.3-jadval.**

Navoiy viloyati Navoiy shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli 16-sonli AFChO'IM 8-"G", 8-"V"sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan yakuniy tajriba-sinov natijalari (2021-2022-o'quv yili)

| t/r | Tajriba-sinov jarayonida olingan nazorat ishi turi va mavzulari | tajriba-sinov va nazorat sinflaridagi o'zlashtirish natijalari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 8-"G" sinf, nazorat sinfi, 30 nafar o'quvchi | | | 8-"V" sinf, tajriba-sinov sinfi, 29 nafar o'quvchi | | |
| | | a'lo | yaxshi | qoniqarli | a'lo | yaxshi | qoniqarli |
| 1. | "Alisher Navoiy" mavzusida matn yarating | 6<br>20% | 11<br>36,6% | 13<br>43,4% | 8<br>27,6% | 10<br>34,5% | 11<br>37,9% |
| 2. | Lug'at so'zlar bo'yicha tuzilgan test sinovi | 7<br>23,3% | 10<br>33,3% | 13<br>43,4% | 8<br>27,6% | 11<br>37,9% | 10<br>34,5% |
| 3. | "Amir Temur va me'mor" mavzusi asosida tuzilgan grammatik topshiriqlarni bajaring | 9<br>30% | 10<br>33,3% | 11<br>36,6% | 10<br>34,5% | 11<br>37,9% | 8<br>27,6% |
| 4. | "Hunarning xosiyati" matnidan tuzilgan test | 9<br>30% | 11<br>36,6% | 10<br>33,3% | 10<br>34,5% | 14<br>48,2% | 5<br>17,2% |
| 5. | O'rganilganlar bo'yicha test sinovi | 10<br>33,3% | 10<br>33,3% | 10<br>33,3% | 12<br>41,4% | 12<br>41,4% | 5<br>17,2% |
| 6. | "Lison ut-tayr"dan berilgan mumtoz matnni qayta hikoya qiling | 10<br>33,3% | 11<br>36,6% | 9<br>30% | 12<br>41,4% | 13<br>44,8% | 4<br>13,7% |
| 7. | "Ulug'bekning shogirdi" matnidan grammatik topshiriqlarni bajaring | 10<br>33,3% | 11<br>36,6% | 9<br>30% | 13<br>44,8% | 12<br>41,4% | 4<br>13,7% |
| 8. | "Tovusning go'zalligi o'ziga dushman" matnidan milliy reyting namunalari asosida tuzilgan test sinovi | 11<br>36,6% | 11<br>36,6% | 8<br>26,6% | 13<br>44,8% | 13<br>44,8% | 3<br>10,3% |
| 9. | "Sher va sichqon" matni asosida milliy reyting namunalari asosida tuzilgan test sinovi | 10<br>33,3% | 12<br>40% | 8<br>26,6% | 13<br>44,8% | 13<br>44,8% | 3<br>10,3% |
| | Baholar soni o'rtacha | 9 | 11 | 10 | 11 | 13 | 6 |
| | Foiz hisobida | 30% | 36,6% | 33,3% | 37,9% | 44,8% | 17,3% |

**3.5.4-jadval.**

Navoiy shahar 7-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi 8-“G”, 8-“D”sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan yakuniy tajriba-sinov natijalari (2021-2022)

| t/r | Tajriba-sinov jarayonida olingan nazorat ishi turi va mavzulari | tajriba-sinov va nazorat sinflaridagi o‘zlashtirish natijalari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 8-“G” sinf, nazorat sinfi, 33 nafar o‘quvchi | | | 8-“D” sinf, tajriba-sinov sinfi, 30 nafar o‘quvchi | | |
| | | a’lo | yaxshi | qoniqarli | a’lo | yaxshi | qoniqarli |
| 1. | “Alisher Navoiy” mavzusida matn yarating | 2<br>6% | 14<br>42,4% | 17<br>51,5% | 5<br>16,6% | 11<br>36,6% | 14<br>46,6% |
| 2. | Lug‘at so‘zlar bo‘yicha tuzilgan test sinovi | 2<br>6% | 14<br>42,4% | 17<br>51,5% | 6<br>20% | 11<br>36,6% | 13<br>43,3% |
| 3. | “Amir Temur va me’mor” mavzusi asosida tuzilgan grammatik topshiriqlarni bajaring | 4<br>12,1% | 17<br>51,5% | 12<br>36,3% | 8<br>26,6% | 12<br>40% | 10<br>33,3% |
| 4. | “Hunarning xosiyati” matnidan tuzilgan test | 4<br>12,1% | 16<br>48,4% | 13<br>39,3% | 8<br>26,6% | 13<br>43,3% | 9<br>30% |
| 5. | O‘rganilganlar bo‘yicha test sinovi | 3<br>9,1% | 17<br>51,5% | 13<br>39,3% | 7<br>23,35 | 15<br>50% | 8<br>26,6% |
| 6. | “Lison ut-tayr”dan berilgan mumtoz matnni qayta hikoya qiling | 4<br>12,1% | 18<br>54,5% | 11<br>33,35% | 5<br>16,6% | 17<br>56,7% | 8<br>26,6% |
| 7. | “Ulug‘bekning shogirdi” matnidan grammatik topshiriqlarni bajaring | 3<br>9,1% | 19<br>57,5% | 11<br>33,35% | 6<br>20% | 17<br>56,7% | 7<br>23,3% |
| 8. | “Tovusning go‘zalligi o‘ziga dushman” matnidan milliy reyting namunalari asosida tuzilgan test sinovi | 4<br>12,1% | 19<br>57,5% | 10<br>30,3% | 8<br>26,6% | 17<br>56,7% | 5<br>16,6% |
| 9. | “Sher va sichqon” matni asosida milliy reyting namunalari asosida tuzilgan test sinovi | 4<br>12,1% | 20<br>60,6% | 9<br>27,2% | 10<br>33,3% | 15<br>50% | 5<br>16,6% |
| | Baholar soni o‘rtacha | 3 | 17 | 13 | 7 | 14 | 9 |
| | Foiz hisobida | 9,1% | 51,5% | 39,4% | 23,4% | 46,6% | 30% |

**3.5.5-jadval.**

Navoiy viloyati Karmana tumani XTBga qarashli 5-IDUM 8-“A”, 8-“B” sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan yakuniy tajriba-sinov natijalari (2021-2022)

| t/r | Tajriba-sinov jarayonida olingan nazorat ishi turi va mavzulari | tajriba-sinov va nazorat sinflaridagi o‘zlashtirish natijalari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 8-“B” sinf, nazorat sinfi, 28 nafar o‘quvchi | | | 8-“A” sinf, tajriba-sinov sinfi, 29 nafar o‘quvchi | | |
| | | a’lo | yaxshi | qoniqarli | a’lo | yaxshi | qoniqarli |
| 1. | “Alisher Navoiy” mavzusida matn yarating | 4<br>14,3% | 11<br>39,3% | 13<br>46,4% | 6<br>20,7% | 12<br>41,4% | 11<br>37,9% |
| 2. | Lug‘at so‘zlar bo‘yicha tuzilgan test sinovi | 4<br>14,3% | 12<br>42,8% | 12<br>42,8% | 6<br>20,7% | 13<br>44,8% | 10<br>34,5% |
| 3. | “Amir Temur va me’mor” mavzusi asosida tuzilgan grammatik topshiriqlarni bajaring | 6<br>21,4% | 12<br>42,8% | 10<br>35,7% | 9<br>31% | 12<br>41,4% | 8<br>27,6% |
| 4. | “Hunarning xosiyati” matnidan tuzilgan test | 5<br>17,9% | 13<br>46,4% | 10<br>35,7% | 10<br>34,5% | 11<br>37,9% | 8<br>27,6% |
| 5. | O‘rganilganlar bo‘yicha test sinovi | 6<br>21,4% | 13<br>46,4% | 9<br>32,2% | 11<br>37,9% | 11<br>37,9% | 7<br>24,2% |
| 6. | “Lison ut-tayr”dan berilgan mumtoz matnni qayta hikoya qiling | 6<br>21,4% | 13<br>46,4% | 9<br>32,2% | 12<br>41,4% | 10<br>34,5% | 7<br>24,2% |
| 7. | “Ulug‘bekning shogirdi” matnidan grammatik topshiriqlarni bajaring | 6<br>21,4% | 14<br>50% | 8<br>28,6% | 10<br>34,5% | 14<br>48,2% | 5<br>17,2% |
| 8. | “Tovusning go‘zalligi o‘ziga dushman” matnidan milliy reyting namunalari asosida tuzilgan test sinovi | 10<br>35,7% | 10<br>35,7% | 8<br>28,6% | 12<br>41,4% | 12<br>41,4% | 5<br>17,2% |
| 9. | “Sher va sichqon” matni asosida milliy reyting namunalari asosida tuzilgan test sinovi | 10<br>35,7% | 11<br>39,3% | 7<br>25% | 12<br>41,4% | 13<br>44,8% | 4<br>13,8% |
| | Baholar soni o‘rtacha | 6 | 12 | 10 | 10 | 12 | 7 |
| | Foiz hisobida | 21,4% | 42,9% | 35,7% | 34,5% | 41,4% | 24,2% |

**3.5.6-jadval.**

Navoiy viloyati Navbahor tumani xalq ta’limi bo‘limiga qarashli 9-umumiy o‘rta ta’lim maktab 8-“A”, 8-“B”sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan yakuniy tajriba-sinov natijalari (2021-2022-o‘quv yili)

| t/r | Tajriba-sinov jarayonida olingan nazorat ishi turi va mavzulari | tajriba-sinov va nazorat sinflaridagi o‘zlashtirish natijalari | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 8-“B” sinf, nazorat sinfi, 28 nafar o‘quvchi | | | 8-“A” sinf, tajriba-sinov sinfi, 29 nafar o‘quvchi | | |
| | | a’lo | yaxshi | qoniqarli | a’lo | yaxshi | qoniqarli |
| 1. | “Alisher Navoiy” mavzusida matn yarating | 5<br>17,8% | 10<br>35,7% | 13<br>46,5% | 7<br>24,1% | 12<br>41,4% | 10<br>34,5% |
| 2. | Lug‘at so‘zlar bo‘yicha tuzilgan test sinovi | 4<br>14,2% | 12<br>42,9% | 12<br>42,9% | 8<br>27,6% | 12<br>41,4% | 9<br>31% |
| 3. | “Amir Temur va me’mor” mavzusi asosida tuzilgan grammatik topshiriqlarni bajaring | 6<br>21,4% | 12<br>42,9% | 10<br>35,7% | 10<br>34,5% | 11<br>37,9% | 8<br>27,6% |
| 4. | “Hunarning xosiyati” matnidan tuzilgan test | 6<br>21,4% | 12<br>42,9% | 10<br>35,7% | 10<br>34,5% | 11<br>37,9% | 8<br>27,6% |
| 5. | O‘rganilganlar bo‘yicha test sinovi | 6<br>21,4% | 13<br>46,4% | 9<br>32,2% | 10<br>34,5% | 14<br>48,3% | 5<br>17,2% |
| 6. | “Lison ut-tayr”dan berilgan mumtoz matnni qayta hikoya qiling | 6<br>21,4% | 13<br>46,4% | 9<br>32,2% | 11<br>34,5% | 13<br>44,8% | 5<br>17,2% |
| 7. | “Ulug‘bekning shogirdi” matnidan grammatik topshiriqlarni bajaring | 6<br>21,4% | 13<br>46,4% | 9<br>32,2% | 10<br>34,5% | 15<br>51,7% | 4<br>13,8% |
| 8. | “Tovusning go‘zalligi o‘ziga dushman” matnidan milliy reyting namunalari asosida tuzilgan test sinovi | 6<br>21,4% | 14<br>50% | 8<br>28,6% | 10<br>34,5% | 15<br>51,7% | 4<br>13,8% |
| 9. | “Sher va sichqon” matni asosida milliy reyting namunalari asosida tuzilgan test sinovi | 6<br>21,4% | 14<br>50% | 8<br>28,6% | 12<br>41,4% | 14<br>48,3% | 3<br>10,3% |
| | Baholar soni o‘rtacha | 6 | 13 | 9 | 10 | 13 | 6 |
